QIZIQMACHOQLARNING JANRIY TABIATI VA BADIIYATI

Monografiyada o‘zbek bolalar folklorining an’anaviy, mustaqil she’riy shakllaridan biri – qiziqmachoqlar xalq qo‘shiqchiligining janriy jihatdan tadrijiy taraqqiyotini o‘rganishda muhim manbalardan biri ekanligi ilmiy-nazariy asoslangan; qiziqmachoqlar xalq qiziqchiligi, ertaklar, bolalar folkloridagi erkalama, ovutmachoq, sanama, tegishmachoq, tez aytish, guldur-gup, hukmlagich kabi janrlar bilan bog‘liqlikda kelib chiqqani va badiiy taraqqiy topganligi, o‘ziga xos janriy xususiyatlarga egaligiga alohida e’tibor qaratilgan.

Risolada qiziqmachoqlarning mavzuiy-shakliy turlari, an’anaviy obrazlar tizimi, asosiy motivlari, lingvopoetik va kompozitsion xususiyatlari, band qurilishi, vazni, qofiyalanish tizimi, ifoda-tasvir uslubi, badiiy-estetik vazifalari faktik materiallar orqali aniqlangan.

ADIZOVA NIGORA BAXTIYOROVNA
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI DOTSENTI

9 786200 623706

Globe EDIT

FOR AUTHOR USE ONLY

Adizova Nigora

NIGORA BAXTIYOROVNA

Globe EDIT



ADIZOVA NIGORA BAXTIYOROVNA

QIZIQMACHOQLARNING JANRIY TABIATI VA BADIIYATI

MONOGRAFIYA

ADIZOVA NIGORA BAXTIYOROVNA

QIZIQMACHOQLARNING JANRIY TABIATI VA BADIIYATI

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

ADIZOVA NIGORA BAXTIYOROVNA

QIZIQMACHOQLARNING JANRIY TABIATI VA BADIIYATI

MONOGRAFIYA

FOR AUTHOR USE ONLY

GlobeEdit

UDK: 39(575.1)(09)
ХВК 82.3(5Ўзб)
A31

Imprint
Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: www.ingimage.com

Publisher:
GlobeEdit
is a trademark of
Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L Publishing group
str. A.Russo 15, of. 61, Chisinau-2068, Republic of Moldova Europe
Printed at: see last page
ISBN: 978-620-0-62370-6

Copyright © ADIZOVA NIGORA BAXTIYOROVNA
Copyright © 2021 Dodo Books Indian Ocean Ltd., member of the OmniScriptum S.R.L Publishing group

FOR AUTHOR USE ONLY

ADIZOVA NIGORA BAXTIYOROVNA

O'ZBEK BOLALAR FOLKLORIDA QIZIQMACHOQLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

FOR AUTHOR USE ONLY

Buxoro - 2021

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ADIZOVA NIGORA BAXTIYOROVNA

FOR AUTHOR USE ONLY

QIZIQMACHOQLARNING JANRIY TABIATI VA BADIIYATI
(MONOGRAFIYA)

Buxoro - 2021

Monografiyada o‘zbek bolalar folklorining an’anaviy, mustaqil she’riy shakllaridan biri – qiziqmachoqlar xalq qo‘shiqchiligining janriy jihatdan tadrijiy taraqqiyotini o‘rganishda muhim manbalardan biri ekanligi ilmiy-nazariy asoslangan; qiziqmachoqlar xalq qiziqchiligi, ertaklar, bolalar folkloridagi erkalama, ovutmachoq, sanama, tegishmachoq, tez aytish, guldur-gup, hukmlagich kabi janrlar bilan bog‘liqlikda kelib chiqqani va badiiy taraqqiy topganligi, o‘ziga xos janriy xususiyatlarga egaligiga alohida e’tibor qaratilgan.

Risolada qiziqmachoqlarning mavzuiy-shakliy turlari, an’anaviy obrazlar tizimi, asosiy motivlari, lingvopoetik va kompozitsion xususiyatlari, band qurilishi, vazni, qofiyalanish tizimi, ifoda-tasvir uslubi, badiiy-estetik vazifalari faktik materiallar orqali aniqlangan.

Monografiya natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, qiziqmachoq janrining spetsifik xususiyatlari, ichki ko‘rinishlari haqidagi qarashlar folklorshunoslik bilan bir qatorda pedagogika, maktabgacha ta’lim, etnologiya, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, san’atshunoslik kabi fanlardan yaratiladigan darslik va qo‘llanmalarning yanada takomillashuviga xizmat qiladi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Mas’ul muharrir:

O‘raeva Darmonoy filologiya fanlari doktori, BuxDU

Taqrizchilar:

Nigora Safarova filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Mexriniso Rizaeva filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Monografiya Buxoro davlat universiteti Ilmiy-texnik kengashining navbatdan tashqari 2021 yil 3 martdagi 3-son yig’ilish bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo folklorshunosligida bolalar tarbiyasi, ularning badiiy tafakkuri va estetik didini o‘stirish maqsadida yaratilgan xalq og‘zaki ijodiga aloqador janrlarning yuzaga kelish jarayoni hamda tarixiy va poetik tadrijiy rivojini aks ettiruvchi manbalarni to‘plash, nashr qilish va tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, folklorning kichik yoshdagi bolalarga qaratilgan lirik namunalari genezisini, o‘ziga xos g‘oyaviy, poetik-kompozitsion, ijro xususiyatlarini o‘rganish etnofolkloristika asoslarini yoritishda, xalq og‘zaki ijodining pedagogika va etnografiya kabi fanlar bilan integratsion taraqqiyoti tarixini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi zamon jahon folklorshunosligida bolalar folklorining poetik tabiati, obrazlar tarkibi, motivlari va badiiy-estetik vazifalarini bevosita ijro holati bilan bog‘lab tadqiq etish tamoyili kuchayib bormoqda. Natijada dunyo xalqlari bolalar folkloridagi o‘xshash janrlarning shakllanishi va tadrijiy taraqqiyoti tarixiy-folkloriy jarayonning tarkibiy qismi ekanligi isbotlandi. Bu esa o‘zbek folklorshunosligida xalq og‘zaki ijodi an’analarining insoniyat badiiy tafakkur qonuniyatlari tadriji nuqtai nazaridan yashab kelayotganini dalillash imkonini bermoqda.

FOR AUTHOR USE ONLY

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, xalqimizning milliy o‘zligi va ma’naviy ildizlarining asosi bo‘lgan xalq og‘zaki ijodini o‘rganishga e’tibor har qachongidan ham kuchaydi. «Yoshlar o‘rtasida mamlakatimiz boy tarixini, uning betakror madaniyatini va milliy qadriyatlarini keng targ‘ib etish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish» muhim vazifa sifatida belgilandi. Axborot oqimi shiddat bilan kirib kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida shonli tariximiz va betakror madaniyatimiz, boy ma’naviy qadriyatlarimiz aks etgan og‘zaki ijod namunalarini saqlash, ajdodlarimiz yaratgan nomoddiy merosni avaylash, bu yodgorliklarning inson ma’naviy kamolotidagi o‘rnini ochib berish hamda uni kelajak avlodga yetkazish folklorshunoslar oldida turgan muhim vazifalardir. Xalqimizning ko‘p asrlar davomida qaror topgan umummilliy qadriyatlarini tiklashda folklor eng asosiy vositalardan biri

hisoblanadi. Uning bir qismi bo‘lgan bolalar folklorini kattalar folklori kontekstida tadqiq etish ana shunday muhim muammolardan biridir. Ularni folklorshunoslikning yangicha kontseptsiyalari va nazariy qarashlari asosida chuqur o‘rganib, janr, obraz va motivlarining genezisini aniqlash, o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy yoritish yangi xulosalar beradi.

O‘zbekiston Respublikasi 2019 yil 21 oktyabrdagi PF-5850-son «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, 2016 yil 13 maydagi «Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida»gi PF-4794-son Farmoni, 2017 yil 17 fevraldagi PQ-2728-son «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2017 yil 24 maydagi «PQ-2995-son «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2017 yil 13 sentyabrdagi PQ-3271-son «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 24 apreldagi 304-son «Baxshichilik va dostonchilik san’atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, shuningdek mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qiziqmachoqlar rus folklorshunosligida «pribautka» atamasi bilan yuritiladi. Aniqrog‘i, ularni bu atama ostida ilk bor sibirlik folklorshunos Ye.A.Avdeeva 1849 yilda “Mahalliy yozuvlar” to‘plamida chop ettirgan. Shunday qilib, rus folklorshunosligida qiziqmachoqlar XIX asrning birinchi yarmi oxirlarida ilmiy jihatdan e’tirof etilib, ularni to‘plash va nashr etishga jiddiy kirishilgan. Biroq janr tabiatini aniqlashga oid tadqiqotlar, asosan, XX asr boshlarida boshlangan.

XX asr boshlarida rus folklorshunosligida qiziqmachoqlarning janriy tabiatini aniqlashga oid maxsus tadqiqotlar paydo bo‘lgan. Ular haqidagi ilk nazariy qarashlar O.I.Kapitsa tomonidan ilgari surilgan. U rus bolala r folklorini tasnif qilar ekan, o‘zigacha bo‘lgan nashrlarda qiziqmachoqlarning ovutmachoq, sanama, ag‘darmachoq, tez aytish, tegishmachoq kabi bolalar folklorining boshqa janrlari bilan aralashtirib yuborilishini alohida ta’kidlab, qiziqmachoqlarning o‘ziga xos xususiyatlarga ega mustaqil janr ekanligini ko‘rsatib o‘tdi. Lekin uning o‘zi ham ba’zan qiziqmachoqlar bilan kattalarning bolalarga atalgan qo‘shiqlarini qorishtirib yuborgani kuzatiladi.

Qiziqmachoqlarning janriy xususiyatlari haqida rus folklorshunosligida V.P.Anikin, M.N.Melьnikov ilgari surgan qarashlar ham qimmatlidir. Xususan, M.N.Melьnikovning qiziqmachoqlar janriy tabiatini, ularning xalq pedagogikasi sohasidagi ijtimoiy-siyosiy qimmatini belgilashdagi qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi.

FOR AUTHOR USE ONLY

O‘zbek folklorshunosligida qiziqmachoqqa mansub namunalarni yozib olish va nashr etish XX asrning 30-yillarida boshlangan. Ammo bu davrda ular “bolalar qo‘shig‘i” degan umumiy nom bilan atalganligi kuzatiladi. Jumladan, Elbek to‘plab nashr etgan «Bolalar qo‘shig‘i» to‘plamida 4 ta qiziqmachoq namunasi mavjud. 1984 yilda O.Safarov “Boychechak” to‘plamida 532 satrdan iborat 13 ta qiziqmachoq namunasini yozib olib nashr ettirgan. Y.Sultonov Farg‘ona vodiysidan 161 satrdan iborat 8 ta va Sobir Ehson Turk Xorazm vohasidan 135 satrlik 4 ta qiziqmachoq matnini yozib olib, e’lon qilishgan. Shunday qilib, hozirgacha jami 920 satrdan iborat 29 ta qiziqmachoq yozib olinib, chop ettirilgan. O.Safarov ta’kidlaganidek: “Hali ozligiga qaramay, shu material ham o‘zbek qiziqmachoqlarining ayrim xususiyatlarini tasavvur etishga va shu asosda ba’zi mulohazalarni izhor qilishga imkon beradi”.

Qiziqmachoqlar shu kungacha yozib olinib nashr ettirilgan esa-da, ularning tabiatini, o‘ziga xos janriy belgilarini, g‘oyaviy-badiiy va kompozitsion xususiyatlarini, turlarini, estetik vazifalarini maxsus o‘rganish hozirgi o‘zbek folklorshunosligi oldida turgan muhim va dolzarb muammolardan biridir. O‘zbek

folklorshunosligida qiziqmachoqlar O.Safarov tomonidan bundan o‘ttiz yil avval o‘bek bolalar folklorining poetikasi va tasnifiga bag‘ishlangan tadqiqotida alohida janr sifatida e’tirof etilib, unga xos ba’zi yetakchi xususiyatlar ko‘rsatib o‘tilgan, xolos. Shu sababli dissertatsiyamizda qiziqmachoqlarni alohida janr sifatida chuqurroq ilmiy tadqiq qilish ko‘zda tutildi.

FOR AUTHOR USE ONLY

I BOB. QIZIQMACHOQLAR–O‘ZBEK BOLALAR FOLKLORINING MUSTAQIL JANRLARIDAN BIRI

I.1. “Qiziqmachoq” atamasining mohiyati va janriy xususiyatlari

Qiziqmachoqlar bolani hayotga to‘g‘ri yo‘naltirish, unga nimanidir bildirish, o‘rgatish, tasavvur-tushunchasini boyitish, qiziqishini oshirish maqsadida ijro qilinishi bois tarbiyaviy-estetik mohiyat kasb etadi va xalq pedagogikasi bilan ham tutashadi. Shu tariqa qiziqmachoqlarning muayyan ma’naviy-badiiy taraqqiyot bosqichini bosib o‘tganligi anglashiladi.

Qiziqmachoqlarni o‘rganish orqali xalq og‘zaki ijodida uchraydigan an’anaviy bolalar qo‘shiqlarining turlarini aniqlash, bolalar folklorining o‘ziga xos poetik taraqqiyotini ham chuqurroq bilib olish mumkin bo‘ladi.

Qiziqmachoqlar boshqa xalqlar bolalar og‘zaki ijodida ham uchraydi. Jumladan, rus bolalar folklorida qiziqmachoqlar «pribautka» atamasi bilan tarqalgan va o‘tgan asrning birinchi yarmi oxirlarida ularni to‘plash va nashr etishga kirishilgan.

FOR AUTHOR USE ONLY

“Pribautka” so‘zi rus tili izohli lug‘atida “qiziq”, “o‘tkir gap”, “piching”, “qochiriq” degan ma’nolarni bildirishi ko‘rsatib o‘tilgan. Bolalar folklorida esa bu so‘z bolalarni qiziqtiruvchi va ovutuvchi aytim qo‘shiqlarga nisbatan janr atamasi sifatida qo‘llanadi. Shuning uchun folklorshunoslikda “pribautka” bolalar folklorining alohida, an’anaviy, mustaqil janrlaridan birini anglatib kelishi ko‘rsatiladi. U bolalar folkloridagi kulgili kichik she’riy hikoya, ya’ni beg‘araz yumorga yo‘g‘rilgan she’riy shaklni bildiradi. Ammo rus folklorshunosligida “pribautka” atamasi biroz keng ma’noga ega. Birinchidan, u orqali aniq bir janr nomi ifoda etilsa, ikkinchidan, bolalar folkloridagi har bir janrda bolalarni qiziqtirish xususiyati mavjudligi inobatga olinib, ularning nomiga ham bu atama qo‘shib aytilishi kuzatiladi. Masalan, schitalki-pribautki (sanama-qiziqmachoqlar) yoki poteshki-pribautki (ovutuvchi-qiziqmachoqlar) kabi va hokazo. Sheyn esa cheklashmachoq-qiziqmachoqlar haqida ma’lumot beradi.

G.N.Potanin, V.I.Dal, A.F.Mojarovskiy, A.Markov kabi olimlar qiziqmachoqlarning yumoristik yo‘nalishiga qarab, ularni (sanama, ag‘darmachoq,

tez aytish, tegishmachoq) kabi boshqa janrdagi asarlar bilan bog‘lab tushuntirishga uringanlar.

Qiziqmachoqlar haqida ilk nazariy qarashlarni ilgari surgan O.I.Kapitsa bolalar folklorini muvaffaqiyatli tasnif qilishga erishgan bo‘lishiga qaramay, qiziqmachoqlar bilan kattalarning bolalar uchun yaratgan qo‘shiqlari orasiga aniq chegara qo‘ya olmasdan, jiddiy chalkashlikka yo‘l qo‘ygan. Olima o‘zigacha bo‘lgan nashrlarda qiziqmachoqlarning gohida ovutmachoqlar bilan, gohida sanama, ag‘darmachoq (perevertыshki), tez aytish va tegishmachoqlar bilan yuqoridagi kabi aralash-quralash berilishidan iborat yanglishuvni tuzatishga intilib, rus bolalar folklorini tasnif qilar ekan, qiziqmachoqlarning o‘z qonuniyatlariga ega mustaqil janr ekanligini ko‘rsatishga harakat qildi. Hatto uning “Bolalar folklori” kitobida qiziqmachoqlarga bag‘ishlangan bir necha sahifa bor. Ammo baribir u ham qiziqmachoqlarni kattalarning bolalarga atalgan qo‘shiqlaridan farqlamay, har ikkalasiga oid poetik namunalarni o‘z kitobida bir bo‘limga birlashtirdi. Biroq M.N.Melьnikov ta’kidlaganidek, bu tasodifiy holat emas. Sababi, qiziqmachoqlar badiiyati bilan kattalarning bolalar uchun yaratgan qo‘shiqlari o‘rtasida jiddiy tafovut kuzatilmaydi. Maishiy hayotda ular bir xil vazifaga ega. Shu sababli M.N.Melьnikov bu borada V.P.Anikinning ham shu janrga oid barcha asarlarni “qiziqmachoq” atamasi ostiga birlashtirishi to‘la asosli ekanligini e’tirof etadi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Shunday qilib, rus folklorshunoslari O.I.Kapitsa bilan V.P.Anikinlar hamma bolalar xalq qo‘shiqlarini “pribautki”, ya’ni “qiziqmachoqlar” deb atashadi.

M.N.Melnikov esa “pribautka”, ya’ni qiziqmachoqlarni bolalar uchun yaratilgan asarlar turkumiga kiritadi. U beshik qo‘shiqlarini, erkalama, ovutmachoq, qiziqmachoq, zerikarli ertak kabilarni bolalarni erkalovchi qo‘shiqlar sirasiga mansub hisoblaydi.

Ko‘rinyaptiki, qiziqmachoq ma’nosidagi janrning aniq xususiyatlari rus folklorshunosligida ham hanuzgacha ayqash-uyqash ta’riflanib kelayotir. Umuman aytganda, rus folklorshunosligida mazkur janr hajmini va tabiatini belgilashda hozirgacha yakdillik yo‘q. Bu holat o‘zbek folklorshunosligi uchun ham begona

emas. Rus folklorshunosligidagi “pribautki” janri namunalariga teng badiiy hodisalar o‘zbek folklorshunosligida “qiziqmachoqlar” deb yuritiladi.

O‘zbek bolalar folklorida qiziqmachoq atamasi va shu atama zamirida namoyon bo‘luvchi poetik namunalarni yozib olish va nashr etish o‘tgan asrning 30-yillarida boshlangan. Biroq ular “bolalar qo‘shig‘i” degan umumiy nom ostida amalga oshirilgan. Jumladan, Elbek to‘plab nashr etgan «Bolalar qo‘shig‘i» to‘plamida «Laqashiqildoq», «Jon burgam», «Bangi-bangi» va «Shodmon yalaqi» singari to‘rtta qiziqmachoq namunasi mavjud. Lekin Elbek qiziqmachoqlarni beshik qo‘shiqlari turkumida bergan. Holbuki, qiziqmachoqlar bolaning beshik davri tugashi bilan kuylana boshlaydi.

O‘zbek folklorshunosligida qiziqmachoqlarning ilk tadqiqotchisi bo‘lgan O.Safarov uning o‘zbek bolalar folkloridagi qadimiy, an’anaviy, mustaqil janrlardan biri ekanligini aniqlab, kelib chiqishiga xalq qiziqchiligi repertuari va kattalar qo‘shiq ijodkorligi muhim zamin bo‘lganligini qayd etib o‘tadi.

O.Safarov o‘tgan asrning saksoninchi yillari oxirlarida o‘zbek bolalar folklorining poetikasi va tasnifiga bag‘ishlangan yirik tadqiqotini e’lon qilar ekan, ilk marta qiziqmachoqlarni ilmiy jamoa e’tiboriga tavsiya etdi. Olim o‘z tadqiqotida, avvalo, “qiziqmachoq” atamasini aniqlashtirib, bu janrga xos ba’zi yetakchi xususiyatlarni ochib berdi. Ammo shundan beri qiziqmachoqlar e’tiborsiz qolib kelayotir. Ularni to‘plash va o‘rganishga qaratilgan harakat deyarli sezilmayapti.

Elbekdan so‘ng qiziqmachoqlarni to‘plash va nashr ettirishga O.Safarov katta ahamiyat qaratdi. Olim o‘zi to‘plagan qiziqmachoqlarni qashqadaryolik folklorshunos K.Ochilov bilan hamkorlikda bolalar folklori namunalari va mehnat qo‘shiqlaridan tuzib, tartib berilgan “Boychechak” to‘plamida e’lon qildi. Ammo bu to‘plamda qiziqmachoq janrining ayrim namunalari “Uzun qo‘shiqlar” mavhumi bilan berilgan.

O.Safarov bolalar folklorida qiziqmachoqlarning mustaqil janr sifatidagi huquqini, ayniqsa, janr mohiyatini aks ettiruvchi atamani ishlab chiqish orqali tikladi. Olim rus tilidagi «pribautka» istilohining «baut» bo‘lagi aslida «zabava»

FOR AUTHOR USE ONLY

so‘zidagi – «bava» qismining fonetik o‘zgarishga uchragan shakli ekanligiga va uning «qiziq» yoki «qiziqarli» degan ma’noni ifoda etishiga e’tibor qaratib, «qiziq» negiziga «-machoq» qo‘shimchasini qo‘shib, «qiziqmachoq» tarzida o‘zbek folkloridagi bolalar qo‘shig‘ining bir turini – janrini umumlashtirib ifoda etuvchi atamani hosil qildi. Tabiiyki, bunda olim to‘plangan qiziqmachoqlarning xususiyatlarini, poetik tabiatini ham inobatga olgan. Chunki qiziqmachoqlar, odatda, beshik davri tugagan kichkintoylarni tevarak-atrof, uni o‘rab turgan nabotot va hayvonot olami, turmush predmetlari bilan tanishtirish maqsadida ijro qilinib, ularni hayotga qiziqtirishi ma’lum.

Qiziqmachoqlar beshik davri intiho topgan bolalarning yosh xususiyatlarini, qiziqish va intilishlarini nazarda tutadi. Shunga ko‘ra, O.Safarov qiziqmachoqlarning ikki muhim xususiyatini:

birinchidan, boshqa janrlarda bo‘lganiday qiziqmachoqlarda ham hayot voqea-hodisalari haqida ma’lumot berish markaziy o‘rin tutishini;

ikkinchidan, ularda bola qalbini to‘lqinlantiruvchi kulgi yaqqol sezilib turishini aniqlab berdi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Shuningdek, olim qiziqmachoqlarning badiiy-kompozitsion xususiyatlari, obrazlar olami haqida ham qimmatli fikr-mulohazalarni ilgari surdi.

Umuman aytganda, O.Safarovning qiziqmachoqlar haqida to‘plagan dalillari, ilgari surgan ilmiy-nazariy qarashlari turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek bolalari folklorida ularning mustaqil janr sifatida shakllanib, yashab kelayotganligini tasdiqlaydi.

Qiziqmachoq janri namunalari kulgili kichik she’riy hikoyalar bo‘lib, ularning asosida qiziq va o‘tkir gap, piching, qochiriq, hazil yotadi. Qiziqmachoqlarda kulgili ifoda, yumoristik ma’no muhim o‘rin tutadi.

Qiziqmachoqlar bolalarning ma’naviy kamolotida katta ahamiyat kasb etadi. Ular bolani tashqi olam bilan munosabatga kirishishga tayorlaydi. Tevarak-atrof bilan tanishtiradi. Bola fantaziyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Qiziqmachoqlar bolalarni qiziqtirish, dunyoqarashini kengaytirish uchun ijro qilinadi.

Qiziqmachoqlarning eng muhim vazifalaridan biri shuki, u bolalarni ijtimoiy muammolar, sinfiy munosabatlar, ba'zi falsafiy kategoriyalar mohiyatini tushunishga yetaklaydi. Mazmunan muhim hayotiy-tarbiyaviy masalalarni qamrab oladi. Mana shunisi bilan ular bolalarga zerikarli tuyulmaydi.

Qiziqmachoqlarda ko'pincha tasodifiy kulgili voqealar, kulgili vaziyatlar bayon etiladi. Shuning uchun ularda hazil-mutoyiba, yumor muhim o'rin tutadi. Qiziqmachoqlar kattalarning bolalar bilan so'z o'yini qilishiga o'xshab ketadi. Ular garchi kattalar tomonidan yaratilsa-da, baribir bolalar xalq she'riyatining namunasi hisoblanadi.

Qiziqmachoqlar erkalama va ovutmachoqlar kabi so'zga asoslanadi. Biroq ular ijrosida aytuvchining turli xil xatti-harakatlari, mimikalari, ovoz ohanglari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda ularni o'ziga xos so'z o'yini, deyish mumkin. Ular aytiladi, kuylanmaydi.

Qiziqmachoqlar ijrosini o'yin harakatlari boshqarmaydi. Mana shu sabab qiziqmachoqlar o'yin folkloriga kirmaydi. Aniqroq aytganda, ularning ijrosi o'yinga xos harakatlar yoki predmetlar bilan boshqarilmaydi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Qiziqmachoqlar o'ziga xos ijro xususiyatlariga ega. Qiziqmachoqlar ijrosining o'ziga xos xususiyatlari esa quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, qiziqmachoqlar tili chiqqan, ya'ni gapira biladigan, gapni tushunadigan va berilgan savollarga javob qaytara oladigan bolalarga aytiladi. Shuni nazarda tutib, qiziqmachoqlar, asosan, bolaga ikki-uch yoshdan aytila boshlanadi, chunki bu yoshda bolaning so'z boyligi ortgan va u ko'p so'zlarning ma'nosini ilg'aydigan bo'ladi.

Ikkinchidan, qiziqmachoqlarning aksariyati dialog (suhbat), ya'ni aytishuv ko'rinishida ijro qilinadi. Shuning uchun ularning badiiy qurilishida poetik dialog alohida o'rin tutadi.

Uchinchidan, qiziqmachoqlar ijrosida o'yin harakatlari deyarli kuzatilmaydi. Ularda so'zga e'tibor kuchli.

To'rtinchidan, qiziqmachoqlarning ijro jarayonida so'z va harakat omuxtaligi ko'zga tashlanadi. Chunki qiziqmachoqlarni ijro etayotganda, odatda, kattalar

ko‘pincha bolalarni tizzasi ustiga o‘tirtirib, tizzasini yengil qimirlatgan holda ijroni shu ritmga moslaydi. Bunda bir qo‘li bilan bolani yo yelkasidan, yo belidan quchib tursa, ikkinchi qo‘li bilan qiziqmachoq matnidagi obraz darajasiga ko‘tarilgan ayrim narsalarni ko‘rsatib, ularga ishora qilganicha o‘z so‘zini aytadi.

Qadimdan otni muqaddas bilib, unga e’tiqodiy munosabatda bo‘lib kelgan ajdodlarimiz bolalarga ot bilan bog‘liq qarashlarni doimo singdirib kelishgan. Masalan, bolani tizzaga o‘tirg‘izib tebratish, erkalash holatida uni xuddi ot ustida chopib borayotgan chavandozdek tezkor, abjir bo‘lishga undash maqsadi seziladi.

Hali o‘yinchoqlar paydo bo‘lmagan vaqtlarda barmoqlar va qo‘llar harakati ham yosh bolalarni o‘ynatish vositasi bo‘lgan. Qo‘l bilan bog‘liq o‘yinlar butun Yevropa va Osiyo mamlakatlari orasida keng tarqalgan.

Qiziqmachoq ijrosida bolani ro‘parama-ro‘para o‘tirtirib, u bilan she’riy dialogga kirishish holati ko‘p kuzatiladi. Bunda aytilayotgan so‘zlarni bola yaxshilab uqib olishi uchun qo‘l harakatidan foydalaniladi. Qo‘l harakati esa ta’kidlash vazifasini bajaradi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Barmoq bilan bog‘liq o‘yinlar yoki qo‘l harakatlari, yoxud umuman, gavdaning biror qismi (oyoq, bosh) bilan bog‘liq o‘yinlar bolani qiziqtirish, ovutish maqsadida ijro qilinadi. Shuning uchun O.I.Kapitsa bunday o‘yinlarni “ovutmachoqlar” degan umumiy nom bilan ataydi. Olima qiziqmachoqlarni hech qanday harakat bilan bog‘lanmaydigan qo‘shiqlar sirasiga kiritadi. Lekin bolani ovutish uchun uni nimagadir qiziqtirish lozimligi ayon haqiqat. Chunki shundagina bolaning e’tibori chalg‘itiladi. Uni bir ruhiy vaziyatdan ikkinchi bir ruhiy vaziyatga moslashtirishga yordam beradi.

Qiziqmachoqlar bolalarning o‘zi yashab turgan tevarak-atrofda mustaqil sayr qilishni o‘rgangandan keyin aytila boshlanadi. Ko‘pincha qiziqmachoqni bolaga sayrdan qaytgandan so‘ng aytadilar. Bunda ko‘pincha bolaga hayotiy hodisalar haqida ma’lumot berishga e’tibor qaratiladi:

Ilon – qamchi,
It – izchi,
Tozi – tezchi,

Kiyik – qochoq,

Chayon – cho‘qoq.

“Xorazm xazinasi” to‘plamidan olingan bu parchada har bir jonivorga xos muhim xususiyat haqida ma’lumot berilayotir. U orqali bola ilonning qamchiday uzun va silliq bo‘lishini, itning hid olishda, tozining esa izquvarlikda tengsizligini, kiyikning chopag‘onligini, chayonning zaharli va chaqadigan xavfli jonivorligini bilib oladi. Bunday qo‘shiqlar bolalarga til o‘rgatishda, tevarak-atrof realiyalari haqida tasavvur uyg‘otishda, ularda musiqiy ko‘nikmani shakllantirishda, eng muhimi, bolalar bilan kattalar o‘rtasida emotsional munosabatni qaror toptirishda katta ahamiyat kasb etadi. Bolaning kayfiyatini ko‘taradi. Uning bilimini oshiradi, o‘ziga nisbatan ishonchini mustahkamlaydi. Bolani injiq va yig‘loqi, lanj va e’tiborsiz bo‘lishdan asraydi.

Beshinchidan, qiziqmachoqlar kattalar tomonidan bolalar uchun yoki bolalarning o‘zi tomonidan ijro qilinishi mumkin. Qolaversa, ularning yaratilishi ham shunday xususiyatga ega ekanligi seziladi. Aytaylik, ba’zan ayrim bolakaylar yo tevarakdagilarni xursand qilish, zavqlantirish uchun, yo ularni o‘z mahorati, bilag‘onligi bilan qoyil qoldirish maqsadida uzun she’riy shaklga ega bo‘lgan qiziqmachoqlarni yod aytadilar. Haqiqatan ham, yoshgina bolaning shuncha so‘zdan tashkil topgan she’rni adashmay, chalg‘imay yoddan aytib berishi kattalarni zavqlantiradi, qiziqtiradi. Bolaning qobiliyatliligi e’tiborga tushadi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Oltinchidan, qiziqmachoqlar ijrosi jihatidan alla, erkalama, ovutmachoq, aytim-olqishlar singari aniq vazifaga va aniq ijro o‘rniyu vaqtiga ega bo‘lmaydi. Ularni istalgan paytda, istalgan joyda aytish mumkin.

Yettinchidan, qiziqmachoqlarning ijro ko‘rinishi uch xil: a) dialog ko‘rinishida (katta kishining bola bilan suhbati tarzida aytilishi); b) yakka holda (katta kishining bolani tevarak-atrof bilan tanishtirish maqsadida qiziqmachoq aytishi yoki bolaning kattalardan o‘rganib olgan qiziqmachog‘ini ular oldida yoki o‘rtoqlariga zavq va dadillik bilan aytib berishi); xor ko‘rinishida (bir qiziqmachoqni katta kishi bilan bolaning jo‘rlikda ijro qilishi) bo‘ladi.

Sakkizinchidan, hayvonlar ovoziga taqlidni ifodalovchi qiziqmachoqlarda ma'lum bir hayvon, qush, parranda ovoziga taqlid qilish yetakchilik qiladi:

Kattalar: Mushukka nima deydi?

Bola: Pish-pish.

Kattalar: Itga nima deydi?

Bola: Kuch-kuch.

Kattalar: Tovuqqa nima deydi?

Bola: Ti-ti-ti.

Kattalar: Eshakka nima deydi?

Bola: Ix, ish.

Kattalar: Otga nima deydi?

Bola: Chuh-chuh.

Bolalar qiziqmachoqlarni ko'pincha kattalarning savoliga javoban aytar ekan, agar bola keragiday javob qaytara olmasa, kattalar tomonidan:

Quvmasang – chosh,

Yodlamasang – yosh!

Burningni tort,

Og'zingni art,

Qayta ayt!

Ayta bilmasang,

Qoch – ket!

Kuch! Yit!

– deya uyaltirilgan va ogohlantirilgan. Keyinchalik bunday aytimlar to'la-to'kis kattalar repertuaridan bolalar repertuariga ko'chgan. Bolalar uni, odatda, "Quv-quv", ya'ni "quvlashmachoq" o'ynaganda debocha qo'shiq tarzida ijro eta boshlashgan.

To'qqizinchidan, qiziqmachoqlarni ko'pincha keksa yoshdagi kishilar o'z nevaralarini o'ynatib o'tirish, ovutish uchun aytishgan. Bunga ishora qiziqmachoqlarning o'zida ham mavjud:

"Oldomoqo bola yaxshi,

FOR AUTHOR USE ONLY

O‘ynomoqo qorri yaxshi.
Ikkinchisini topmosoq,
Nerdan olin to‘yo baxshi?” –
Degan ekan birisi!

Xullas, qiziqmachoqlarning ijrosi ana shunday qator xususiyatlarga ega. Shunisi bilan ular bolalarning e’tiborini tortadi va ularga olam-olam zavq bag‘ishlaydi. Eng muhimi, qiziqmachoqlar ijrosi orqali bolaga badiiy so‘zning kuch-qudrati anglatila boradi.

Shuni ham aytish kerakki, o‘zbek bolalar adabiyotida bolalar folklorida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan qiziqmachoqlar shakli va mazmunidan foydalanib yaratilgan she’rlar kam bo‘lsa-da, uchrab turadi. Bunga bolalarning sevimli shoirlaridan bo‘lgan Qambar O‘taev (Qambar Ota)ning “Serka” she’rini misol qilish mumkin. Unda bolaning serka haqidagi tasavvuri juda kulgili, jonli ifoda etilgan:

Yosh eding-ku, Serkavoy,
Soqol qo‘yib olibsan.
Esizgina, bekorga
Bevaqt qarib qolibsan.

FOR AUTHOR USE ONLY

Bu she’rni qiziqmachoqqa yaqinlashtirgan jihat shuki, unda bolaning o‘z tevarak-atrofini o‘rab olgan borliq haqida bilishga qiziqishi, bevosita o‘zini qiziqtirgan narsa-hodisalar haqida “Nega shunday” so‘rog‘i bilan javob olishga va javob topishga intilishi namoyon etilmoqda. Bola serkaning echki bolasi ekanini eshitganda, nega u kichkina bo‘lsa-da, keksa boboylarday soqoli bo‘lishiga tushunmaydi va buning sababini bilishga qiziqadi, bilishni juda-juda istaydi. Yuqoridagi she’rda aynan bolalar psixologiyasi bilan bog‘liq ana shu qiziquvchanlik real ko‘rsatilgan.

Bunday she’rlar, birinchidan, bolalar adabiyoti badiiy takomiliga bolalar folkloridagi qiziqmachoq janri namunalari ham ta’sir etganligini asoslash, ikkinchidan, qiziqmachoqlarning ko‘proq bolalar yosh psixologiyasi bosqichining

“pochemuchka”, ya’ni “sersavollik” davri deb ataluvchi alohida etapida hamma narsaga nisbatan qiziquvchanlik ehtiyojini qondirish maqsadida yaratilib kelinganini isbotlash uchun yordam beradi. Bunda ularga kattalarning yordami juda kerak bo‘ladi. Aks holda, bolalar ko‘rgan narsalarini o‘zicha izohlamoqchi bo‘lishadi. Ko‘pincha bolalar u yoki bu jonivor, hayvon, qush kabilarning ko‘rinishiga, xususiyatiga o‘zicha izoh keltirishga urinishadi.

Qambar O‘taevning “Qirqoyoq” she’rida ham xuddi shunday holat talqini keltirilgan:

Qirqoyoq hech tunu kun
Tinim bilmaysan nechun?
Desam, dedi, o‘yla, xo‘sh,
Qirq oyoqni boshqarish,
Emas aslo oson ish.

Qambar Otaning ko‘p she’rlarida bolalarning tevarak-atrof, hayvonot olami haqidagi sodda tasavvur-tushunchalari, qiziqishlari, kattalar gapining bolalar tasavvurida namoyon bo‘lishi qiziqmachoq janri tabiatiga xos yumoristik ruhda, uning kompozitsiyasiga xos dialog ko‘rinishida aks ettirilgan. Masalan, shoirning dengiz va baliqchilar suhbati ko‘rinishida yaratilgan to‘rt misrali she’rida bolalarga xos o‘y-kechinma quyidagicha ifoda etilgan:

– Baliqchilar dengizdan
Nega baliq tutadi?
– Balig‘ini tutmasa,
Dengiz toshib ketadi.

Xulosa shuki, o‘zbek bolalar folklori janrlari orasida qiziqmachoqlar alohida o‘ringa ega. Ularda o‘zbek xalqining bolajonligi, bola tarbiyasidagi mas’uliyati o‘ziga xos badiiy shaklda ifodalanganligi kuzatiladi. Ayniqsa, ularda bolani zavqlantiruvchi quvnoq kulgining yuzaga chiqishi natijasida bolalarning hayotsevarlik fazilati ortadi.

FOR AUTHOR USE ONLY

I.2. Qiziqmachoqlarning kelib chiqish asoslari

Bolaning beshik davri tugagach, uning o‘yinqaroqligi orta boradi. Ayniqsa, bola ongida o‘zi ko‘rgan va eshitganlarini tizimlashtirish, tartibga solib tahlil qilish jarayoni boshlanadi. Shundan uning tashqi muhitga qiziqishi kuchayadi. Atrofdagilar bilan muomala qilishga qiziqishi ortadi. Endi bu paytda bolani jimlikka undovchi ovutmachoqlarning ahamiyati o‘z-o‘zidan susaya boradi. Shu tariqa bolalarga kuylanib kelgan ovutmachoq va erkalamalar asta-sekin kamayib, qiziqmachoqlar ijrosi salmog‘i oshib boradi. Ana shu kezda bolani tevarak-atrof bilan tanishtirishga qaratilgan qiziqmachoqlarning ahamiyati katta bo‘ladi. Xususan, fantastik motivlar bilan yo‘g‘rilgan qiziqmachoqlar bolaning aqliy qobiliyatini rivojlantirishga, orzu-istaklarini, intilishlarini kuchaytirishga katta yordam beradi. Shuning uchun qiziqmachoqlar uzoq asrlar davomida xalq pedagogikasining betakror vositalaridan biri sifatida shakllanib, taraqqiy topib kelgan.

Rus folklorshunosi M.N.Melьnikov qiziqmachoq xarakteridagi bolalar qo‘shiqlarining shakllanishi YIII asrga to‘g‘ri kelishini yozadi. Ammo ba’zi olimlarning fikricha, ular bolalar folklorining mustaqil janri sifatida XYIII asrda shakllangan. Ularni o‘rganishga nisbatan qiziqish esa XIX asrda paydo bo‘lgan.

N.V.Sheyin qiziqmachoqlarni hatto bolalar folklori namunasi sifatida ko‘rsatishdan bosh tortadi. Sababi, ular bolalar folklorida kattalar tufayli paydo bo‘lgan.

Sibirlik folklorshunos Ye.N.Avdeeva qiziqmachoqlarning onalar va enagalar tomonidan nafaqat kuylanishini, balki yaratilishini aytib o‘tadi. Shuning uchun u qiziqmachoqlarni beshik qo‘shiqlaridan ajratmaydi.

Aksariyat janrlar qatori qiziqmachoqlarning kelib chiqishida ham epik an’ananing ta’sirini sezish mumkin. Binobarin, buni ayrim qiziqmachoqlarning tarkibida uchraydigan an’anaviy epik motivlar asosida dalillab ko‘rsatsa bo‘ladi. Chunki ularda shunday motivlar uchraydiki, bevosita afsona va ertaklar syujetini yodga soladi. Ularda fantastika (xayoliy uydirma) yetakchiligi kuzatiladi.

FOR AUTHOR USE ONLY

O.I.Kapitsa qiziqmachoqlarning ko‘proq ertaklarga o‘xshab ketishini alohida ta’kidlaydi. Darhaqiqat, o‘zbek xalq qiziqmachoqlari orasida «G‘oz-g‘ozim bor» satri bilan boshlanuvchi namunalar borki, ular muayyan stilistik-kompozitsion turkumni hosil qiladi. Bunday qiziqmachoqlarning yaratilishida ertaklarning ta’sirini sezish qiyin emas. Jumladan, g‘oz obrazi ertak va dostonlarda ko‘p uchraydi.

Ma’lumki, ko‘pgina xalqlar orasida g‘ozga nisbatan e’tiqodiy qarash shakllangan. Taniqli folklorshunos Sh.Turdimov o‘zbek xalqi tasavvurida g‘ozning ilohiy qudratga ega elchi, xabarchi qush, ezgu ruh sifatida talqin etilishini aytib o‘tadi. G‘oz haqida bunday qarashlarning kelib chiqishiga uning bemalol ko‘kda ucha bilishi, yerda yura olishi, suvda suzishi bilan bog‘liq o‘ziga xos xususiyati asos bo‘lgan. Shu voqelik g‘ozlarning afsonaviylashtirilishiga va epik timsol darajasiga ko‘tarilishiga sabab bo‘lgan. U xalq tasavvurida dunyoning ana shu uch qismini bog‘lab turuvchi qush sifatida talqin etiladi. Osmon xudolarining yerdagi elchisi sanaladi.

G‘ozning “xabarchi qush” sifatidagi epik vazifasi, ayniqsa, “Alpomish” dostonida yorqin tasvirlangan. Jumladan, dostonda u chohga tushib qolgan Alpomishning tirikligidan yaqinlariga xabar yetkazadi.

E’tiborli jihati shundaki, bolalar uchun yaratilgan qiziqmachoqlarda ham g‘ozning ana shu epik vazifasi talqini kuzatiladi. Quyidagi kattagina hajmli, muayyan syujetga ega qiziqmachoqda g‘oz obrazi voqealarga olib kiruvchi vosita vazifasini o‘tagan:

G‘oz-g‘ozim bor g‘oz-g‘oz,
Biri chaman, biri bo‘z,
Mindim bo‘zning beliga,
Tushdim g‘or-g‘or yo‘liga.

Ma’lumki, ba’zi ertaklar syujetida epik qahramon g‘ozni minib sirli makonga yo‘l oladi. Bunga hatto rus xalq ertagi “Ivan bukri”ni misol keltirish mumkin. Xuddi shuningdek, ushbu qiziqmachoqda qahramonning “bo‘z g‘ozning beliga minib” sirli makon – g‘orga kirib borishi ertaklar syujetini yodga soladi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Qolaversa, qiziqmachoqda g‘ozning biri chaman, biri bo‘z ekanligi ham e’tiborlidir. Chunki o‘zga makonga, asosan, bo‘z ot, bo‘z g‘oz bilan borilishi yoki chiqib qaytilishi talqin qilinadi. Masalan, bunga “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlaridan sanalgan “Malika ayyor”da Tillaqizning Bo‘ztulporini misol qilish mumkin. Bu ot uning Gulchorbog‘ degan bog‘ida turar edi. Tillaqiz bilan Shozargar shu otga mingashib hamda sermasa qirq gaz uzun bo‘ladigan keskir xanjarlarni olib, sirli Torkistondan chiqib ketadilar.

Qahramon g‘orga kirib borar ekan, u yerda birma-bir g‘aroyib voqealarning shohidi bo‘la boshlaydi. Chunki afsona, ertak va dostonlarda g‘or – sirli makon eshigi sifatida tasvirlanadi.

G‘or-g‘or yo‘li oq bozor,
Oq bozorda kim kezar?
Bitta maymuncha kezar.

G‘or, asosan, mifologik obrazlar (dev, ajdar, yalmog‘iz, pari) makon tutgan joy hisoblanadi. Maymun esa ko‘pincha pari obrazining ekvivalenti sifatida talqin etilgani kuzatiladi. Masalan, o‘zbek xalq ertagi “Bulbuligo‘yo”da pari qizning maymun qiyofasidagi ko‘rinishi ifodalangan. Shuning uchun g‘or orqali o‘tib borilgan oq bozorda maymunning uchrashi oddiy hol emas. Hatto bu o‘rinda maymun bilan bulbul obrazining yonma-yon keltirilishi yana bir karra “Bulbuligo‘yo” ertagining syujetini yodga soladi. Chunki bu bulbul oddiy bulbul emas. Uning “o‘ng barmog‘i kumushdan” ekanligi g‘ayrioddiyligidan dalolat berib turadi. Bu bilan bulbulning sirli tabiatiga ishora qilinmoqda:

Bulbul qafasda sayrar.
Bulbul uyi qamishdan
O‘ng barmog‘i kumushdan.
Hofiz og‘am uydami?
Bedov otda to‘ydami?

Xalq lirik qo‘shiqlarida bulbul ko‘pincha oshiq timsolini o‘zida ifodalab kelsa, kichkintoylarga bag‘ishlab yaratilgan folklor namunalarida esa bola, farzand ramzini anglatishga xizmat qiladi. Bunda bolaning jisman murg‘akligi, jussasi

FOR AUTHOR USE ONLY

kichik bo‘lishiga qaramay, ovozining o‘tkirligi va yoqimliligi uni bulbulga o‘xshatishga asos bo‘la oladi. Shuningdek, bulbul qafasda boqilganidek, bola beshikka solib boqiladi. Lekin bola bulbulga qaraganda baxtli. U yurib, gapirib, o‘z-o‘zini mustaqil eplaydigan bo‘lgach, beshigini tark etadi. Bulbul esa hayotining so‘nggigacha qafasda qolib ketaveradi. Shu o‘xshashlik asosida erk va erkinlikning qadr-qimmati ulug‘lanmoqda.

Bir qaraganda, yuqoridagi qiziqmachoq matnida bulbul (qush) obrazidan so‘ng hofiz (inson) obrazi keltirilishi mantiqsizday tuyuladi. Aslida esa bu o‘rinda tanosib san’ati qo‘llangan. Chunki bulbul xushxon sayroqi qush bo‘lganligi sababli ko‘pincha hofizga o‘xshatiladi. Hatto o‘zbek xalq afsonalarida bulbulning bir vaqtlar odam bo‘lganligi, oshiqligi sabab hofiz qushga aylanib qolganligi hikoya qilinadi. Bunga “Bulbul bilan To‘rg‘ay”, “Hazrati Xo‘jam bulbul” afsonalari misol bo‘la oladi. Shunday ekan, qiziqmachoqda bulbul va hofiz obrazlarining parallellikda keltirilishi bejiz emas.

FOR AUTHOR USE ONLY

Shundan so‘ng qiziqmachoqda sirli voqealar birin-ketin hayotiy voqealarga ulana boshlaydi:

Bedov otni minmakka
Hofiz og‘am yarashar.
Hofiz og‘am qo‘liga
Kesar qilich yarashar...
Kesar qilich kesmoqqa
Nemis kalla yarashar
Nemis kalla ko‘mmakka
Suyuq chaga yarashar.

Qiziqmachoqning keyingi misralari tarbiyaviy mohiyat kasb etgan. Unda inson kim bo‘lishidan, qaysi kasb bilan shug‘ullanishidan qat’iy nazar, avvalo, o‘z elu yurtining himoyachisi, uning erki va ozodligi uchun kurashuvchi bo‘lishi lozimligi uqtirilmoqda. Ana shundagina qiziqmachoqda tasvirlanganidek hamma narsa o‘z o‘rnida bo‘ladi:

Suyuq chaga ustiga.

Ko‘rpa o‘tlar yarashar.
Ko‘rpa o‘tlar yemakka
Uloq-qo‘zi yarashar.
Uloq-qo‘zi sog‘moqqa
Oqcha kelin yarashar.
Oqcha kelin qo‘liga
Chinni kosa yarashar
Chinni-kosa ichiga
Yog‘li patir yarashar
Yog‘li patir yemakka,
Lo‘ppi bola yarashar.

Bunday qiziqmachoqlar xalq va Vatan erki uchun kurash – farovon hayotning garovi, degan muqaddas g‘oyani murg‘ak qalblarga singdirishni ko‘zlab yaratilgan.

Qiziqmachoqning g‘oz obrazi bilan boshlanib, bola obrazi bilan tugayotganligi ham o‘ziga xosdir. Chunki folklor asarlarida g‘oz obrazining farzand timsolida talqin etilishi uchraydi. Masalan, o‘zbek xalq maishiy dostoni “Erali va Sherali”da befarzand o‘gay onaning yettita g‘ozni bola sifatida boqib parvarishlashi ifoda etilgan. Dostonda g‘oz obrazi tugunning hosil qilinishida muhim vazifa bajargan. Chunki Erali va Sheralining tasodifan ana shu g‘ozlarni otib qo‘yishi natijasida voqealar rivoji yuz beradi. O‘gay ona g‘ozlari o‘ldirilgani uchun yigitchalardan o‘ch olish maqsadida ularga tuhmat yog‘diradi. Shu tuhmat sabab bolalar otasi tomonidan o‘limga buyuriladi. Ammo homiy kuchlar ko‘magida ular o‘limdan qutilib qolib, yo‘lga otlanadilar va ko‘pgina sarguzashtlarni boshdan kechiradilar. Ko‘rinyaptiki, bu dostonda ham g‘oz voqealarning boshlanishidagi asosiy vosita vazifasini bajargan.

Quyidagi qiziqmachoqda “oltin soch” detali mavjud:

Piring keltir, ko‘rayin,
Oltin sochin yuvayin.
Oltin sochin yuvmasa,
Xonga javob berayin.

FOR AUTHOR USE ONLY

Oltin soch – ertaklarda uchraydigan an'anaviy obrazlardan biri. Uning kelib chiqishiga soch kulьtiga aloqador mifologik qarashlar ta'sir ko'rsatgan. Oltin soch ertak qahramonining xarakter-xususiyatini belgilab ko'rsatishga xizmat qiladi. Uning magik kuchga egaligini bildiradi.

Folklorshunos Z.Rasulova ta'kidlab o'tganidek: "Qadimgi kishilarning boshga nisbatan e'tiqodiy tasavvur-tushunchalari soch bilan bog'liq e'tiqodlarning ham shakllanishiga olib kelgan. Soch bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlar esa epik asarlarda sehrli soch tolasi, sehrli yol (tuk, qil), tilla kokil, tilsim teri obrazlari yaratilishiga asos bo'lgan. Ular sehrli-fantastik ertaklar syujetida o'ziga xos poetik vazifa bajarib keladi.

Demak, qiziqmachoqlarning kelib chiqishida xalq ijodi an'analari zamin vazifasini o'tagan. Ayni paytda qiziqmachoqlar ham bolalar folkloridagi ayrim janrlarning tadrijiy takomiliga o'ziga xos ta'sir ko'rsatgani seziladi. Buni qiziqmachoqlar haqida yaratilgan ayrim tadqiqotlarda ularning gohida ovutmachoqlar bilan, gohida sanama, ag'darmachoq, tez aytish va tegishmachoqlar bilan aralash-quralash berilishi misolida ilg'ash mumkin. Rost, qiziqmachoqlar bu janrlarning paydo bo'lishi va shakllanishida o'ziga xos poydevor vazifasini o'taganligini inkor qilish qiyin.

FOR AUTHOR USE ONLY

Qiziqmachoqlar havzak-havzaklar bilan ham ulanib ketadi. Bunda bolalarga qo'l barmoqlari orqali sanash o'rgatiladi. Bolalarga sanashni o'rgatuvchi qiziqmachoqlar aslida alohida guruhni tashkil qiladi. Keyinchalik bunday qiziqmachoqlar sanama janridagi aytimlarning kelib chiqishiga asos bo'lganligi seziladi. Shuning uchun sanama va qiziqmachoqlar munosabatini alohida o'rganishga to'g'ri keladi. Chunki qiziqmachoqlarda uchraydigan ayrim motivlarga sanamalarda ham duch kelish mumkin. Binobarin, shunday qiziqmachoqlar ham borki, ular sanash ohangida aytilishi, syujetida raqamlarga izoh berilishi bilan sanamalarga o'xshab ketadi. Masalan:

Bir – mamak,
Ikki – imak,
Uch – dil och,

Do‘rtda – qoch,

Beshda – boq,

Olti – yorg‘oq,

Yeddi – yel,

Sakkiz – sel,

Do‘qqiz – do‘q,

O‘ndo – o‘q,

O‘n besh – suyuq,

Yigirma – quyuq,

O‘ttiz – o‘kiz,

Qirq – nirx,

Alli – balli,

Oltmish – qoytmish,

Yetmish – yempik,

Sakson – so‘mpik,

Yuzda – go‘mmik!

FOR AUTHOR USE ONLY

O‘zbek xalqining “Oychinor” dostonida ham inson yoshi ma’lum hayvon va narsa xususiyatlari bilan tenglashtirilgan shunga o‘xshash motiv bor. Bunga Y.Rahmatovning “Tarixiy dostonlarda tarixiy shaxs obrazining epik talqini” (“Oychinor” va “Shayboniyxon” dostonlari misolida) mavzusidagi dissertatsiyasida alohida e’tibor qaratilgan. Uning yosh Oychinor tomonidan keksa Nazarboyga qarata aytilgan qalin shaklidagi chaldirmog‘ida uchrashi aytilgan. Bu chaldirmoqda inson hayotining turli yoshdagi jismoniy-ruhiy holati ma’lum bir hayvonlarning xarakterli belgisiga chog‘ishtirilgan. Inson bolasi o‘n yoshida go‘yo o‘ynoqi, sho‘x qo‘ziday; yigirma yoshida bamisoli bo‘riday; o‘ttiz yoshida arslonday; qirq yoshida qoplonday ayni kuch-quvvatga to‘lgan, navqiron, shiddatli, aqliy va jismoniy kamolotga erishgan; ellik yoshida no‘xtalangan ayg‘ir otday aqlini jilovlagan, aqli to‘xtashgan; oltmish besh yoshida axtalangan otday jismonan zaiflashgan, ojiz, keksaygan; sakson yoshida serkaday bir tutam soqoli selkillagan;

to‘qson yoshida taxta tobutga taxt, taxtaday harakatlari qotib qolgan, sustharakat bo‘lishi ramziy ko‘rinishda ifoda etilgan.

Ahamiyat berilsa, yuqoridagi qiziqmachoq mazmunan dostonda keltirilgan chaldirmoqqa yaqin. Unda ham inson bir yoshgacha chaqaloq sifatida mustaqil harakatlana olmasligi, emizik holatida bo‘lishi, ikki yoshgacha emaklashi, asta-sekin oyoq chiqarib, yura boshlashi, uch yoshga to‘lganda tili to‘liq chiqishi, to‘rt yoshda yuguradigan bo‘lishi, besh yoshda e’tibor talabligi oshishi, oltisida tishlari to‘kilib yorg‘oqlanishi, yettisida yelday uchqur, sakkizida selday jo‘shqin va shoshqin, to‘qqizida aqli ancha to‘lishishi, o‘nida o‘qday hozirjavob va chaqqon, o‘n beshida jinsiy maylining ortishi, yigirmasida esa ulg‘ayib, xarakter-xususiyatining qat’iylashishi, ya’ni quyilishi, o‘ttizida jismoniy kuch-quvvatining, qirqida esa aql-zakovatining to‘lishishi, elligida axloqiy o‘gitlar berishga o‘ch bo‘lishi, oltmishida keksalik soya sola boshlashi, xotirasi zaiflashib, qo‘l-oyog‘idan mador keta boshlashi, ko‘z nurining xiralashishi, yetmishida yalpayib, saksonida so‘ljayib qolishi, nihoyat, yuz yoshda o‘limga yuz burishi voqealari ifoda etilmoqda.

FOR AUTHOR USE ONLY

Ko‘rinyaptiki, bu matn sanama emas. Unda inson yosh xususiyatlari, uning jismoniy-ruhiy va ma’naviy rivojlanish yosh bosqichlari sanab ko‘rsatilmoqda, xolos.

Qiziqmachoqlarni yaratishda ba’zan xalq og‘zaki ijodidagi biror-bir kichik hajmli mustaqil janrdan foydalanilganligi kuzatiladi:

– Ola tog‘ning boshida ne ko‘rding?

– Oq beshikni men ko‘rdim.

Qiziqmachoqqa bu misralar topishmoqdan olib qo‘shilganligiga shubha yo‘q. Chunki “Ola tog‘ning boshida oq beshik” topishmog‘ining javobi yozda tog‘ tepasida saqlanib qolgan qorni anglatadi. Bu misralar orqali qiziqmachoqlarning topishmoqlarga xos ifoda shaklidan ham foydalangan holda badiiy-tadrijiy takomilga erishganini kuzatish mumkin. Yoki yana:

Abdullaxon – beustixon,

Chopib o‘ynar dikon-dikon.

Topib olsam kallamdan,
Ko‘zi yonar miton-miton.
Tizzalab tepdi boshimga,
Keyin tushdi oshimga.

“O‘zbek xalq topishmoqlari” kitobida Abdullaxon – beustixon” topishmog‘i bor va uning javobi “bit” deb ko‘rsatilgan.

O‘tmishda kambag‘al, qashshoq oilada tug‘ilgan bola uchun bit tanish bo‘lgan. Yuqoridagi qiziqmachoqda u kulgili tasvirlanmoqda. Ya’ni bit ozoridan hasratlanayotgan inson tomonidan bayon etilayotgan bu qiziqmachoq bolaning kulgisiga sabab bo‘ladi. Bola bu g‘aroyib voqeadan zavq olib, u haqda fikr yurita boshlaydi. Bundan yanada u yangi qoniqish oladi. Chuqur fikrlash esa bolani mantiqiy tafakkur yuritishga yetaklaydi. Bola shuni ilg‘aydiki, qiziqmachoqda aytilayotgan voqeaga kattalarning o‘zi ham ishonmaydi. Aytilayotganlar hazil ekanligini bola anglaydi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Qiziqmachoqlarning topishmoqlar bilan munosabati yana shunda ko‘rinadiki, ular bolalarni tevarak-atrof va maishiy turmush voqeliklari, axloq-odob normalari, hayvonot olami, o‘simliklar dunyosi bilan tanishtirish maqsadida aytilar ekan, ko‘pincha gap nima haqda borayotganligini topishga undaydi. Masalan, “Yulduzlar” haqidagi qiziqmachoqda dastlab: “Yozdo-qishdo, Yori geja”, – deyilgandan so‘nggina uning “Dik (tik) tarozi” ekanligi aytiladi. Keyingi misralar ham shu tarzda davom ettiriladi:

Erda – gechda,
Cho‘lpon cho‘qoy,
Yulduz to‘g‘oy.
Vojir-vujur,
Onging uchur.
Oltin qoziq,
Damir qoziq.
Yolg‘iz qoziq.
Cho‘mich qoshiq,

Ulli cho‘lpi,
Yeddi og‘o –
Yeddi yerda.
Ulkar nerda?
Topovilsang
Hallang ot,
O‘rtodo yot!

Ko‘rinyaptiki, qiziqmachoqda boladan har bir yulduzning nomini, uning joylashish o‘rnini bilish, so‘ralganda topib aytish talab etilayotir.

Bu o‘rinda yana shuni aytib o‘tish joizki, ayrim bolalar kichikligida yolg‘iz yotishga yoki chetroqda yotib uxlashga qo‘rqishadi va ko‘pincha yonma-yon yotgan og‘a-inilarining o‘rtasiga suqilib kirishga intilishadi. Agar og‘a-inilari uning bu xohishini rad etguday bo‘lishsa, kattalarga shikoyat qilishgacha boradi. Mana shunday paytlarda kattalar unga biror shart bilan qiziqmachoq aytishgan. Xuddi shu vaziyat bilan bog‘liq yuqoridagi qiziqmachoqda boladan samo yoritgichlari – yulduzlar nomlari (kosmonimlar)ni hamda ularning osmonda joylashish o‘rnini bilish talab etilayotir.

FOR AUTHOR USE ONLY

Ushbu qiziqmachoq yozda uy ichida emas, tashqarida, ochiq havoda uxlashdan oldin aytiladiki, bundan ularning ayrimlari ma’lum vaqtda, ma’lum bir vaziyatda aytilishi ham anglashiladi.

Kattalarning bolalar bilan hayot voqeliklariga bag‘ishlangan suhbati ko‘rinishida yaratilgan qiziqmachoqlarda topishmoqqa yaqinlik yanada yorqin seziladi. Masalan:

Tuyaga – burunliq,
Otga – suvliq,
Eshaka – dallik,
Ita – gamik,
Sig‘irga – somon,
Ochga – non,
To‘qqa – iymon.

Bunday qiziqmachoqlarning har bir misrasidagi birinchi so‘z katta kishining bolaga qaratgan jumboqli so‘rog‘ini bildirsa, unga izoh bo‘lib kelgan ikkinchi so‘z esa bolaning javobini anglatadi.

Qiziqmachoqlarning tez aytishlar bilan ham munosabatini kuzatish mumkin:

Uchramay ketsin uch xotin,
Uchovi uch musht urdi.
To‘ramay tursin to‘rt xotin,
To‘rttasi to‘rt musht urdi.

Ushbu misralarda “u” va “t” tovushlari takrori uni tez aytishga o‘xshatgan. Chunki bu matn tez-tez va takror-takror aytilsa, xuddi tez aytish kabi aytayotgan kishini chalg‘ib yuboradi.

Umuman aytganda, qiziqmachoqlarda sanamalar, topishmoqlar, tez aytishlar, chandishlar ta’siri seziladi. Shuning uchun G.N.Potanin, V.I.Dalь, A.F.Mojarovskiy, A.Markov kabi olimlar uni ba’zan bolalar folklorining boshqa janrlari, ayniqsa, ovutmachoq va erkalamalar bilan qorishtirib yuborganliklari seziladi. Faqatgina O.I.Kapitsa ularning bolalar folklorida mustaqil janr ekanligini ko‘rsatib bera oldi. Ammo u ham qiziqmachoqlar bilan bolalar uchun yaratilgan boshqa qo‘shiqlar o‘rtasiga aniq chegara qo‘ya olmadi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Qiziqmachoqlarning allalar, erkalamalar, ovutmachoqlardan muhim farqi shundaki, ularda kattalar jo‘shqinligi ustuvorlik qilsa, qiziqmachoqlarda bolalar jo‘shqinligi, zavqi ustunlik qiladi. Ayniqsa, qiziqmachoqlarning ovutmachoq va erkalamalardan asosiy farqi shundaki, ular bolalarni hayot bilan tanishtiradi, kichkintoylarga axloqiy o‘git berish vazifasini bajaradi. Lekin shunday bo‘lsa-da, qiziqmachoqlarning bolalarni ovutish, erkalash uchun aytilishini inkor qilib bo‘lmaydi.

Erkalamalarning «Ha, lo‘tti, lo‘tti, lo‘tti» kabi an’anaviy satrlar bilan boshlanuvchi bir silsilasi borki, ular uch yoshgacha bo‘lgan bolalarni havolata-havolata aytiladi. Ammo ayrim qiziqmachoqlarning ham shu boshlanma asosida yaratilganligi kuzatiladi:

Ha lo‘tti, lo‘tti, lo‘tti,
Do‘sting ko‘chadan o‘tdi.
Do‘stingni kimga sotay,
Gangur-gungurga sotay.
Gangur-gungur na bo‘ldi,
Xotin olmoqchi bo‘ldi.
Xotinining kuchi yo‘q,
Barmog‘ining uchi yo‘q.

Bunday misollar qiziqmachoqlarning erkalamalar bilan munosabatini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Chunki erkalamalar bolalarga nafaqat beshik davrida, balki beshik davri tugaganidan so‘ng ham qiziqmachoqlar bilan bir qatorda aytilaveradi. Ehtimol, shu sabab ba’zan ularga xos xususiyatlar ijro jarayonida yuqoridagi kabi qo‘shilib ketadi.

Berilgan qiziqmachoqning erkalamadan farqi shundaki, u garchi erkalamalarga xos tarzda bolani erkalash ohangi bilan boshlangan bo‘lsa-da, keyingi satrlarda bola haqida emas, uning lo‘ttiboz do‘sti xususida so‘z bormoqda va unga kinoya qilinmoqda. Demak, qiziqmachoqdagi “lo‘tti” takrori be’mani, ko‘p gap sotadigan, gapida turug‘i yo‘q kishilarning kinoyaviy obrazini o‘zida ifodalab kelgan.

FOR AUTHOR USE ONLY

Qiziqmachoqlar kattalarning bolalar uchun ijod etgan erkalama va ovutmachoqlari qatorida turadi. Shuning uchun ba’zida qiziqmachoqlar mazmunida, shaklida, ritmida, ijro ohangida bu janrlarga xos xususiyatlarning omuxtalashishi tabiiy. Masalan:

Ana o‘sha tog‘midi?
Tog‘ orqasi bog‘midi?
Shu bog‘chaning ichida,
Maning qizim bormidi?

Ko‘rinyaptiki ushbu qiziqmachoqda erkalamaga xos ohang mavjud. Ammo qo‘shiq mazmuni bolakayni u yashab turgan hudud bilan tanishtirish maqsadiga qaratilganligi uchun qiziqmachoq hisoblanadi.

Har bir bola yoshligidan o‘zi yashab turgan hudud haqida ma’lum bilim va tasavvurga ega bo‘lmog‘i lozim. U o‘z yashash manzilini muayyan belgilar asosida to‘g‘ri mo‘ljalga ola bilishni o‘rganishi kerak. Chunki bolalar ulg‘aygan sayin o‘z uyidan ucharchin bo‘lgan polaponlar singari uzoqroqlarga borib o‘ynab kelishga qiziqishadi. Shunday holatlarda bolalarning adashib qolmasligini kafolatlash maqsadida kattalar ularga qiziqmachoq qo‘shiqlari orqali yoxud suhbatu sayrlar jarayonida o‘zi yashab turgan hudud, tevarak-atrof bilan yaqindan tanishtirishga harakat qilishadi. Bu fikrni quyidagi qiziqmachoq matni yorqin tasdiqlay oladi:

– Hali nerdan kelasan?

– Uy saridan kelaman.

– Qaysi yo‘ldan keluvding?

– Tepachadan keluvdim.

–Tepachaning ustida

Dilon aytganin ko‘rding?

–Tepachaning ustida

Oqqina o‘tovni ko‘rdim.

Oqqina o‘tov ichida

Oqqina kelinni ko‘rdim.

Oqqina kelin oldida

Oqqina beshikni ko‘rdim.

Oqqina beshik ichida

Oqqina buvakni ko‘rdim.

Oqqina buvak oldida

Oqqina jomni ko‘rdim.

Oqqina jomning ichida

Naqshin olmani ko‘rdim.

Ovutmachoqlarning qiziqmachoqlarga ta’sirini ilg‘ashda quyidagi matn qo‘l keladi:

Quyoncham, quyoncham,

Nega yig‘lab yotibsan.

FOR AUTHOR USE ONLY

O‘rningdan tur-chi,
Qo‘l betingni yuv-chi.
Oynaga qara-chi,
Sochingni tara-chi.
Xohlaganingni ol-chi.

Folklorshunoslar bu qo‘shiqni o‘yin-qo‘shiq sifatida ko‘rsatishadi. Aslida unda qiziqmachoq hamda ovutmachoq belgilarini ko‘rish mumkin. Sababi shundaki, odatda, yig‘lab turgan bolaga ovutuvchi so‘zlar hamda biror-bir uni qiziqtiruvchi narsalar (shirinliklar, o‘yinchoqlar) bilan murojaat qilinadi. Shu yo‘l bilan u yig‘idan chalg‘itilib, diqqati markazlashtiriladi. Bola bunda ham ovutuvchi so‘zlardan, ham o‘ziga berilgan narsalardan dalda topib yig‘lashni to‘xtatadi. Chunki sog‘lom bola hech qachon kattalarning bunday marhamatidan voz kecholmaydi.

Ma’lumki, ovutmachoqlar o‘zbek xalq bolalar folklorining alohida, mustaqil, an’anaviy janrlaridan biri bo‘lib, odatda, yig‘lab yoki g‘ashlanib turgan bolalarga qarata kattalar tomonidan aytiladi. Bunda yig‘lab turgan bolani chalg‘itish, e’tiborini qozonish, qiziqishlaridan foydalanish maqsadida qiziqmachoqlar ijro etiladi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Yuqoridagi qiziqmachoqda bolaga “quyoncham” deya bejiz murojaat qilinmayotir, chunki bolalar orasida ko‘pchiligi oppoq yoki kulrang, momiq quyonchani yaxshi tanishadi. Shuning uchun bu nomni eshitganda aksariyat bolalar ongida uni jonli tasavvur qila oladi. Natijada bolaning tasavvuri jonlanib, uning ko‘rinishi va kayfiyatida ana shu o‘zgarish tez bo‘y ko‘rsatadi. Yig‘layotgan bola miyasida o‘zini g‘ashlantirgan dastlabki ma’lumotlar o‘rnida quyon haqidagi ma’lumotlar bilan fikrlay boshlaydi. Ana shunday fikriy chalg‘ish yoki chalg‘itish bola ruhiyatining o‘zgarishiga olib keladi. Shuni inobatga olgan kattalar bolani tezroq tinchlantirish, uning g‘ashligini yo‘qotish, tushkunlikdan qutqarish, hayotga qiziqishini oshirish maqsadida bunday holatlarda qiziqmachoqlar aytishni lozim ko‘rishgan.

Yuqoridagi matnning umumiy holda o‘yin-qo‘shiq nomi bilan yuritilishi biroz mavhum. Negaki, bolalar folkloriga aloqador juda ko‘p qo‘shiqlarda o‘yin ruhi hukmron. Bu hatto qiziqmachoqlarga ham qisman bo‘lsa-da, xos belgi. Chunki, bola bilan so‘zlashishga, uni o‘ynatishga vaqt topgan kattalar, avvalo, o‘zining bu harakatini “bola bilan o‘ynash” yoki “bolani o‘ynatish” deya izohlaydilar. Aytaylik, kelinchaklar bolasini qaynonasi yoki qaynotasiga qoldirib, ro‘zg‘or yumushlarini bajarishga kirishar ekanlar, ko‘pincha “nevarangizni o‘ynatib turing” deya murojaat qilishadi. Albatta, shunday kezlarda bobo yoxud buvi nevarasi bilan so‘z va so‘zlashishdan o‘yin uyushtirishadi. Ana shundan qiziqmachoqlarning dialog ko‘rinishdagi namunalari kelib chiqqanligiga shubha yo‘q.

O.Safarov bolalarning hayvonlarga, qushlarga va hasharotlarga murojaat ko‘rinishida yaratilgan qo‘shiqlarini “hukmlagichlar” deb atab, ularni mavsum-marosim folklorining mustaqil janri sifatida belgilab ko‘rsatadi. G‘.Jahongirov esa bu silsiladagi qo‘shiqlarni bolalarning hayvonlar va qushlar bilan bog‘liq qo‘shiqlari tarzida e’tirof etish bilan cheklanadi. Biz esa, ular orasidan yumor (kulgi)ga yo‘g‘rilganini ajratib olib, qiziqmachoqlar tarkibiga kiritishni ma’qul topdik. Bu esa, ayni paytda, qiziqmachoqlarning yaratilishida hukmlagichlar ham o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatganini anglatib turadi. Shunday qiziqmachoqlar sirasiga “Echkim”, “Jo‘jaginam”, “Bedanam”, “Jon Burgam” murojaati asosida yaratilgan qiziqmachoqlarni kiritish mumkin.

FOR AUTHOR USE ONLY

Shalpang quloq, shol echkim.
O‘tlab kelaman, deydi.

Demak, qiziqmachoqlarning genetik ildizi hukmlagichlar bilan ham bog‘lanadi, chunki hukmlagichlarga xos murojaatlar keyinchalik dialogli qiziqmachoqlarning kelib chiqishiga asos bo‘lgan.

Ba’zi qiziqmachoqlar mazmunan tegishmachoq va masxaralamalarga o‘xshab ketadi. Masalan:

Anvar yebdi qaymoq,
Og‘zi bo‘bdi baymoq.
– Sigirga o‘t sol! – desa.

Oyog‘imish maymoq.
–Buzoq suzar, – debdi,
–Ipni uzar, – debdi.
Shunda sigir:
–Qaymoq
Iching buzar! – debdi.
Yoki:
Yog‘in yog‘oro galdi,
Qo‘ylo do‘g‘oro galdi.
Shu zamonni qizlari,
Sig‘ir sog‘oro galdi,
Shildir-shilqim bollara,
Oshli tog‘oro galdi!

Ushbu qiziqmachoqda nafaqat zamonning tannoz qizlariga, balki shilqim, olifta yigitlariga ham kinoya mavjud. Chunki bundaylar oshni ko‘rsa yuguradi-yu, ishni ko‘rsa qochadi. Shuning uchun qiziqmachoq so‘nggida bundaylarga qarata “Oshli tog‘ora keldi!” deya piching qilinayotir.

FOR AUTHOR USE ONLY

Oq tanga-ko‘k tanga,
Oq tanga-ko‘k tanga...
Zing‘ir Zulayho.
Zulayhoning bog‘ida
Bir tup olicha-ya,
Olichaga qo‘nibdi,
Zing‘ir-zing‘ircha-ya,
Zing‘irchaning oyoqlari
Bo‘g‘im-bo‘g‘imcha-ya.
-Bo‘g‘im-bo‘g‘im taxta ko‘prik,
Xonlar o‘tadi-ya,
Xonlar bilan birgalashib
Akam o‘tadi-ya.

Bir qo‘lida pistasi
Chaqib o‘tadi-ya,
Bir qo‘lida chirog‘i
Yoqib o‘tadi-ya,
Yomon-yomon xonlarni
Tepib o‘tadi-ya!

Bu qiziqmachoqning ikkinchi qismi zolim xonlar tanqidiga bag‘ishlangan masxaralamalarni yodga soladi.

Qiziqmachoqlar birinchi misrasida ko‘pincha tovushlar takrori bo‘lishi jihatidan qiqillamalarga o‘xshab ketadi. Bundan shuni anglash mumkinki, qiqillamalarning yaratilishida qiziqmachoqlarning o‘ziga xos ta’siri bor. Masalan:

Apishdiyu, apishdi,
Yangamning oshi pishdi.

Yoki:

Haqqu-haqqu bilaguzuk,
O‘ng qo‘limda o‘n uzuk.

Qiziqmachoqlarda ba’zan bolalarning arazlama qo‘shiqlarida uchraydigan misralar uchraydi:

Hasan-Husan urishdi,
Qizil-qonga bo‘yashdi.
Qizil qonni kim ichdi?
Oqsoqol bobom ichdi.

Xulosa qilib aytganda, qiziqmachoqlarda shunday motivlar uchraydiki, bevosita afsona va ertaklar syujetini yodga soladi. Qiziqmachoqlarning genetik ildizi hukmlagichlar va qiziqchilik qo‘shiqlari bilan ham bog‘lanadi. Qiziqmachoqlarda sanamalar, topishmoqlar, aldanmachoqlar, tez aytishlar, chandishlar, arazlamalar ta’siri seziladi. Lekin qiziqmachoqlar nafaqat boshqa janrlar ta’sirida kelib chiqqan, balki o‘zi ham bolalar folkloridagi ayrim janrlar poetik takomiliga muayyan darajada ta’sir ko‘rsatgani kuzatiladi. Masalan,

FOR AUTHOR USE ONLY

quyidagi “Jildir jip”, ya’ni guldur-gupda “Eshakkinamni so‘ydilar” qiziqmachog‘ida uchraydigan eshakning so‘yilishi motivi keltirilgan:

Jildir jip
Kandir yip.
Kim indasa,
Eshakni so‘yib,
Yebdi, yip!

Hatto bu an’anaviy motivdan yozma adabiyotda taniqli adib G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasida ham foydalanib, shu orqali asarning qiziqarliligini, yumoristik va tanqidiy ruhini oshirishga erishilgani ma’lum.

Birinchi bob yuzasidan xulosalar:

1. Qiziqmachoqlar turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek bolalar folklorida alohida mustaqil janr sifatida qadimdan hozirgacha jonli ijroda saqlanib kelayotir. Ular o‘ziga xos poetik shaklga, ijro maqsadiga, g‘oyaviy-tarbiyaviy mazmunga, estetik ta’sirchanlikka ega.

2. Ko‘pincha hazil va yumorga yo‘g‘rilgan qiziqmachoqlarning paydo bo‘lishida xalq qiziqchiligiga xos an’analar ta’sir ko‘rsatgan. Lekin qiziqmachoqlarning hammasi ham hazilga yo‘g‘rilgan bo‘lavermaydi. Ularda bolalarga jiddiy hayotiy hodisa va munosabatlar haqida ham tarbiyaviy saboq beriladi.

3. Hazil-mutoyiba, quvnoq, ammo tagdor yumor, kuchli mubolag‘a, fantaziya, xalqona uydirma, tevarak-atrofdagi narsa-hodisalarning o‘zaro mutanosibligi yoki nomutanosibligi, kutilmagan tasodifiylik tufayli tug‘ilgan kulgi qiziqmachoqlarga xos muhim belgilar bo‘lib, ular bolaning aqliy o‘sishi, fantaziyasining rivojlanishi va boyishida katta ahamiyat kasb etadi.

4. Qiziqmachoqlar bolalarning tushunishiga qulay, yosh nuqtai nazaridan ruhiy-ma’naviy ehtiyojlariga mos bo‘lib, kattalar va bolalar hayotiy tushuncha hamda tasavvurlarining o‘zaro qorishiqligida, fantastik obrazlilik hamda voqeabandlik negizida quriladi.

FOR AUTHOR USE ONLY

5. Qiziqmachoqlarda tasodifiylik obrazlar xatti-harakatida kulgili vaziyatlarni yuzaga chiqarish bilan birga, syujet voqealari oqimining shiddatini belgilashga xizmat qiladi. Shu zaylda tasodifiylik qiziqmachoqlarda qiziqarlilikni ta'minlovchi xususiyatga aylanadi. Kulgi vositasida ifodalanayotgan va qabul qilinayotgan axborotlar esa bolaning aqliy ehtiyojlarini yanada kengaytiradi.

FOR AUTHOR USE ONLY

II BOB. QIZIQMACHOQLARNING MAVZUIY-SHAKLIY TURLARI

II.1. Qiziqmachoqlarning mavzuiy yo‘nalishiga ko‘ra turlari

Qiziqmachoqlar mazmuni boshqa suyish qo‘shiqlari janrlari mazmunidan boyroqdir. Bunga ularning mavzu mundarijasi rang-barangligi misolida ishonch hosil qilish mumkin. Shunday bo‘lsa-da, ular murakkab mazmunga ega emas. Qiziqmachoqlar shunchaki o‘yin qo‘shiqlari sifatida emas, balki tarbiyaviy mohiyatga ega jiddiy qo‘shiqlar sifatida qabul qilinadi. Ba’zan qiziqmachoqlarda ayrim tarixiy voqeliklar bayoniga ishora seziladi. Ularda o‘tmish hayot manzaralari, boylar, xonlar tanqidi uchraydi. Shunga qarab, qiziqmachoqlarni mavzu yo‘nalishiga ko‘ra uch guruhga ajratish mumkin:

1. Bolalarni tevarak-atrof va maishiy turmush bilan tanishtiruvchi qiziqmachoqlar.
2. Bolalarni o‘simliklar dunyosi bilan tanishtiruvchi qiziqmachoqlar.
3. Bolalarni hayvonot olami bilan tanishtiruvchi qiziqmachoqlar.

FOR AUTHOR USE ONLY

Bolalarni tevarak-atrof va maishiy turmush bilan tanishtiruvchi qiziqmachoqlarda ko‘pincha turmush voqealaridan saboq beriladi. Masalan, quyidagi qiziqmachoqda inson uchun hamma narsadan muhimi sog‘lik-salomatlik hamda imonlilik ekanligi bildirilmoqda. Ma’lumki, bunday g‘oyalar xalq maqollarida ham ifoda etilgan. Jumladan, “Bosh omon bo‘lsa, do‘ppi topiladi” degan maqol bu jihatdan fikrimiz dalili bo‘la oladi. Darhaqiqat, omonlik, imonlilik insonning barcha yutuqlari garovidir:

Boshga – omon,
Odamga – iymon,
Saxiyga – mehmon,
Mardga – maydon,
Qushga – osmon,
Yo‘lchiga – yo‘l,
Baliqqa – ko‘l,
Cho‘ponga – cho‘l!

Yana bu qiziqmachoq orqali yoshlar saxiylikka, mardlikka da'vat etilmoqda. Shu bilan birga, ularga qushning osmonda parvoz etishi, baliqning esa suvda yashashi, cho'pon-cho'liqlar ko'proq cho'lda bo'lishi bildirilmoqda. "Yo'lchiga yo'l" degan ta'kid xalqimizning safarga, ya'ni yo'lga ketuvchilar uchun maxsus olqishlar aytib, marosimlar o'tkazish odatiga ishora qiladi.

Umuman aytganda, bolalarni tevarak-atrof va maishiy turmush bilan tanishtiruvchi qiziqmachoqlar o'ziga xos o'git mazmunida bo'lishi bilan alohidalik kasb etadi. Ular bolalarni hayot bilan tanishtiradi, ularga axloqiy o'git berish vazifasini bajaradi. Shuning uchun ularda hayot hodisalari ko'p obrazlilikda o'z ifodasini topganligi e'tiborni tortadi. Binobarin, ularda kambag'al dehqonning turmush sharoitidan tortib, to insoniy va sinfiy munosabatlargacha talqin qilinganligi kuzatiladi. Bunday qiziqmachoqlarda hukmron sinf vakillari hamma vaqt satirik tarzda tasvirlanadi. Mehnatkash xalqning nochorligi haqida so'z borganda, qiziqmachoqlarda achchiq kinoya yangraydi. Lekin bu motivlarning barchasi hayot haqida yangi ma'lumotlarni beradi.

Qiziqmachoqlar orqali bolalarga ko'proq hayotiy hodisalarning mohiyati, insoniy muomala-munosabatlar, odob-axloq qoidalari, ularga amal qilishning ahamiyati va samarasi to'g'risida tushunchalar berilgan:

Uyatli – to'g'ri,
Uyatsiz – o'g'ri,
Yo'lchi – yo'ng'iz,
Dinsiz – to'ng'iz,
Imonsizga ishonma,
Kofirga tayanma,
Suvga suyanma!

Tazod va o'xshatish asosiga qurilgan ushbu misralar orqali yoshlarga hamisha to'g'ri, aql-idrokli, elu yurt g'amini yeydigan, imon-e'tiqodli bo'lish zarurligi uqtirilmoqda. Chunki inson o'ziga qancha umr berilganligini bilmaydi. Shu boisdan u o'ziga berilgan umrdan mazmunli va samarali foydalana olmog'i lozim.

Qirq – odam yoshi,

FOR AUTHOR USE ONLY

Oltmish – eshak yoshi,

Sakson – sak yoshi,

Oryoni – Xudo qarg‘ishi!

Bu qiziqmachoqda insonning yoshi ulg‘aygan sayin, kundan-kunga uning kuch-quvvatdan qolib borishi, madori qurishi bildirilmoqda.

Quyidagi kabi qiziqmachoqlar vositasida, odatda, bolalarga salomlashish va so‘rashish odobini singdirish nazarda tutilgan:

Yoxshimisiz –

Boxshimisiz?

Pishika moyo,

Ita soyo varmin,

Cho‘pni yo‘ndirmin,

Qo‘shni qo‘ndirmin,

O‘tganni urkizib,

Qurruqni qo‘rqizib,

Chivin tutib,

Peshsha yutib yuribmisiz?

–Ey balomat!

Ubo jamaat,

Bor valomat.

Bolo-chog‘o,

Uka – og‘o.

Ulli-kichchi,

Taka, gechchi.

Tuya daroz,

Dikki xo‘roz,

Toy – to‘yloq,

Damir to‘ynoq,

Eshak – ishvoy,

Sichon – do‘shvoy,

FOR AUTHOR USE ONLY

Ho‘p-ho‘p yengga,
Mir-mir bika,
Bori-buri,
Cho‘pi-chori...
Sog‘u salomatmi?

Bolalarga ovqatlanish odobi haqida o‘git beruvchi qiziqmachoqlar ham bor. Ularda, asosan, ochko‘zlik qoralanadi. Ovqatni shoshmasdan, sekin-sekin chaynab yeyish lozimligi uqtiriladi. Chunki aksariyat yosh bolalar ovqatni to‘kib-sochib, chaynamasdan, shoshib-pishib yemoqchi bo‘lishadi. Quyidagi kabi qiziqmachoqlar ana shunday bolalarga ruhan tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish maqsadida aytilgan:

Tutib keldim,
Ovloq yerdan.
O‘tib keldim,
Qoplon qirdan.
Ochko‘z bo‘lma, sekin yegin,
Chaynab yutgin birdan-birdan.

FOR AUTHOR USE ONLY

Bolalardagi turli kamchiliklarni, ayrim illatlarni bartaraf qilishda qiziqmachoqlarning o‘z o‘rni, ta’siri va ahamiyati bor. Ularning ayrimlarida bolalar xarakterida uchrab turadigan har xil kamchiliklar xususida so‘z boradi. Masalan:

Borma shuning qoshiga,
Qizg‘anadi oshini.
Qo‘shib ichar oshiga,
Ko‘zdan oqqan yoshini.
Yuz-qo‘lini yuvmaydi,
Chivin yig‘ar toshiga.
Bir chivinni quvmaydi,
Qo‘shib ichar oshiga!

Bu qiziqmachoqda qizg‘anchiqlik, dangasalik, befarqlik, tozalikka rioya qilmaslik holatlari keskin tanqid qilinayotir.

Ba'zi bolalarda ayrim xatti-harakatlar odat tusini olib, uning doimiy qilig'iga aylana borishi kuzatiladi. Jumladan, ba'zilari bo'lar-bo'lmasga qashinaverishi yoki burnini tortaverishi, yoxud g'ashlik qilaverishi mumkin. Shunda kattalar o'ziga xos qiziqmachoqlar aytib, bolani uyaltirishga, uni ogohlantirishga urinishgan. Masalan, «Jon burgam» qiziqmachog'i faqatgina ijtimoiy mazmuni bilan emas, balki mana shunday tarbiyaviy-ta'siriy kuchga egaligi bilan ham e'tiborni tortadi. Uni bo'lar-bo'lmasga qashinaveradigan va buni o'ziga bilmagan holda odatga aylantirib olgan bolalarga nisbatan ham aytishadi:

«Jon burgam» qiziqmachog'i qadimiyligi va an'anaviyligi bilan e'tiborlidir. Unda mehnat ahlining o'tmishdagi nochor turmush tarziga mubolag'ali kinoya aks etgan.

Qiziqmachoqlarning "Olatoy, bulatoy, Man sani yo'rg'alatay" deb boshlanuvchi silsiladagi namunalari ko'pincha yurish yoshiga yetgan bo'lsa-da, mustaqil yurishdan cho'chib, dadid-dadil qadam tashlash o'rniga yo'rg'alab-yo'rg'alab yuradigan bolalarga kinoya qilish maqsadida ijro qilingan. Bunday bolalarning yurish holatini jonli tasvirlash uchun bangi timsoliga kinoyadan foydalanilgan. Chunki bangilar ham to'g'ri yo'lda to'g'ri qadam tashlay olmasdan, gandiraklab va yo'rg'alab yurishadi. Bang tufayli jismoniy ojiz holatga tushib qolgan kimsalar ko'pincha befarzand bo'lib qolishadi. Hatto xotini ham uning fe'l-atvoridan norozi bo'lib, tashlab ketishi mumkin. Natijada o'z tirikligini xor qilgan bunday kimsalarning o'ligi yanada xor bo'ladi. Shuning uchun she'rda o'lgan yo'rg'a ot – bangi – uning chochvog'ida uchi yo'q xotini va befarzand turmushi haqida ketma-ketlikda, tadrijiylik asosida so'z yuritilmoqda.

Olatoy, bulatoy,
Man sani yo'rg'alatay.
Yo'rg'a otim o'libdi,
Go'shtini kimga sotay.
Bangi ketarmon bo'pti,
Xotin olarmon bo'pti.
Xotinining kuchi yo'q,

FOR AUTHOR USE ONLY

Chochvog‘ining uchi yo‘q,
Kashta tikar qizi yo‘q,
Oshiq o‘ynar o‘g‘li yo‘q,
Ha-yu, kuchi yo‘q,
Ha-yu, kuchi yo‘q!

Qiziqmachoqning so‘nggi satrlarida takror ifodalangan “Ha-yu, kuchi yo‘q” ta’kidi aslida kuchsizlikning tanqidi sifatida yangramoqda. U orqali bolaga hamisha kuchli bo‘lish lozimligini, turli illatlardan uzoq yurish kerakligini uqtirish ko‘zda tutilgan.

Shu silsiladagi yana bir qiziqmachoqda ochiq-oshkora ko‘rinishda bola yo‘rg‘alamasdan tez-tez, hatto chopib-chopib yurishga undaladi:

Olatoy, bulatoy,
Man sani yo‘rg‘alatay.
Yo‘rg‘alama, chopa qol,
Shamoldan o‘zib ketay,
Tezroq shamolga yetay.
Onam dili qon bo‘pti,
Yoshlari marjon bo‘pti.
Marjonining ipi yo‘q,
Ipi emas, sepi yo‘q.

FOR AUTHOR USE ONLY

Ba’zi qiziqmachoqlarning mazmunan bevosita qizlar tarbiyasiga qaratilganligi anglashiladi. Masalan:

Halqa-halqa bilaguzuk,
O‘ng qo‘limda o‘n uzuk.
Tepdim sandiq ochildi,
To‘rga bodom sochildi,
Shu bodomni terguncha,
Qizil gullar ochildi.
Qizil gulning g‘unchasi,
Hovlima-hovli yursak-chi,

Buvimnikiga borsak-chi?

– Buvim menga ne berar?

– Echkini sog‘ib sut berar.

– Sutni qaerga qo‘yamiz?

– Qo‘shtepaga qo‘yamiz.

–Dumalab ketsa qaytamiz?

Mamat akaga aytamiz.

–Mamat akaning xotini

Sug‘oradi otini.

Oti kishnaydi: Hi-hi-hi...

Qizlar kuladi: Hing-hing...

Matndagi “Tepdim sandiq ochildi” misrasi beixtiyor bolalarning “Sandiqcha-yu quticha”, “Kishma”, “Tepdim sandiq ochildi”va “Gijmalagich” kabi o‘yin-qo‘shiqlarini yodga soladi va xuddi ularning bir mantiqiy bo‘lagini o‘z tarkibiga singdirib olganday taassurot uyg‘otadi. Undagi aksariyat misralar o‘zaro masnaviy (ikkilik) shaklida qofiyalanib kelgan.

N.Safarova “Sandiqcha-yu quticha”, “Kishma”, “Tepdim sandiq ochildi”va “Gijmalagich” o‘yin-qo‘shiqlarining ijtimoiy hayot voqeligi asosida yaratilganini, unda o‘zbek qizlarining turmushga chiqquncha va kelinchaklik davridagi ruhiy holati, his-kechinmalari, voqelikka munosabati badiiy aks ettirilganini ta’kidlaydi.

Matndagi “Tepdim sandiq ochildi” misrasi qizlarga kelinlikning qiyinchiliklarini yengib o‘tish, sabr-toqatli, chidamli, epchil, uddaburro, orasta bo‘lish va shu orqali er hamda uning oila a’zolari ko‘ngliga yo‘l topa olish zarurligini uqtirishga xizmat qiladi. Shunisi bilan u o‘ziga xos ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Turmush qiyinchiliklariga chidolmagan qiz o‘z hayotining buzilishiga sababchi bo‘ladi.

Shunday qiziqmachoqlar ham borki, ular nafaqat bolaning xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatib, dunyoqarashini kengaytiradi, balki uning badiiy ijodga xos turg‘un ramzlarni bilib olishiga mustahkam zamin yaratadi. Bu ramzlar, avvalo, folklordagi

FOR AUTHOR USE ONLY

an'anaviy ramzlar ekanligi, ikkinchidan, qaysidir urf-odatimiz yoki afsona syujeti bilan bog'liqligi jihatidan e'tiborni tortadi.

O'g'il – toy,

Qiz – oy.

Telpak – qo'y,

Ro'mol – uy.

Qamish – nay,

Sigir – moy,

Urush – yoy.

Ma'lumki, xalqimiz urf-odatiga binoan, hozirgacha mamlakatimizning ayrim hududlarida o'g'il bolaning sunnat to'yida uning nomiga toy berish an'anasi mavjud. Shuning uchun qiziqmachoqda o'g'il obrazining paralleli sifatida toy obrazi keltirilmoqda. Bunga qadimgi ajdodlarimizning otni o'zlariga ilohiy homiy sanashgani va uni muqaddaslashtirib, totem darajasida ardoqlashgani asos yaratgan. Ot bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlar ta'sirida xalqimiz orasida oilada o'g'il farzand tug'ilsa, albatta, unga atab ot tuhfa qilish odati amal qilgan.

Keltirilayotgan qiziqmachoqda qiz obrazining oyga tenglashtirilayotgani ham bejiz emas. Bu shuni anglatadiki, qiz bola birovning xasmidir. Yaxshi qizni, albatta, kelin qilib olib ketishlari, u esa borgan joyini oydek munavvar qilishi, obod aylashi hayotiy haqiqat. Shuni nazarda tutib, qizni oyga tenglashtirish mumkin yoki qizni o'z makoniga olib ketgan oy haqida yaratilgan afsonalar ham mavjud. Bu jihatdan "Shirin qiz", "Oy va Kun", "Oymoma va Zumrad" afsonalari fikrimizni dalillay oladi. Qadimgi insonlarning samoviy jismlar haqidagi mifologik tasavvur-tushunchalari asosida paydo bo'lgan bunday afsonalar davrlar o'tishi bilan kishilarning ijtimoiy qarashlari bilan qo'shilib ketganligi ma'lum. Chunki bora-bora odamlar o'zlarining bu boradagi qarashlarini ayrim mifologik timsollar vositasida badiiylashtirib aks ettirishga uringanlar. Bu esa poetik fikr taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan biri sanaladi.

Oy haqida aytilgan afsonalarda oy ko'pincha ayol jinsida talqin qilinishi kuzatiladi. Bunda u Kunning xotini, yulduzlarning onasi sifatida talqin etiladi.

FOR AUTHOR USE ONLY

“Oymoma va Zumrad” afsonasida aytilishicha, bir chol bilan kampir yoshini yashab, oshini oshab o‘tgan ekan. Ularning tanho bir farzandlari bo‘lib, oti Zumrad ekan. Zumrad voyaga yetmasdan turib, ota-onasi birin-ketin vafot etishibdi. Qizchaga ota-onasidan eski-tuski ro‘zg‘or buyumlari bilan bir mushuk va bir it meros bo‘lib qolibdi, xolos. Shundan so‘ng uni bir savdogar o‘ziga cho‘ri qilib olibdi. Savdogar o‘ta xasis, badjahl va badxulq odam ekan. Er-xotin qizchaga bir zum bo‘lsa ham tinchlik berishmabdi. Zumrad bechora nima qilishini bilolmay, tunda tomning orqasiga chiqib, oy chiqqan bo‘lsa oyga, yulduzlar charaqlasa, yulduzlarga qarab yum-yum yig‘lar ekan. Zumradning hayoti shunday qiyinchiliklar bilan o‘taveribdi. Qanchalik ishlamasin, uning qorni nonga, egni kiyimga yolchimabdi.

Izg‘irinli qish kunlaridan birida savdogar bilan xotini Zumradni uzoq masofadagi muzlagan hovuzdan suv olib kelish uchun jo‘natishibdi. Qizcha bolta bilan paqirni olib, hovuzga qarab ketibdi. U ming azob bilan muzni teshib, suv olib kelibdi. Biroq Zumrad kech kelgani uchun savdogar uni izg‘irin tashqariga haydab solibdi. Qiz qaerga borishini bilmay, o‘sha hovuz bo‘yiga qaytib borib, o‘zini unga tashlab halok qilmoqchi bo‘libdi. Shunda oy uni to‘xtatib qolibdi va o‘zi bilan osmonu falakdagi makoniga olib ketibdi. Keyin esa Oy unga uylanibdi. Qiz nihoyatda baxtli hayot kechiribdi. Oy to‘lganda kimki unga tikilsa, o‘sha qizni xursand kulib turgan holatda ko‘rarkan.

FOR AUTHOR USE ONLY

Ko‘rinyaptiki, afsonada Zumrad ismli yetim qiz xuddi “Zumrad va Qimmat” ertagidagi yetim qiz kabi mehnatsevarligi tufayli baxt-saodatga erishadi, e’tibor topadi.

Qiziqmachoqda “telpak – qo‘y” tengligi orqali telpakning qo‘y junidan tayyorlanishi va bunday telpakning yaxshi bo‘lishi bildirilayotir.

“Ro‘mol – uy” tengligida ro‘molning oila ramzini bildirilishi asos bo‘lgan. Chunki odatimizga ko‘ra, qiz bolaga sovchilikka borganda rozilik alomati sifatida ro‘mol beriladi.

“Qamish – nay” tengligi bevosita Iskandarning shoxi borligi haqidagi afsona syujetini yodga soladi. Unda Iskandarning shoxini ko‘rgan sartarosh chol bu sirni

ichiga sig‘dira olmay, uni cho‘ldagi tashlandiq quduqqa aytadi. Ammo shu quduqdan o‘sib chiqqan qamishdan cho‘pon yigit yasagan nay bu sirni oshkor etadi. Lekin bola Iskandar va sartarosh haqidagi afsonani hali eshitmagan bo‘lsa, tasavvuru dunyoqarashida bu haqda ma’lumot mavjud bo‘lmasa, bunda ko‘proq bolaning ko‘ziga ko‘rinib turgan va uning uchun yangilik hisoblangan predmet – nayning mohiyatini tushuntirish, tuzilishiga ko‘ra qamishga o‘xshashligini, ikkalasi shakliy yaqinligini, musiqa asbobi sifatidagi vazifasini anglatish maqsadi ustuvorlik qiladi.

“Sigir – moy” tengligi orqali sigir sutidan bo‘lgan moyning eng asil yog‘ ekanligi ta’kidlanadi. Shuning uchun xalq maqollarida ham: “Sarig‘ yog‘ sasimas, asil yog‘ aynimas” deyiladi.

“Urush – o‘q yoy” tengligida o‘q yoyning urush ramzini bildirishi eslatib o‘tilmoqda.

Qiziqmachoqlar orqali bolalarga sonlar nomi, sanash harakati ham o‘rgatilgan. Keyinchalik bolalar shunday qiziqmachoqlar ta’sirida o‘yin jarayoniga oid sanamalar yaratishgan.

FOR AUTHOR USE ONLY

Bir – burch,
Ikki – ilon,
Uch – puch,
To‘rt – chayon,
Besh – buyon,
Olti – omon,
Yetti – yoron,
Sakkiz – suron,
To‘qqiz – turon,
O‘n – o‘rmon,
O‘n bir – karmon,
O‘n ikki – armon.

Qiziqmachoqlar vositasida bolalarga chorvachilik va dehqonchilik kasbi bilan bog‘liq ayrim sir-sinoatlar ham o‘rgatilgan:

Go‘klam – diklam,
Yorg‘och – omoch,
O‘kiz – yurgiz,
Ek – dik,
O‘to – suto,
Suv yiq,
Ur tig‘,
Ur, yiq,
Xirmon ot.

Ushbu qiziqmachoqda dehqonchilik ishlarining boshlanish davri, o‘ziga xos tartibda kechishi, unga aloqador yumushlar haqida ma’lumot berilayotir. Jumladan, bunda ko‘klamning kelishi bilan ekin-tikin ishlarining boshlab yuborilishi, dastlab, omoch qo‘shilgan ho‘kizlar yordamida yerning haydalishi, shundan so‘ng tayyor bo‘lgan yerga ekinning ekilishi, vaqti-vaqti bilan uni o‘tash hamda sug‘orib borish, yetilgan hosilni o‘rib olish, xirmon ko‘tarish, ko‘tarilgan xirmonni yanchish singari xatti-harakatlar xususida so‘z yuritilmoqda.

FOR AUTHOR USE ONLY

O‘tmishda dehqonlar yerga ishlov berish uchun yog‘ochdan yasalgan maxsus yer haydash vositasi – omochdan foydalanishgan. Omochni bo‘yinturuq orqali ho‘kizlar tortishgan. Ho‘kizlarni inson boshqarib turgan. Xullas, inson o‘z rizqini yetishtirgunicha mana shuncha mashaqqat tortadi. Shu mashaqqat evaziga topilgan rizqni asrab-avaylash lozimligi bolalarga yoshlikdan o‘rgatib borilgan. Bunda esa qiziqmachoqlar o‘ziga xos vosita vazifasini o‘tagan.

Dehqonlar yerni omoch qo‘shilgan ho‘kizlar yordamida haydab, ekin ekishga hozirlashar ekan, odatda, quyosh chiqqandan to quyosh botgunicha ishlasa-da, baribir mehnati kamunum bo‘lgan. Bunga ishora hatto qiziqmachoqlarda ham o‘z badiiy ifodasini topgan:

Kun chiqdi, kunon chiqdi,
Kunning ko‘pagi chiqdi,
Dehqon bobomning qizi
Ho‘p haydamog‘a chiqdi.

Ho‘p ishdi-yu, ho‘p ishdi ,
Xolamni(ng) oshi pishdi.
Bir qoshiq ichay desam,
Ichiga chichqon tushdi.

Ushbu qiziqmachoqda uyda o‘tirib zerikkanidan otasiga ergashib dalaga chiqishni xohlagan, otasidan ruxsat tekkach, tong otishini va tezroq dalada bo‘lishni sabrsizlik bilan kutgan, nihoyat kutilgan vaqt – quyosh chiqib, kun yorishgach, ota bilan dalaga kelgan hamda ho‘p haydash ishini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, uning o‘yin emasligini, o‘ziga xos mashaqqatga egaligini anglagan qizaloqning ruhiy holati, orzu-istaklari-yu kechinmalari badiiy gavdalantirilgan.

Darhaqiqat, dehqonchilikning nonini yeyish oson emas. Buni bolalarga yoshlikdan anglatish, shu orqali uning mashaqqatlarini yengib o‘tishga yoshlarni ruhan tayorlash maqsadida qiziqmachoqlarda ana shu kabi hazil voqeliklar ham qistirib o‘tilgan. Qolaversa, o‘tmishda dehqonlarning ming mashaqqat bilan yetishtirgan hosilini zamindor boylar, amlokdorlar turli bahona va hiylalar bilan talab ketishgan. Shuning uchun qiziqmachoqda bunday kimsalarning sichqon bo‘lib, dehqon «pishirgan osh» ichiga tushishi va uni harom qilishiga kinoya qilinishi orqali bolalarni o‘z haq-huquqini himoya qilishga o‘rgatish ham ko‘zda tutilayotir.

FOR AUTHOR USE ONLY

To‘g‘ri, ushbu qiziqmachoq tashqi mazmunidan xuddi o‘yinqaroqlik bilan qo‘shchi otasiga ergashib dalaga borgan, biroz fursatdan so‘ng esa zerikib, och qolganini bahona qilib, uyiga qaytishni istab, xarxasha ko‘targan qizaloqqa kinoya qilayotgandek tuyuladi, lekin aslida qiziqmachoqning ichki mazmuniga e’tibor qilinsa, bu kinoyaning ijtimoiy illat – tekinxo‘rlikka qaratilganligi seziladi. Bunda bola idrokiga mos istehzoli kulgi vositasida ushbu kinoya yuzaga chiqarilmoqda.

Qiziqmachoqlarda ko‘pincha mana shunday ko‘rimli, manzarali, kulgili yoxud dilni o‘rtaydigan, jonli tasavvur va kechinmaga yetaklaydigan voqeliklar bayonining guvohi bo‘lish mumkin.

Qiziqmachoqlar vositasida kattalar turmushning har qanday lavhasidan bolaga hayot sabog‘i berishga intilishadi:

Aylanayin o‘zim, o‘zim...
Bordir manim ho‘kizim.
Ho‘kizginam-chambarshox,
Og‘ilga kirolmaydi.
Dandonlari fit bo‘lgan,
Kunjala yeyolmaydi.
Zahkash bo‘yiga eltdim,
Ham sudrabu ham mudrab.
Qurbaqasidan qo‘rqib,
Suvni icholmadi.

Ma’lumki, bolalar 5 yoshga to‘lgach, asta-sekin ularning tishlarida o‘zgarish yuz beradi. Ularning sut tishlari birma-bir nurab, to‘kila boshlaydi. Tushgan tishlari o‘rnidan esa yangi tishlar chiqadi. Biroq ko‘pchilik bolalar tishda yuz beradigan yosh bilan bog‘liq ana shu tabiiy o‘zgarishni to keragicha anglab yetgunlariga qadar, ruhan biroz qo‘rqoq va injiq bo‘lib qolishadi. Ovqat yesam tishim sinib qoladi, deya hayiqishadi. Natijada oriqlab, nimjonlasha boshlashadi. Shunday kezlarda kattalar bolalarga yuqoridagi kabi qiziqmachoqlarni aytib, ularni uyaltirishga, yashirin yengil kinoya bilan to‘g‘ri yo‘lga solishga intilishgan. Bunda qiziqmachoq uchun “ho‘kiz” obrazi bekorga tanlanmagan. Chunki xalq orasida yoshi ulg‘ayib, kuchga kirib borayotganligiga qaramay, ba’zan beaqllik qilib qo‘yadigan o‘g‘il bolalarni ko‘pincha ho‘kizga o‘xshatib “ho‘kizday bola” deyish kuzatiladi.

Yuqoridagi qiziqmachoqda ho‘kizning eng muhim belgilari: yirik gavdasi, chambarshoxi bola tasavvuriga mos, ko‘rimli qilib gavdalantirilmoqda. Uning tishlari to‘kilganligini aytish bilan qariganligiga ishora qilinmoqda. Ho‘kiz tishlari to‘kilganligidan yaxshi ovqatlana olmay, kundan-kunga madori qolmay borayotir. Hatto uning og‘ilga kirgudek ham, borib suv ichib qaytgudek ham quvvati qolmagan. Ho‘kizning bunday holatini ko‘rgan dehqon esa uni qo‘shga qo‘shib, uvoliga qolishdan cho‘chiyotir.

FOR AUTHOR USE ONLY

Qiziqmachoqning qiziqarli va kulgili chiqishida nafaqat ho‘kiz kinoyaviy obrazining qo‘llanishi, balki uning o‘ziga nisbatan necha hissa kichik va nimjon bo‘lgan qurbaqa obraziga zid qo‘yilishi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Umuman aytganda, qiziqmachoqlarda ijtimoiy hayot voqeliklari muhim o‘rin egallaydi. Ularda u yoki bu obraz vositasida ijtimoiy hayot voqeligi ochib beriladi yoki unga munosabat ko‘rsatiladi. Masalan:

Cholga tegmay o‘layin,
Laqashiqaldoq.
Choldan qolgan bolani,
Laqashiqaldoq,
Ko‘tarolmay o‘layin,
Laqashiqaldoq.
Deppammi, jon deppammi,
Laqashiqaldoq.
Cholga tegay deppammi,
Laqashiqaldoq...
Chol ketadi-boradi,
Laqashiqaldoq.
Yeri, suvi qoladi,
Laqashiqaldoq.

FOR AUTHOR USE ONLY

Qiziqmachoqda yosh qiz-juvonlarni atayin tayyor boylik orttirish, boylikka ega chiqish maqsadida munkillagan chollarga erga berish voqeligiga kinoya qilinayotganligini kuzatish mumkin. Bunday qiziqmachoqlar vositasida bolasiga shunday taqdir ravo bo‘lmasligini istashdek ezgu niyat yashiringan bo‘ladi.

Quyidagi qiziqmachoqda xalq follariga ishorani kuzatish mumkin. Shunda ham voqelik bayoni bola timsoliga bog‘lanayotir:

Oq bolaning qo‘lida,
Oq piyola men ko‘rdim.
Oq piyola ichida,
Qizil olma men ko‘rdim.

O‘tmishda ayrim ota-onalar farzandiga nom qo‘yishdan oldin folchilarga murojaat qilishgan. Folchilar turli yo‘llar bilan, ko‘pincha piyola ichidagi suvga qarab bolaning kelajagini bashorat qilib berishgan. Bunday follarda “oq bola” sog‘lom bola timsolini, “oq piyola” uning farovon, porloq va to‘kin kelajagi ramzini, “oq piyola ichidagi qizil olma” esa bolaning ulg‘aygach, o‘z sevgisiga erishib, baxtli turmush kechirishiga ishorani ifodalab keladi. Qiziqmachoqlar bolalar hayoti bilan bog‘liq qo‘shiqlar bo‘lgani uchun ularda bunday misralarning uchrashi tabiiy.

D.O‘raeva o‘zbek xalq lirik qo‘shiqlarida choy obrazining turli semantik tiplarini o‘rganar ekan, bunda choyning o‘zi, choy turlari, choy ichishda ishlatiladigan predmetlar, ya’ni samovar, choydish, choynak, piyola singarilar rang-barang ramziy ma’nolarda obrazlantirilganligini qayd etadi. Uning fikricha, choynak va piyola juftligi sevgi haqidagi lirik qo‘shiqlarda oshiq va ma’shuqa obrazining betakror timsollaridan biridir. Bunda choynak – oshiq yigit, piyola – ma’shuqa yor, choynakdan piyolaga quyiladigan choy esa ko‘ngillardan ko‘ngillarga quyiluvchi muhabbat ramzini o‘zida ifoda etadi. Hatto ba’zi allalarda farzand timsoli bevosita piyolaga quyilgan “shirin choy” obrazi orqali ifoda etilganini misol keltiradi:

FOR AUTHOR USE ONLY

Qaro ko‘zim alla-yo,
Dilbar so‘zim, alla-yo,
Bag‘rim ochib sen uchun
Xizmatingda tinma-yo,
Shirin choyim, alla-yo.

Mumtoz g‘azaliyotda qadah – ilohiy ishq tuyg‘ularini o‘ziga singdirgan idish, ko‘ngil timsolida talqin etilishi ma’lum. Xalq ijodida esa bunday ramzda ko‘pincha piyola ifoda etilishi kuzatiladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, yuqorida keltirilgan matndagi “oq piyola va uning ichidagi qizil olma” ko‘ngildagi ishq-muhabbat timsolini anglatib keladi.

O‘simliklar dunyosi bilan tanishtiruvchi qiziqmachoqlarga “Yugurib bordim shotutga”, “Savat-savat qalampir” singari qiziqmachoq matnlarini misol qilish

mumkin. Masalan, “Yugurib bordim shotutga” qiziqmachog‘i bejiz yaratilmagan. Bolalar tut pishig‘i davrida tutga chiqib, tut yeyman deb, yiqilib tushgani yoki og‘ir shikast topganlari ham bo‘lgan. Shundan ogohlantirish maqsadida tut pishig‘i bilan bog‘liq o‘yin-qo‘shiqlar, qiziqmachoqlar paydo bo‘lgan.

Yugurib bordim shotutga,
Qo‘ynim to‘ldi murutga
Borib ayting, ayting,
Oq jiydali yigitga.
Oq o‘tovi bor emish.
Oq o‘tovning ichida
Oy kelinchak bor emish.
Oy kelinchak oldida
Tilla beshik bor emish.
Tilla beshik ichida
Oy chaqaloq bor emish.
Oy chaqaloq qo‘lida
Chinni piyola bor emish.
Chinni piyola ichida
Naqsh olmalar bor emish,
Naqsh olmani bir tishlang,
Makkaga borib bir kishnang.
Makka yo‘li uzoqdur,
Ichgan suvim buloqdir.
Icha-icha mast bo‘ldim,
Qizlar bilan do‘st bo‘ldim.
Qizlar ketdi qir oshib,
Bizlar qoldik adashib.

Bu qiziqmachoq vositasida bolalarga uch xil daraxt: shotut, murut, jiyda nomi eslatib o‘tilmoqda.

Savat-savat qalampir,

FOR AUTHOR USE ONLY

Achchiq demang, Jabborxon.
Jabborxonim o‘libdi,
Shoyi to‘ni qolibdi.
Shoyi to‘ni – ipak paxta,
Ichi to‘la tilla halqa.
Tilla halqa loy bo‘ldi,
Dadajonim boy bo‘ldi.

Qalampir ko‘rinishidan juda chiroyli, lekin u achchiqligi bois bolalarga tavsiya qilinmaydi. Shuning uchun kattalar qalampir juda ko‘p, ya’ni savat-savat bo‘lsa-da bolalarga berilmasligini bolajonlarga alohida uqtirishgan.

Bolalarni hayvonot olami bilan tanishtiruvchi qiziqmachoqlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bunday qiziqmachoqlarda u yoki bu hayvon obrazi muhim o‘rin tutadi.

Taniqli folklorshunos A.Musaqulov: “Mifologik tafakkur, ayniqsa, bolalarda ravshan ko‘rinadi. Hayvonlarning so‘zlashuvi, gullarning kulishi kabilarni biz jonlantirish poetik san’ati deb bilsak, bolalar bunga ishonadilar”, – deya haq gapni aytadi. Darhaqiqat, qiziqmachoqlarda ham bolalarcha mifologik tasavvur o‘z aksini topganligi kuzatiladi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Qiziqmachoqlarda kattalar tomonidan bolalarga hayvonlarni tanishtirish, ularni qanday qilib chaqirish, to‘xtatish yoki yurishga, ishlashga da’vat etish o‘rgatiladi. Ko‘pincha bunda hayvon nomlari metaforik, ya’ni yashirin nom bilan birga aytiladi:

Ilon – qamchi,
Eshak – emchi,
Toy – to‘ychi,
Bo‘ri – bo‘ji,
It – izchi,
Tozi – tezchi.

Ayrim qiziqmachoqlarda bolani qaysi hayvonga qarata qanday undov so‘z, buyruq-xitob aytish lozimligi o‘rgatiladi. Bunday qiziqmachoqlar kattalarning

bolalar bilan dialogi shaklida ijro qilinadi. Kattalar qaysi hayvonning nomini aytsa, bolalar yo yakka holda, yo jo‘r bo‘lib o‘sha hayvonni harakatga undovchi so‘zni topib aytishi talab etiladi. Masalan:

Qo‘yga: qur-qur,

Tuyaga: xur-xur,

Otga: tur-tur,

Baytalga: deh-deh,

Echkiga: beh-beh,

Tovuqqa: tu-tu,

Itga: bo‘-bo‘,

G‘ozga: g‘uv-g‘uv.

Kuchukka: kuch-kuch,

Eshakka: ish-ish,

Pishakka: pish-pish.

Shu tariqa bolalar undov so‘zlarni ham o‘zlashtirib olishadi. Hatto ayrim qiziqmachoqlarda bularni bilish zarurligi quyidagicha uqtiriladi:

Minib hayda.

Aytsang foyda.

Tuyaga: hayt-chuv.

Ot-ho‘kizga: chuv-chuv.

Eshakka: ix-ix.

Qamchi – eshig‘,

Xila – yo‘nig‘.

Tuya, ot, ho‘kiz, eshak kabi jonivorlar miniladi. Ularni minganda yurishga yoki to‘xtashga undash uchun esa yuqorida ko‘rsatilgandek muayyan so‘zlarni bilish lozim. Aks holda, bu jonivorlarni bo‘ysundirish qiyin kechadi. Shuning uchun kattalar bolalarga buni yoshlikdan uqtirib borishgan. Keyinchalik bolalar o‘z ko‘rganlari va bilganlari asosida bemalol chorva hayvonlarini boshqarib ketishgan. Biroq bunda hayvonlarni boshqarish uchun faqat bu so‘zlarnigina bilish kifoya emas. Ayni paytda jonivorlarni boshqarishda ishlatiladigan ayrim predmetlar,

FOR AUTHOR USE ONLY

jumladan, qamchi-yu xila kabilarni ham bilmoq va tanimoq kerak. Shuni inobatga olib, yuqoridagi aytimda “qamchi”ning eshilgan holda tayyorlanishi, “xila”ning esa yo‘nilgan cho‘p ko‘rinishida bo‘lishi ta’kidlanayotir.

Quv-quv.
G‘oz, o‘rdaka: g‘ov!
Sigirga: hov!
Tuyaga: hayt, chuv!
Otga: qayt, chuv!
Eshakka: ihayt!
Qo‘yga: qayt!
Tovuqqa: to‘k, kisht!
Pishakka: pisht!
Itga: yit!
Kuchukka: kuch!
Echkiga: kech!
Qo‘chqorga: qo‘ch!
Ho‘kizga: gav-bosh!
O‘t quda – osh,
Quvmasang – chosh,
Yodlamasang – yosh!
Burningni tort!
Og‘zingni art,
Qayta ayt!
Aytolmasang,
Qoch, ket!
Kuch! – Yit!

FOR AUTHOR USE ONLY

Bundan ko‘rinadiki, bolalarga qaysi hayvonni qanday undov so‘z orqali harakatga undash yoki to‘xtatish mumkinligi yoshlikdan qiziqmachoqlar vositasida o‘rgatilgan. Bunday buyruq-xitob undovlari bolalarga kattalar ko‘magida yodlatib borilgan.

Yana har bir hayvonning o‘zigagina zarur bo‘lgan predmetlar nomini bilish ham talab etiladi. Masalan, tuyaga burundiq, otga suvliq, eshakka dalli zarur hisoblanadi. Shuning uchun bolalar bu narsalarning nomini bilishi lozim sanalgan.

Hayvonlarni sug‘orishda maxsus qurilgan novalardan foydalanilgan. Shuning uchun qiziqmachoqlarda bu haqda ham maxsus ma’lumot berilganligi kuzatiladi:

Suvga nova qur,
Ot, tuya: g‘ur-g‘ur,
Qo‘y, echki: qur-qur,
Eshakka: xum-xum,
Sigirga: chum-chum,
It, kuchuk: yaloq-yaloq,
Bo‘lma buzoq,
Tut quloq.

Shuningdek, o‘zbek tilida hayvonlarning turini, jinsini va bolasining nomini ifodalovchi so‘zlar ham bor. Qiziqmachoqlarda shu haqda alohida ma’lumot berilishi kuzatiladi:

Tuya – tumpak,
Bolasi – ko‘shshak.
Ot – xo‘shroy,
Bolasi – toy.
Eshak – xor-xorro,
Bolasi – kurra.
Sig‘ir – gajak,
Bolasi – o‘jak.
Qo‘y – yuvosh o‘zi,
Bolasi – qo‘zi.
Gechchi-karquloq,
Bolasi – uloq.
Tovuq – anaja,
Bolasi – jo‘ja.

FOR AUTHOR USE ONLY

It – xujjik,

Bolosi – kuchuk.

Pishikni bodi yo‘q,

Bolasini odi yo‘q.

Topsang boyroq:

Bolasi nasya,

Sichon bilan boq!

Hayvonlarni tanishtirish uchun aytiladigan bunday qiziqmachoqlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Masalan, tuya haqida shunday qiziqmachoq mavjud:

Moyo tuya, nor tuya,

Shu o‘g‘lona zor tuya.

O‘rkachi bor – taxti bor,

Tuyalining baxti bor.

O‘rkachina qo‘l yetmas,

Bahosina pul yetmas.

Minavilsang norvonsiz,

Cho‘l gazarsan armonsiz.

FOR AUTHOR USE ONLY

Ko‘rinyaptiki, bunday qiziqmachoqlarda ko‘proq uy hayvonlaridan foydalanish, ularni asrab-avaylash yo‘llari, xo‘jalikka nafi haqida o‘git beriladi.

Bolalarni hayvonot olami bilan tanishtirish uchun aytiladigan aksariyat qiziqmachoqlar dialogga asoslanganligi bilan e’tiborni tortadi. Ular katta kishining bola bilan suhbati shaklida yaratilganligi kuzatiladi:

– Qo‘ylar qayda? –

– O‘tliq yerda!

– O‘tliq qaerda?

– Ola tog‘da.

– Qanday o‘tloq?

– Gulli yantoq!

– Nima ichadi?

– Shakar-sharbat!

– Nima tashlaydi?

– Qo‘y qumaloq!

– Nima tug‘adi?

– Qo‘zi, uloq!

– Kim qaraydi?

– Cho‘poni bor!

– Qo‘lida nima?

– Tayog‘i bor!

– Qo‘ynida nima?

– Yori bergan ro‘moli bor!

Dialogga asoslangan ushbu qiziqmachoq orqali bolaning chorvachilik, chorvani boqish va boshqarish, umuman, chordorlar hayoti, cho‘ponlik, cho‘ponlar turmushi haqida nimalar bilishi so‘rab olinadi. Unda qo‘y-echkilarning tog‘ va tog‘ etaklaridagi o‘tloq yerlarda, gulli yantoqli o‘tloqlarda, shirin buloq suvlaridan ichib yashashi, vaqti kelganda ulardan qo‘zi-uloqlar tug‘ilishi, doimiy cho‘pon nazoratida boqilishi, cho‘pon esa qo‘lidagi maxsus tayog‘i bilan ularni boshqarib turishi bildirilmoqda.

Cho‘ponning qo‘ynidagi yori bergan ro‘mol uning oilali ekanligidan, bu tashvishlarining bari oilasi uchun rizq topish yo‘lidagi shirin tashvish ekanligi ifoda etilmoqda.

FOR AUTHOR USE ONLY

II.2. Qiziqmachoqlarning tabiati va tuzilishiga ko‘ra turlari

Qiziqmachoqlar tabiati va tuzilishiga ko‘ra oltita asosiy guruhga bo‘linadi. Bular: 1) komik mazmunga ega bo‘lmagan qiziqmachoqlar; 2) hazil qiziqmachoqlar; 3) kumulyativ qiziqmachoqlar; 4) kontaminatsiyalashgan qiziqmachoqlar; 5) dialog qiziqmachoqlar; 6) hukmlagich xarakteridagi qiziqmachoqlardir. Ularning har biri o‘zaro mazmuni, tili, obrazlar olami, kompozitsion qurilishi jihatidan farqlanib turadi.

Kulgili (komik) mazmunga ega bo‘lmagan qiziqmachoqlar “Xorazm xazinasi” to‘plamida “hayotiy tuzumlar” nomi bilan keltirilgan.

Umuman aytganda, kiziqmachoqlar komiklik, ya’ni qiziqchilikning ishtirokiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

1) komik mazmunga ega bo‘lmagan qiziqmachoqlar;

2) hazil qiziqmachoqlar.

Komik mazmunga ega bo‘lmagan qiziqmachoqlar orqali, asosan, bolalarga hayotiy hodisalarning mohiyati, insoniy muomala-munosabatlar, axloq-odob normalari metaforik o‘xshashlik negizida o‘rgatiladi. Masalan,

Saxiy – g‘or,

Baxil – tor,

Fahmsiz – eshak,

Dardsiz – kesak.

Ham qarshilantirish, ham o‘xshatish asosiga qurilgan ushbu misralar yoshlarga saxiy, fahm-farosatli, elu yurt dardini o‘z dardi deb biladigan bo‘lish zarurligini uqtirishga xizmat qiladi. Bu haqda ishimizning oldingi faslida ham to‘xtab o‘tilgan.

FOR AUTHOR USE ONLY

Hazil qiziqmachoqlar genetik jihatdan hazil qo‘shiqlar bilan bog‘liqdir. Hazil qiziqmachoqlarda hazil qo‘shiqlarga xos xususiyatlar bo‘rtib ko‘rinadi.

Hazil qiziqmachoqlarning muhim belgisi shundaki, ularda hazil orqali tug‘ilgan kulgi yetakchilik qiladi. Bunday qiziqmachoqlarda ko‘pincha hayvonlar, hasharotlar obrazi kulgili holatlarda tasvirlanadi. Ayniqsa, ularning odamlarday xatti-harakatda tasvirlanishi beg‘araz kulgiga olib keladi. Masalan:

Bedana mastdir, bedana,
Bo‘yginang pastdir, bedana.
Bedananing past-past bo‘yi,
Jonimga qasddir bedana.
Bedanaga tuzoq qo‘ydim,
To‘rga ilindi bedana.
Astagina ushlay dedim,

Dumi yulindi bedana.
Undan ham uzun bedana,
Savziga tushdi bedana.
Savzi satog‘liq bedana,
Ko‘tani yog‘liq bedana.
Mehmonga loyiq bedana,
Mehmon baloni yesin,
O‘zimga loyiq bedana.
Shivir-shivir yomg‘ir yog‘di,
Qamish boshida bedana.

Ba’zi hazil qiziqmachoqlarda hayvon bilan insonning piching aralashgan kulgili suhbati orqali kulgi keltirib chiqarilganligi kuzatiladi:

– Tulkicha-yo, tulkicha,
Tunda qayga borasan?
– Momom uyi boraman.
– Momong senga ne berar?
– Echki sog‘ib sut berar.
– Echkisining suti yo‘q,
Ulog‘ining puti yo‘q,
Kadisining keti yo‘q.

FOR AUTHOR USE ONLY

Qiziqmachoqlar beshik davridan so‘nggi bosqichda bolalar uchun eng oson va qulay bo‘lib, keyinchalik kichkintoylarda qiziqchilikning shakllanishiga asos bo‘ladi.

Ba’zi qiziqmachoqlarda kattalarning bir-biriga hazil qilishi kuzatiladi. Jumladan, bobo o‘z nevarasiga aytayotgan qiziqmachog‘ida kampiriga yoki kampir o‘z qiziqmachog‘ida tengdoshlariga hazil qilib, shunday deyishi mumkin:

Osmondagi yulduzlar
Oy bo‘laman, deydi.
Shu vaqtning kampirlari
Qiz bo‘laman, deydi.

Ariqdagi qurbaqa
Men olaman, deydi.
Karnaylatib, surnaylatib,
To‘y qilaman, deydi.

O‘z yoshiga nomunosib xatti-harakatdagi kampirlarga piching-kinoya tariqasida aytilayotgan bu qiziqmachoqning mazmuniga bola to‘liq tushunmasa-da, undagi hazil ohanggi bolani befarq qoldirmaydi.

Xullas, qiziqmachoqlarda bola qalbini to‘lqinlantiruvchi kulgi yaqqol sezilib turadi. Ularning hazil qiziqmachoq turi keng tarqalganligi bilan e’tiborni tortadi.

Dialog qiziqmachoqlar. Qiziqmachoqlarning aksariyati kattalar bilan bolalarning savol-javobiga asoslangan bo‘ladi. Ularda suhbat shakli muhim o‘rin tutadi.

–Piyolam qani?
– Sindirib qo‘ydim.
–Sinig‘i qani?
–Sotib qo‘ydim!
–Puli qani?
–Onam oldi!
–Olsa olsin,
Yangi piyola bersin!

FOR AUTHOR USE ONLY

Bolalar ko‘pincha piyola, kosa singari chinni idishlarni ehtiyotsizlik qilib, sindirib qo‘yishadi. Hatto ba’zi bolalar bunday holatda o‘zi sindirib qo‘ygan idish siniqlarini yashirib qo‘yish orqali aybini yashirmoqchi bo‘ladi. Buni sezgan kattalar esa uni tergov qilib, aybiga iqror bo‘lishga undaydi.

Ayrim bobo-buvilar nosvoy chekishadi. Nos chekkanda esa ular og‘zining band bo‘lib qolishi sababli nevarasi bilan ma’lum muddat gaplashmay qo‘yishadi. Bola uchun bu befarqlik va e’tiborsizlik og‘ir botadi. Shu tufayli bolalar ko‘pincha bobo va buvilarining nos saqlanadigan idishi – nosqovog‘ini yashirib qo‘yishga o‘ch bo‘lishadi. Mana shu holat ham qiziqmachoqlarda o‘z ifodasini topganligi

kuzatiladi. Quyidagi shunday mazmundagi qiziqmachoq bobo va nevara o‘rtasida kechgan:

–Noskadim qani?
–Sotib yubordim!
–Puli qani?
–Shikalad oldim.
–Shikalatingdan ber,
Shikaladni bobolar ham yer!

Monolog qiziqmachoqlar ham bor. Ular monoton ohangda ijro qilinishi bilan dialogli qiziqmachoqlardan ajralib turadi. Bunga bedana haqidagi yana bir quyidagi qiziqmachoqni misol qilish mumkin:

Ola toy, yo‘rg‘ala, toy,
Minib Xuroson ketay.
Xurosonning yo‘lida
Otginam o‘lsa, netay?
Otimning o‘ligini
Ishlab bozorga sotay.
Bangi-bangiga sotay,
Attor rangiga sotay.
Bangining otasi yo‘q,
Belida po‘tasi yo‘q,
Qalpoqda po‘pagi bor,
Attorda ipagi bor.
Yigitda ham yigit bor,
Men sevganning bo‘yi bor,
Ne bir, ne bir so‘zi bor,
Quralayday ko‘zi bor.
Otam sevmagin, dedi,
Onam qo‘ymagin, dedi,
U ham meni sevadi,

FOR AUTHOR USE ONLY

Yuragi ham kuyadi.

Matndagi ket+ay / net+ay / sot+ay fe'llari tarkibidagi istak mazmunini bildiruvchi "-ay" I shaxs birlikdagi shaxs-son qo'shimchasi hamda "otgina+m", "ot+im", "ota+m", "ona+m" so'zlari tarkibidagi "-m" (-im) I shaxs birlikdagi egalik qo'shimchasi, shuningdek, I shaxs o'rnida qo'llanuvchi "men", "meni" kishilik olmoshiga qarab, uning yakka shaxs tomonidan monoton ohangda aytilayotganini anglash mumkin.

Kumulyativ qiziqmachoqlar so'qma so'zlar, ya'ni leksik ma'nosini yo'qotgan jumlalar bilan boshlanadi. Bu ularga xos asosiy belgi hisoblanadi.

Dilon, dilon, diloni,
Dilon nerga borasan?
Jonim qo'zim diloni,
Turib nerga ketasan?
– Endi bahor bo'libdi,
Momom ko'rgisi kelibdi.
Chorboqchadan aylanib,
Momomnikiga boraman,
– Momong nima beradi?
–Sutu qatiq beradi.
Uni nerga qo'yarsan?
– Tos tepamga qo'yaman.

FOR AUTHOR USE ONLY

Kontaminatsiyalashgan qiziqmachoqlar yangi mazmunni an'analar doirasida ifodalashdan kelib chiqadi:

Qo'shnimizning iti bor,
Qulog'ida biti bor.
Oq non, qora non,
Sovetski(y) bo'lka non.
Tongda borsang, olasan,
Kechda borsang, qolasan.
Nemis chiqib o'rmondan,

Pichoq olib karmondan.
"So'yaman" deb baqirdi,
It Gitlerni chaqirdi.
U menga "hov-hov" etdi.
Man og'ziga bir tepdim.
Bir tepdimu yiqitdim.
Mani hamma maxtadi,
Shu bilan urush to'xtadi.

Ma'lum tarixiy voqelik va tarixiy vaziyat bilan ham bog'liq bo'lgan, aniqrog'i, o'tgan asrning 1941-1945 yillarida Germaniya boshlagan Ikkinchi Jahon urushi voqealari nafaqat kattalar, balki bolalar hayotini ham ostin-ustin qilib yubordi. Urush yuz berib turgan Rossiya va uning atrofidagi hududlardan ko'plab yetim, qarovsiz qolgan bolalar, shuningdek, ayollar va keksalar O'zbekistonga evakuatsiya qilinib, ko'chirib kelindi. Natijada azaldan mehmondo'st, qo'shnichilikni qadrlab kelgan yurtimiz aholisi yeb turgan nonidan ularga haq chiqarishga, urushga ham oziq-ovqat yuborib turishga harakat qildi. Shu holat sabab avvalgiday qorni to'yguncha non va ovqat yemay qo'ygan bolalarning xarxashasi paydo bo'ldi. Ularga mavjud vaziyatni to'g'ri tushuntirish ilinjida kattalar "Qo'shnimizning iti borligi va bu itning qulog'ida biti bor"ligini aytish orqali hamdo'st mamlakatlar boshiga tushgan ko'rgulik, uning itdek quturgan dushmani, bu itning qulog'igacha zararliligi, hatto qulog'iga joylashib olgan biti ham qonxo'rligi" haqida metafora yo'li bilan tasavvur-tushuncha uyg'otishgan. Bolalar esa kattalarning nemis bosqinchilari to'g'risida aytgan bu metaforik ifodalaridan o'z ijod namunalarida, jumladan, qiziqmachoqlarda ham foydalanishgan.

Ushbu qiziqmachoqdagi "Oq non, qora non, sovetskiy bo'lka non" ifodalari urush davrida oq non ozayib, odamlar qora nonga erishganiga ham shukr qilgani, un tanqislashgani oqibatida non yopish kamayib, juda ko'pchilik non kombinatlarida tayyorlangan qora bo'lka non, ya'ni ruscha aytganda, "buxanka" yeyishga majbur bo'lgani, uni ham faqat maxsus talon-kartalar orqali navbatda

FOR AUTHOR USE ONLY

turib olishgani, kim kech qolguday bo‘lsa, nondan quruq qolib ketishi voqealarini yodga soladi. Bularning bari sho‘ro davri voqealari bo‘lganligi uchun matnda “sovetskiy” degan ruscha so‘zga alohida o‘rin ajratilgan.

Urush davrida odamlar non olish uchun uzoq navbatga turishgani, ularga oila a’zolarining soniga qarab sanoqli non berilgani voqealari real ifoda etilgan.

Umuman aytganda, bosqinchi nemis obrazi, uning dahshati aks etgan qiziqmachoqlar mazmunan alohida silsilani tashkil qiladi. Hatto ularning yaratilgan davri ham aniq bilinib turadi. Jumladan, nemisning kutilmaganda o‘rmondan chiqishi uning hammani g‘aflatda qoldirib bostirib kelganini, kissasidan pichog‘ini olishi, o‘ta qurollanganini, “so‘yaman” deb o‘xtalgani nihoyatda qonxo‘r va zolimligini anglatadi. “Urush to‘xtadi” ifodasi orqali nemis har qancha chiranmasin, uning yengilgani, shu bilan urush to‘xtagani bildirilmoqda.

Hukmlagich xarakteridagi qiziqmachoqlarda ma’lum bir jonzotga bola tilidan murojaat qilinadi:

FOR AUTHOR USE ONLY

Undan uchgin bedanam,
Bundan uchgin bedanam.
Savziga tushgin bedanam,
Savzi sanoq bedanam.
Mushuk baloni yesin,
O‘zimga loyiq bedanam.
Qozonda qaynar bedanam,
Cho‘michda o‘ynar bedanam.
Yaxshi otga arpa berib,
Betingdan o‘psam bedanam.
Yomon qizga qirmoch berib,
Bahringdan o‘tsam bedanam.

Latifa – qiziqmachoqlar. A.P.Babushkina ularni “bolalar latifalari” deb ataydi. M.N.Melьnikov esa bu fikrga qo‘shilmaydi. Ular axloqiy-tarbiyaviy mohiyat kasb etadi. Yechimi favqulodda, ya’ni kutilmaganda ko‘tarilgan qahqahaga egaligi bois “she’riy latifa” deyishga asos yaratadi.

Vohid qaerdasan?

Bu yerdaman.

Nima qilyapsan?

Ayiqni tutdim.

Uni olib kel.

U bormayman dedi.

Bo‘lmasa, o‘zing kel,

U qo‘yvormayapti.

Qiziqmachoqlar, asosan, kattalardan, ko‘proq keksa yoshli ayollardan yozib olinadi. Ular tabiati va tuzilishiga ko‘ra komik mazmunga ega bo‘lmagan yoxud hazil, kumulyativ, kontaminatsiyalashgan, dialogik yo monologik, hukmlagich xarakteridagi qiziqmachoqlarga bo‘linadi. Ularning har biri o‘zaro mazmuni, tili, obrazlar olami, kompozitsion qurilishi jihatidan bir-biridan farqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, qiziqmachoq janrining kelib chiqish asoslari folklorning topishmoq, tez aytish, ovutmachoq, erkalama, o‘yin-qo‘shiqlar kabi boshqa mustaqil janrlari bilan bog‘liqdir. Bu esa folkloristikada diffuziya hodisasini namoyon etadi, ya’ni biror janr, motiv yoki obrazning ikkinchi bir janr, motiv yoki obrazga kirib borishi, singishi natijasida ularning tabiatida sodir bo‘ladigan struktural, semantik hamda funktsional o‘zgarishlarni anglatadi.

FOR AUTHOR USE ONLY

II.3. Qaytarmachoq va aldanmachoqlar qiziqmachoqlarning bir turi sifatida

Aldanmachoqlar ham qiziqmachoqlarning ichki bir turidir. Ular, odatda, “Aldattim-o, aldatdim” deb boshlanishi bilan bolalar folkloridagi boshqa an’anaviy janrlardan ajralib turadi. Masalan:

Aldatim-o, aldatdim,

Chakka xalta yalatdim.

Devorchadan oshirib,

Chang‘aloqqa yashirdim.

Hakka cho‘qilab ketdi.
Hakkani quva-quva
Yo‘limdan hassa topdim.
Hassani bekka berdim,
Bek menga qamchi berdi.
Qamchini suvga urdim,
Suv manga baliq berdi.
Baliqni yedim, qochdim,
Childirtepadan oshdim.
Childirtepaning toshi –
Yangamning qalam qoshi.
Yangam yasanib chiqdi,
Akam ko‘tarib qochdi.

Ko‘rinyaptiki, ushbu misralar qiziqmachoqlarda ham uchraydi. Faqatgina bu matn boshlanmasi jihatidan o‘ziga xoslik kasb etmoqda. Bizningcha, unda bayon qilinayotgan dastlabki voqealar hayotiy uydirma, yolg‘ondan iboratligi bois “aldanmachoq” deb yuritilayotir. Biroq matnning so‘nggi misralarini tashkil qilib kelayotgan “Yasanib chiqqan yangani akaning ko‘tarib qochishi” motivi marosimiy mohiyatga egaligi, hayotiyligi bilan e’tiborni tortadi. Xalqimizga xos nikoh to‘yi udumlari silsilasida kuyovning kelinni boshi uzra ko‘tarib, oyog‘ini yerga tekkizmay olov atrofidan uch marta aylantirib, chimildiqqa ko‘tarib kiritishi odati respublikamizning barcha hududlarida hanuzgacha saqlanib qolgan. Xuddi shu holat kattalar qatori hamisha to‘y davrasida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan bolakaylar uchun “Faqat bolalarni emas, kattalarni ham ko‘tarish mumkin ekan-da?! Nega shunday?” degan qiziqarli savolni keltirib chiqaradi. Demak, keltirilgan matnda bolalarning shu voqelikka qiziqishi namoyon etilmoqda.

Qaytarmachoqlar ham qiziqmachoqlarning ichki bir turidir. Janr nomi “qaytarmachoq” deb atalishiga unda bir xil mazmundagi savol-javobning takrorlanib (qayta-qayta) kelishi asos bo‘ladi. Unda aytilgan fikrga zid fikr qaytarish muhim janriy xususiyat hisoblanadi. Aytilgan fikrga javob qaytarishni

FOR AUTHOR USE ONLY

taqazo etishi hisobga olinib, u “qaytarmachoq” nomi bilan yuritiladi. Umuman aytganda, “qiziqmachoq”, “aldanmachoq”, “qaytarmachoq” singari terminlarni o‘zbek bolalar folklorshunosligida ilk bor O.Safarov qo‘llagan.

Qaytarmachoqlar she’riy yoki nasriy ko‘rinishlarda uchraydi. She’riy ko‘rinishdagi qaytarmachoqlar ko‘pincha monologik shaklda uchraydi. Nasriy ko‘rinishdagi qaytarmachoqlar esa dialog (savol-javob) shaklida yaratilganligi bilan e’tiborni tortadi.

O.Safarov qaytarmachoqlarni xalq dramasi namunasi sifatida qarash mumkin, degan fikrni bildiradi.

Qaytarmachoqlarda voqealar mantiqiy uzviylikda, o‘zaro ketma-ketlikda bayon etiladi. Ularda bir voqeadan ikkinchisi o‘sib chiqaveradi. Umumiy bir g‘oya atrofida mantiqan birlashgan har bir voqea alohida epizod tusini olib, qaytarmachoq syujetini hosil qiladi.

O.Safarov fikricha: “Qaytarmachoqlarda jonli yoki jonsiz narsalar o‘zi haqida so‘zlaydi. O‘zidagi ojiz tomonni – boshqalardan farqli xususiyatini alohida ta’kidlab turib, qarshi tarafdagi ustun tomon – xususiyatini e’tirof etadi. Bu dialog shaklidagi qaytarmachoqlarga xos bo‘lsa, monolog shaklidagi namunalarda lirik men markazda turadi”.

FOR AUTHOR USE ONLY

Qaytarmachoqlar, odatda, «Yumalandim, yumoq topdim» deb boshlanuvchi an’anaviy satr bilan boshlanishi ularga xos muhim belgidir. Masalan:

Yumalandim – yumoq topdim,
Yumaloq ichidan taroq topdim.
Taroqni bir momoga berdim,
Momo manga cho‘rak berdi.
Cho‘ragimni cho‘ponga berdim,
Cho‘pon manga tayoq berdi.
Tayog‘imni daryoga tashladim,
Daryo manga ko‘pik berdi.
Ko‘pigimni tutimga surtdim,
Tutim manga yaproq berdi.

Yaproqni molimga berdim,
Molim manga moqqa berdi.
Moqqamni ikki tosh o‘rtasida
Qo‘yib pishirib turgandim.
Quyon keldi, chiq, dedi.
Qarg‘a keldi, qag‘, dedi,
Quyon dumi lik etdi,
Moqqam to‘kildi ketdi.

Ko‘rinayotirki, qaytarmachoq tarkibida 14 ta mustaqil epizod bir-biridan o‘sib chiqib, o‘zaro uzviy mantiqiy ketma-ketlikda bog‘lanib kelmoqda. Alohida-alohida voqealar qaytarilib, ipga tizilgan marjondek mantiqiy yaxlitlikni hosil qilmoqda. Shu tariqa xususiylik o‘zaro ulana turib, umumiylikka aylana borgan. Bunda bola uchun qiziqarli va e’tiborli tomoni shundaki, har bir voqea yoki hodisa o‘zicha mustaqil, biroq bir-biri bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Bolaga ana shu haqiqat hayrat bag‘ishlaydi, uni ta’sirlantiradi.

Qaytarmachoqda lirik qahramon yumalab yumoq topadi (1), yumaloq ichidan taroq topadi (2), taroqni momoga beradi (3), momo unga cho‘rak (non) beradi (4), cho‘rakni cho‘ponga beradi (5), cho‘pon unga tayoq beradi (6), tayoqni daryoga tashlaydi (7), daryo unga ko‘pik beradi (8), ko‘pikni tutga surtadi (9), tut unga yaproq beradi (10), yaproqni molga beradi (11), mol unga sut beradi (12), sutni pishirib turganida, avval qarg‘a keladi (13), so‘ng qaerdandir quyon paydo bo‘lib, sutni to‘kib qochadi (14), natijada shuncha mehnat zoe ketadi.

Matnda “yumalab, yumaloq ichidan taroq topish” ushbu qaytarmachoqning tuguni bo‘lib ko‘rinadi. Ma’lumki, taroq – sehrli ertaklarda magik qudratga ega tilsim predmetlardan biri sifatida obrazlantiriladi. Bu haqda folklorshunos Z.Rasulovaning qayd etishicha: “Ertaklarda taroq ko‘pincha ikki xil vazifada talqin qilinadi. Birinchisi, sochni tarash predmeti sifatida. Ikkinchisi, evrilishga magik vosita sifatida.”

Taroqning magik predmet sifatida obrazlantirilishiga uning e’tiqodiy qarashlar, marosimlar bilan bog‘liqligi asos bo‘lganligiga shubha yo‘q. Shulardan

FOR AUTHOR USE ONLY

kelib chiqib, xalq ertaklarida taroq obrazi qahramonni o‘zga olam vakillaridan, yovuz ruhlardan asrovchi sehrli predmet sifatida badiiy talqin qilinishi kuzatiladi.

Z.Rasulova tadqiqotida Sharqda ayollarning taroqni turli kasalliklardan himoya qiluvchi maxsus magik vosita sifatida taqib yurishgani, taroqlar ko‘pincha totem sifatida ardoqlangan jonivorlarning shoxi yoki suyagidan, yoxud ardoqlanadigan biror-bir daraxt yog‘ochidan yasalgani, xususan, sigir shoxidan yasalgan taroqlar ancha urf bo‘lgani haqida ma’lumotlar ilmiy-etnografik keltirilgan.

Yuqoridagi qaytarmachoqda qahramonning yumalab yumoq topishi, so‘ngra yumaloq ichidan taroq topishi, taroqni momoga berishi motivi beixtiyor “Ikki oy, ikki yulduz” o‘zbek xalq ertagidagi maston kampirning bir duo bilan qizni taroqqa aylantirib qo‘yishi, boshiga sanchib olib, charxiga ilintirib qochib ketishi motivini yodga soladi.

Qaytarmachoqda yumaloq ichidan topilgan taroqning momoga berilishi motivi ham shunchaki emas. Bu o‘rinda yana bir bor xalq og‘zaki epik an’analari e’tiborni tortadi. Binobarin, ertaklarda ko‘pincha taroq jodugar yoki maston, yalmog‘iz kampirga tegishli predmet sifatida talqin qilinadi. Buni “Ilon podsho”, “Dev po‘stin” singari o‘zbek xalq sehrli ertaklarining syujeti yaqqol tasdiqlay oladi. Bu ertaklarda taroq jodugar kampirning sochini tarash predmeti sifatida talqin qilingan. Jumladan, “Ilon podsho” ertagida jodugar kampir qahramonga temir taroq va oyna berib, “sochimni tara, bitini boq” deydi. Lekin jodugar sochini tarashga o‘tirgan qahramonning tiziga bosh qo‘yishi bilan uning qonini so‘ra boshlaydi. Buni sezgan qahramon jodugar kampirdan qochib qutilmoqchi bo‘ladi. U kampirdan qochar ekan, izma-iz quvib kelayotgan jodugarning yo‘liga avval uning tarog‘ini tashlaydi. Taroq tashlangan joyda bepoyon to‘qayzor paydo bo‘ladi. So‘ngra qahramon jodugar yo‘liga uning o‘z oynasini tashlaganda, ulkan daryo hosil bo‘ladi va jodugarni komiga tortib ketadi.

Epik an’anada taroqning jodugar yoki maston, yalmog‘iz kampirga tegishli predmet sifatida talqin qilinishi bejiz emas. Chunki taroq, odatda, ayollarga tegishli

FOR AUTHOR USE ONLY

buyum hisoblanadi. Hatto qadimgi slavyanlar orasida taroq ayollarning magik atributi sanalgan. Uni ko‘pincha afsungar va jodugarlar qo‘llashgan.

«Kun, san nimadan kuchlisan?» qaytarmachog‘i dialog negizida qurilganligi bilan e’tiborni tortadi. Unda bolalarni qiziqtirgan «Dunyoda kim kuchli?» savoliga javob narsa va hodisalar bahsi asosida voqeadan voqeaning o‘sib chiqishi shaklida bola qiziqishi va ifodasiga mos holda bayon qilingan:

– Kun, san nimadan kuchlisan?

– Man kuchli bo‘lsam, bulut bosarmidi?

– Bulut, san nimadan kuchlisan?

– Man kuchli bo‘lsam yomg‘ir yog‘armidi?

– Yomg‘ir, san nimadan kuchlisan?

– Man kuchli bo‘lsam, yerga tusharmidim?

– Yer, san nimadan kuchlisan?

– Man kuchli bo‘lsam, o‘t ko‘kararmidi?

– O‘t, san nimadan kuchlisan?

– Man kuchli bo‘lsam, qo‘y-qo‘zi yermidi?

– Qo‘y-qo‘zi, san nimadan kuchlisan?

– Man kuchli bo‘lsam, bo‘ri yermidi?

– Bo‘ri, san nimadan kuchlisan?

– Man kuchli bo‘lsam, ovchi otarmidi?

– Ovchi, san nimadan kuchlisan?

– Man kuchli bo‘lsam, miltig‘imni sichqon kemirarmidi?

– Sichqon, san nimadan kuchlisan?

– Man kuchli bo‘lsam, qulog‘imni qumursqa bosarmidi?

– Qumursqa, san nimadan kuchlisan?

– Kuchliman, kuchliman.

Oltmish botmon tariqni,

Orqam bilan ko‘taraman.

Yetmish botmon tariqni,

Yelkam bilan ko‘taraman.

FOR AUTHOR USE ONLY

Kuchliman, kuchliman...

Ko‘rinayotirki, har bir savol o‘zidan keyingi voqeaga mantiqiy maydon hosil qilgan, shu maydonda voqealar tizila boradi: kun (quyosh) – bulutni, bulut – yomg‘irni, yomg‘ir – yerni, yer – o‘tni, o‘t – qo‘zini, qo‘zi – bo‘rini, bo‘ri – echkini, echki – sichqonni, sichqon – qumursqa (chumoli)ni o‘zidan kuchli, deb biladi va eng e’tiborlisi shundaki, ularning har biri o‘zlaridagi ojizlikni ham oshkora tan ola borishadi.

Rabg‘uziyning folklor motivlaridan foydalanib yaratilgan “Qisasi Rabg‘uziy” asarida jannatdan quvilgan odamga anjir o‘z bargidan berishi, bu barglarning birini sigir yeb, kanop, qurt yeb, ipak berishi voqealari hikoya qilinadi. Yuqoridagi talqinlar xuddi ana shu afsona syujetini yodga solmoqda.

Yana shu asarda “Sulaymon payg‘ambarning qarinchqa bilan so‘zloshg‘oni” haqidagi afsona bor. Unda chumolining (xalq shevalarida qumursqa, qarinchqa, qorincha, mo‘rcha ham deyiladi – N.A.) aqlliligi, adolatliligi madh etilgan. Donolik va adolat esa hamisha g‘olib keladi.

Ko‘rinishidan mittigina bo‘lgan qumursqaning o‘zini hammadan kuchli hisoblashi, oltmish botmon tariqni orqasida ko‘tarishi, yetmish botmon tariqni yelkasi bilan ko‘tarishi o‘ziga xos mubolag‘a, bo‘rttirish bo‘lib, matnni qiziqmachoqqa xoslantirmoqda.

Xullas, misol keltirilgan qaytarmachoqda voqealar shu xilda mantiqiy zanjirsimon tusda rivojlanib, yaxlit bir tizim tusini ola boradi. Antropomorfizm (shaxslantirish) usuli kun, bulut, yomg‘ir, yer kabi tabiat hodisalari, o‘t, qo‘zi, bo‘ri, echki, sichqon va qumursqa singari nabotot hamda hayvonot olamiga mansub jonzotlarning odamlar singari so‘zlash xususiyatlariga ega bo‘lishlarini ta’minlagan. Natijada qaytarmachoqdagi syujet dinamikasi ta’minlangan.

Qaytarmachoqda har bir narsa va hodisa o‘zidan kuchli bo‘lgan narsa va hodisani e’tirof etadi, tan oladi. Mana shu tantilik sabog‘i, xalqona axloqiy qarashlar qaytarmachoqning g‘oyaviy mundarijasi yo‘nalishini hosil qilgan. Mardlik tushunchasi uning mag‘ziga singdirilgan.

FOR AUTHOR USE ONLY

Bizgacha O.Safarov e'tirof etib o'tganidek, qaytarmachoqlarning bosh vazifasi voqelikni bo'laklagan holda qayta-qayta murojaat etish asosida bolalarning mayda bo'laklardan butunlik hosil bo'lishini, yaxlitlik esa, o'z navbatida, bo'lakchalarning o'zaro birlashuvidan yuzaga kelishini idrok ettirishga qaratilgandir. Bu bolalar uchun aniqlikdan mavhumlikni anglash yo'lidir, xalq bolalarda abstrakt tafakkur qila bilish iqtidorini shu xilda shakllantirgan. Shu sababli ular bolalarni mustaqil fikrlay bilishga o'rgata olishi bilan beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Qiziqmachoqlar va qaytarmachoqlarda ikkala tomon bab-baravar faollik ko'rsatishadi: kattalar topqir ijodkor va mohir ijrochi sifatida; bolalar shunchaki tinglovchi bo'libgina emas, balki tinglaganlarini anglashga, tasavvur va idrok qilishga, shular asosida hayot va o'yindan iborat o'z olamlarini yaratishga, tushunchalar zamiridagi hayot mazmunini uqishga, ulardan zavqlanishga intiluvchi sifatida faollik ko'rsata boshlaydilar. Bu hol bolalarda ruhiy faoliyatni faollashtira boradi, pirovard oqibatda ongning uyg'onishiga, dunyoqarashning kurtak yoza boshlashiga yo'l ochadi. Shu tufayli qiziqmachoqlar va qaytarmachoqlar o'zbek xalq pedagogikasida beqiyos qimmatga ega. Binobarin, ularni to'plash, o'rganish va nashr etish ilmiy-estetik hamda amaliy-tarbiyaviy jihatlardan behad zarurdir.

FOR AUTHOR USE ONLY

Umuman aytganda, qiziqmachoqlar o'zbek xalq bolalar folklorida alohida badiiy shakl namunalari sifatida yaxlit tizimni hosil qiladi. Qiziqmachoqlarni yaxlit tizim holida tasavvur qilishga asos bo'luvchi muhim belgilardan biri shuki, ular mavzuiy yo'nalishiga, shakliy ko'rinishiga, ifoda uslubiga ko'ra ichki turlarga bo'linadi.

Ikkinchi bob yuzasidan xulosalar:

1. Qiziqmachoqlar tarbiyaviy-estetik mohiyatga ega, uzun hajmli, hazilga yo'g'rilgan, jo'shqin ruhdagi og'zaki qo'shiqlar bo'lib, mazmunan rang-baranglik kasb etadi. Ularda bolalarni tevarak-atrof va maishiy turmush, ayrim tarixiy voqea-hodisalar, o'simliklar dunyosi, hayvonot olami bilan tanishtirish, bular haqida saboq berish maqsadi yetakchilik qiladi.

2. Qiziqmachoqlar vositasida bolalarga salomlashish va so‘rashish, ovqatlanish odobi haqida ham o‘git beriladi. Ular orqali yana bolalarga sonlar nomi, sanash harakati o‘rgatiladi. Hayotiy hodisalarning mohiyati, insoniy muomala-munosabatlar, axloq-odob qoidalari tushuntiriladi. Bolalardagi turli kamchiliklarni, ayrim qiliq va illatlarni bartaraf qilishda qiziqmachoqlarning o‘z o‘rni, ta’siri va ahamiyati bor.

3. Qiziqmachoqlarda dehqonchilik ishlarining boshlanish davri, o‘ziga xos tartibda kechishi, unga aloqador yumushlar yoki chorvachilikda chorvani boqish va boshqarish, chordorlar hayoti, cho‘ponlik, cho‘ponlar turmushi haqida ham tushunchalar aks ettirilgan.

4. Qiziqmachoqlar tabiatiga ko‘ra yumorga yo‘g‘rilgan komik mazmunli, hazil ruhidagi, leksik ma’nosini yo‘qotgan so‘qma so‘zlar bilan boshlanadigan kumulyativ, yangi mazmunni an’analar doirasida ifodalashdan kelib chiqadigan kontaminatsiyalashgan, ma’lum bir jonzotga bola tilidan murojaat qilinadigan hukmlagich, yechimi kutilmagan kulgiga asoslanadigan latifa xarakteridagi, tuzilishiga ko‘ra monologik va dialogik qiziqmachoqlarga bo‘linadi.

5. Qiziqmachoqlar komiklik, ya’ni qiziqchilikning ishtirokiga ko‘ra komik mazmunga ega bo‘lmagan va hazil qiziqmachoqlardan iboratdir. Tuzilishi jihatidan aksariyati kattalar bilan bolalarning savol-javobiga asoslanadi. Ularda suhbat shakli muhim o‘rin tutadi. Ko‘pincha katta yoshli ayollar repertuarida kuzatiladi.

6. Aldanmachoq va qaytarmachoqlar qiziqmachoqlarning ichki turlaridandir. Ularda bir voqeadan ikkinchisi o‘sib chiqaveradi. Umumiy bir g‘oya atrofida mantiqan birlashgan har bir voqea alohida epizod tusini olib, muayyan syujetni hosil qiladi. Aldanmachoqlar “Aldattim-o, aldatdim”, qaytarmachoqlar “Yumalandim, yumoq topdim” satri bilan boshlanishi ularga xos muhim belgi bo‘lib, shunisi bilan ular bolalar folkloridagi boshqa an’anaviy janrlardan ajralib turadi va o‘ziga xoslik kasb etadi. Aldanmachoqda bayon qilinayotgan voqealar hayotiy uydirma, yolg‘ondan iboratligi, qaytarmachoqda bir xil mazmundagi savol-javobning takrorlanib (qayta-qayta) kelishi, aytilayotgan fikrga zid fikr

FOR AUTHOR USE ONLY

qaytarish janr mohiyatini belgilaydi. Qaytarmachoqlar she'riy yoki nasriy ko'rinishlarda uchraydi.

FOR AUTHOR USE ONLY

III BOB. QIZIQMACHOQLARNING BADIIY-KOMPOZITSION XUSUSIYATLARI

III.1. Qiziqmachoqlarning asosiy motivlari va obrazlar olami

Qiziqmachoqlarning badiiyati bolalarni suyish va erkalashga qaratilgan boshqa qo‘shiqlar badiiyatidan birmuncha ustunligi seziladi. Shuning uchun ular bolalarni estetik tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Ularda bolalarga ko‘pincha tushunarli an’anaviy obrazlar qo‘llanishi kuzatiladi.

Qiziqmachoqlarda, asosan, bir voqelik ikkinchisiga ulanib borib, fikriy zanjirli bog‘lanishni hosil qiladi. Ularda obrazdan obrazga, fikrdan fikrga ko‘chib borish kuzatiladi.

Qiziqmachoqlar garchi bolalar uchun yaratilgan esa-da, ularda bola obrazidan tashqari kattalar obrazi ham alohida o‘rin tutadi. Shuningdek, qiziqmachoqlarda insonlar, hayvonlar, narsa-hodisalar obrazi ifodalanganligi kuzatiladi. Shu bois qiziqmachoqlarning obrazlar olami rang-baranglik kasb etadi.

Yanga qiziqmachoqlarda eng ko‘p uchraydigan obrazlardan biridir. Ularda yanga obrazi ko‘pincha tanqid qilinishi kuzatiladi. Ayniqsa, qo‘lidan ish kelmaydigan, no‘noq, kaltafahm yangalar fosh etiladi:

Ostonaning oq toshi,
Yangamning qalam qoshi.
Yangamsan-o, yangamsan,
Kiyim bichar bilmaysan,
Kiyimingni ko‘tarib,
Xon oldiga bormaysan.

Qizlar to turmushga chiqquniga qadar ro‘zg‘or ishlarini, ayniqsa, taom tayyorlash, bichish-tikish yumushlarini o‘rganib olmoqlari lozim. Aks holda ular borgan joyida ana shunday malomatga qolib yurishadi.

Apishdiyu, apishdi,
Yangamning oshi pishdi.
Akamga qo‘ygan oshni

FOR AUTHOR USE ONLY

Hakka cho‘qilab qochdi.
Hakkani quva-quva,
Yo‘ldan bir oynak topdim,
Oynakni suvga berdim,
Suv menga baliq berdi,
Baliqni baqqolga berdim,
Baqqol menga tariq berdi.
Tariqni tovuqqa berdim,
Tovuq menga tuxum berdi.
Tuxumni o‘tga ko‘mdim,
Paq etdi-yu, shaq etdi,
Yorildi-ketdi.

Ushbu qiziqmachoqda yanganing ehtiyotsizligi, eriga qo‘ygan ovqatni hakkaning cho‘qilab, uvol qilishi aytilmoqda.

Folklorshunos A.Musaqulov “o‘zbek xalq lirikasidagi yanga ma’lum darajada shomonlikka ishonch izlarini ifoda etuvchi badiiy obrazdir” deb yozadi. Demak, shuning uchun qiziqmachoqda yanganing dushmani sifatida hakka talqin qilinmoqda. Chunki hakka (qarg‘a) ko‘pincha yovuzlik timsoli sifatida aks ettiriladi. Yanga (shomon) esa yovuzlikka qarshi kurashuvchidir. Shu sababli hakka yovuzlik timsoli sifatida o‘z dushmani bo‘lgan yanga (shomon)ni doimo ta’qib etib, unga ozor yetkazish payida bo‘ladi. Ko‘pincha uning o‘ziga emas, yaqinlariga zarar yetkazib turadi. Shu ishonch va tasavvur qiziqmachoqda hakkaning yanga tomonidan eriga qo‘yilgan ovqatni yeb ketishi misolida talqin etilmoqda. Qolaversa, qiziqmachoqning keyingi satrlarida keltirilgan timsollar ham bevosita shomonlik predmetlari ekanligi bilan e’tiborni tortadi. Ma’lumki, oyna, suv, baliq, tariq, tovuq va uning tuxumi shomonlar tomonidan eng ko‘p qo‘llanadigan buyumlardir. Shuning uchun ular yanga obrazi asosida qurilgan qiziqmachoqda tanosib san’ati ko‘rinishida qator keltirilayotganligi bejiz emas.

A.Musaqulov: “Shomonlik, shomon poeziyasi turkiy xalqlar og‘zaki ijodida lirik tur shakllanishi va rivojida muhim tarixiy asoslardan biri bo‘lgan”, – deydi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Darhaqiqat, xoh bolalar, xoh kattalar uchun yaratilgan og‘zaki lirik namunalar bo‘lsin, ularda bevosita shomonlik rudimentlarining badiiy ifodasini kuzatish mumkin. Jumladan, bu bolalar folkloridagi qiziqmachoqlarga ham tegishlidir. Agar yuqoridagi qiziqmachoq bilan “Dunyoda yo‘q hunar” deb nomlanadigan o‘zbek xalq ertagi syujeti qiyoslansa, ularda o‘ziga xos mazmuniy yaqinlik va o‘xshash obrazlar borligi seziladi. Jumladan, bu ertakda bir podshoning qizi turmushga faqat dunyoda yo‘q hunarni biladigan odamga chiqaman, deb shart qo‘yadi. Bu shartni nochorlik tufayli onasi tomonidan bir jodugarga yemish sifatida sotib yuborilgan bir yigitgina bajara oladi. Negaki, bu yigitga jodugarning qizi rahm qilib, unga o‘z qavmi hiylalaridan ham ko‘proq narsalarni o‘rgatadi. Yigit shundan foydalanib, jodugardan qochish uchun kaptarga aylanadi. Jodugar esa uni tutish uchun qarchig‘ay tusiga kiradi. Yigit gulga aylansa, qarchig‘ay ko‘rinishidagi jodugar xushovoz hofizga aylanadi. Yigit tariqqa aylansa, jodugar tovuqqa evriladi. Shunda yigit zudlik bilan shaqalga aylanib, tovuq ko‘rinishidagi jodugarni yeb qo‘yadi va yana o‘z holiga qaytadi.

Ko‘rinyaptiki, qiziqmachoqda ham, ertakda ham qush (hakka yoki qarchig‘ay), tariq, tovuq obrazlari ketma-ketlikda bir xilda ifoda etilmoqda.

Qiziqmachoqlarning bir turi bo‘lgan aldanmachoqlarda ham yanga obrazi keng uchraydi:

Aldatdim-o, aldatdim,
Chakka xalta yalatdim.
Devorchadan oshirib,
Chang‘aloqqa yashirdim.
Hakka cho‘qilab ketdi.
Hakkani quva-quva
Yo‘limdan hassa topdim.
Hassani bekka berdim,
Bek menga qamchi berdi.
Qamchini suvga urdim,
Suv manga baliq berdi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Baliqni yedim, qochdim,
Childirtepadan oshdim.
Childirtepaning toshi –
Yangamning qalam qoshi.
Yangam yasanib chiqdi,
Akam ko‘tarib qochdi.

Ma’lumki, hassa yoki qamchi ham shomonlarning, avliyolarning asosiy ritual predmetlaridan biridir. Hassa ko‘pincha ilohiy qudrat ramzini ifodalasa, qamchi shomonning asosiy tayanchi, ish quroli hisoblanadi.

Ba’zi qiziqmachoqlarda yanga obrazi qadim levirat odati asosida ifoda etilganligi kuzatiladi:

Haqingdan-o, haqingdan,
Ola saqar otingdan.
Etigi keltir kiyaylik,
Chin gumbazga yetaylik.
Chin gumbazi cho‘liydi,
Yangam suvni yaliydi.
Yangam – yamoq, men – chapoq,
O‘rtamizda oshpichoq.
Oshpichoqning kiri yo‘q,
Gapimizning siri yo‘q.
Akamda jon qolmabdi,
Yangamda son qolmabdi.
Jon akamni o‘qitdik,
Yangam zulfin to‘qitdik.
Bobom keldi, huv dedi,
Bir piyola suv dedi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Levirat odatiga ko‘ra, agar oilada aka bevaqt vafot etsa, uning bolalari xor bo‘lmasin deb, yangani qaynisiga nikohlab berganlar. Qiziqmachoqda “jonsiz aka”, “zulfi to‘qilgan yanga”, voqealarga keksa kishi, ya’ni boboning kelib qo‘shilishi,

voqelikning “bir piyola suv” bilan tugashi tushunchalarida, aynan shu odatga ishora borligini sezish qiyin emas.

Qiziqmachoqlarda oqsoqol buva obrazi ham ko‘p uchraydi:

Gul terdim dasta-dasta,
Etakkinamga soldim.
Etakkinam guli bor,
Uchar-uchar qushi bor.
Uchar-uchar qushlari
Uchib ketdi havoga,
Qaytib tushdi daryoga.
Daryo suvi quridi,
Baliqlari churidi.
–Daryo suvin kim quritdi?
–Oqsoqol buva quritdi.
–Baliqlarni kim churitdi?
–Oqsoqol buva churitdi.
Oq soqol buva ichidan
Bir lagan tilla tushdi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Oqsoqol buva mirob timsolini ifodalab kelgan. Qiziqmachoqda suvni sotib, shaxsiy boylik ketidan quvgan oqsoqol – mirob shaxsiga kinoya qilinmoqda. Uning qush misoli ucharligi, g‘alamisligi, xudbinligi fosh etilmoqda.

Qiziqmachoqlarda eng ko‘p uchraydigan shaxs obrazlaridan yana biri xon obrazidir:

Xon oldida nima bor?
Uchar-uchar qushlar bor.
Uchdi-ketdi havoga,
Qaytib tushdi daryoga.
Daryo suvi qurisin,
Baliqlari chirisin.
Hasan-Husan urishdi,

Qizil-qonga bo‘yashdi.

Qizil qonni kim ichdi?

Oqsoqol bobom ichdi.

Qiziqmachoqning dastlabki uch misrasi orqali xonlik tuzumining bor mohiyati fosh etilmoqda. Xonlarning oldiga turmushdan nolib, shikoyat qilib borishning foydasizligi, ularga aytilgan gap xuddi “havoga uchganday” qolib ketishi, xonning o‘zi ham, atrofidagilari ham ucharligi, xalqning dardi bilan ishi yo‘qligi ochib tashlanmoqda.

Qiziqmachoqdagi “Daryo suvi qurisin, Baliqlari chirisin” ifodasi aslida xonlarga qaratilgan qarg‘ishdir. U orqali xonlarning, xonlik tuzumining tub asoslari bilan yo‘q bo‘lib ketishi istagi bildirilmoqda.

Keyingi misradagi “Hasan-Husan urishdi, Qizil-qonga bo‘yashdi, Qizil qonni kim ichdi?” misralari vositasida xonliklar o‘rtasida toj-taxt ilinjida tez-tez yuz berib turgan o‘zaro birodarkushlik urushlariga ishora qilinib, qoralanmoqda.

Xonning qizi turmadi,

Qo‘l-yuzini yuvmadi,

Xonga salom bermadi,

Salom berdik, xon og‘a!

FOR AUTHOR USE ONLY

Ushbu misralar “Tuyalar-a, tuyalar, Uying qayda, tuyalar?” deb boshlanadigan qiziqmachoqning so‘nggi satrlarini tashkil qilgan bo‘lib, u orqali xalqning mehnati evaziga kun kechirgan xon oila a’zolari, ularning beodobligi va andishasizligi, tekintomoqligi fosh etilmoqda.

Bir dasta bo‘yan topdim.

Bo‘yanni xonga berdim,

Xon menga qilich berdi.

Qilichni suvga otdim.

O‘tmishda xalqning topgan-tutganini zolim xonlar o‘z xazinasini boyitish uchun tortib olgan. So‘ngra xalqdan yig‘ib olingan boylik evaziga qo‘shin to‘plab, bosqinchilik urushlarini olib borishgan. Tinch yashayotgan mamlakatlar ustiga yurish qilib, o‘lja orttirishgan. Ana shu tarixiy voqelikka ishora qilayotgan ushbu

she'riy matnning birinchi va ikkinchi misrasi orqali mehnatkash xalqning topgan-tutganini xonga berayotganligi bildirilayotgan bo'lsa, keyingi misralarda esa buning evaziga xon ularga qilich tutqazib, urushga yetaklayotgani aytilmoqda. Ammo sabr-kosasi to'lgan xalq, nihoyat, isyon ko'tarib, xon bergan qilichni "suvga otayotir", ya'ni urushdan bosh tortib, tiniq, osuda hayotga intilayotir.

Ayrim qiziqmachoqlarda mifologik makon hamda mifologik obrazlar tilga olingani kuzatiladi:

Eram boqqa kiraylik.
Eram bog'da pari bor,
Gulnor opa, nari bor.
Pari seni ko'rmasin,
Ko'rib oshiq bo'lmasin.
Oshiq bo'lsa mayliga,
Majnun bo'lsin Layliga.
Tog' boshiga gulxan qur,
Atrofida o'ynab yur.

FOR AUTHOR USE ONLY

Afsona, ertak, dostonlarda Eram bog'i – parilarning makoni sifatida talqin etiladi. Pari obrazi O'rta Osiyo xalqlari mifologiyasida alohida o'rin tutadi. Jumladan, o'zbek xalq afsona, ertak hamda doston matnlarida ham bu obraz ko'p uchraydi. O'zbek folklorida pari obrazi genezisi va poetikasi O.Qayumov tomonidan nomzodlik ishi sifatida alohida maxsus tadqiq qilingan.

Ma'lumki, "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida Gulnor ismli pari nomi tilga olinadi. U Go'ro'g'lining xotinlaridan biri bo'lib, turkumdagi dostonlar qatorida "Gulnor pari" nomli alohida doston ham yaratilgan. Xalqimiz orasida qiziga yaxshi niyatlar bilan shu ismni qo'yganlar ham bor. Ammo aslida xalq parilarga qo'rquv bilan munosabatda bo'ladi. Shuning uchun she'rda ham Gulnor ismli qizga "nari bor, pari seni ko'rmasin va oshiq bo'lmasin" deya murojaat qilinayotir. Chunki kishilar parilarni insonga yo yordam beradi, yo zarar yetkazadi, deb ishonadi. Xalq epik asarlarida ko'pincha pari go'zal qiz ko'rinishida namoyon bo'lib, inson personajga oshiq bo'lib qolishi tasvirlanadi. Agar inson u haqda boshqalarga

gapirmoqchi bo‘lsa, pari uni qattiq jazolaydi. Demak, ana shunday qarashlar bolalar uchun yaratilgan qiziqmachoqlar mazmuniga ham singdirilganini ko‘rsatadi.

Ushbu matnda yana afsonaviy oshiq-ma’shuqlar Layli va Majnun nomiga ham ishora qilinib, talmeh yaratilganligining guvohi bo‘lish mumkin. Bu bilan inson va pari oshiqligidan ko‘ra insonning inson bilan oshiqligi afzalligi ta’kidlanishi ko‘zda tutilgan.

Olma – qiziqmachoqlarda eng ko‘p uchraydigan an’anaviy obrazlardan biri. Masalan:

– Tomda kim bor?

– Nigoraxon bor.

– Nima qilyapti?

– Olma uzyapti.

– Olmasidan bitta tashlasin.

– Onasi urishadi.

– Onasi urishmasin!

Olmasi bevaqt uzilmasin!

FOR AUTHOR USE ONLY

Xalq ijodi namunalarida olmaning ko‘pincha bola, farzand timsoliga tenglashtirilgani kuzatiladi. Yuqoridagi matnda “Olmasi bevaqt uzilmasin” istagi mag‘zida onaning bolasidan bevaqt judo bo‘lmasligi niyati yashirin.

Bu qiziqmachoq bolaga aytilar ekan, u o‘zini beixtiyor balandda, tomda turgandek, tomda turib olma terayotgandek his qiladi va zavqlanib qiqir-qiqir kuladi.

Qiziqmachoqda qadimiy o‘zbek uylari, ularning loysuvoq tomlariga shox tashlab, qizarib pishgan olma mevasi badiiy jonlantirilgan. Qolaversa, bunda mazkur voqelikning tanlanishi ham bejiz emas. Bu yerda “tom” – balandlik belgisi. Aytuvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri “Men seni boshim uzra ko‘tardim” deb qo‘ya qolmasdan, ma’noviy aloqadorlik asosida “baland” so‘zi o‘rnida “tom” leksemasini qo‘llab, qo‘shiqning badiiy ta’sirchanligini oshirgan.

Matnda onaning olma olishga qarshiligi bolalarning “Chuchvara qaynaydi” qo‘shig‘ida chuchvara bermasligi motiviga mazmunan yaqin va hamohang bo‘lib, alohida e’tiborni tortadi. Lekin bunda onaga nisbatan nafrat ifodalanmaydi, aksincha, qo‘shiq olqish, yaxshi istak xarakteridagi misra bilan yakun topadi.

Bu qiziqmachoqninng yana bir varianti borki, unda so‘ralayotgan olmani berishga ona emas, balki aka qarshilik qilishi ta’kidlanadi:

Osmondagi oy,
Bizning Dilbaroy!
– Nima qilyapsan?
– Olma yeyapman.
– Olmangdan ber,
– Akam urishadi.
– Akang o‘lsin,
Xudo saqlasin.
Hovli shipirsin,
Qizlar o‘ynasin.

FOR AUTHOR USE ONLY

Akalar hamisha o‘z singillarining obro‘si va sha’nini qat’iy himoya qilishadi. Matnda mana shunday akalar olqishlanmoqda.

Kun chiqdi, kulcha pishdi,
Olatog‘da olma pishdi.
Qoqdim, qoqdim, bitta tushdi,
Olaqarg‘a olib qochdi.

Bir qaraganda, ushbu qiziqmachoqda kunning kulchaga, har ikkalasining Olatog‘da pishib yotgan olmaga, keyin esa olaqarg‘aga hech bir daxli yo‘qdek tuyuladi. Ammo aslida ular mantiqan bir-biri bilan bog‘liqdir. She’r boshida kun (quyosh) obrazining keltirilayotgani bejiz emas. Chunki quyosh borliqdagi hamma narsaga nur taratib, ularga hayot bag‘ishlaydi. Hatto kulcha pishishiga vosita bo‘luvchi olov ham quyoshning bir parchasi deya qaraladi. Chunki jahon mifologiyasida Prometey quyoshdan olov olib kelgani talqin qilinadi. Shuning uchun she’rning birinchi misrasida kun va kulcha obrazlari shunchaki tovush

jihatidan ohangdoshlik tug‘dirgani sababli emas, ko‘proq ana shu e’tiqodiy qarashga ishora qilgani uchun yonma-yon keltirilayotganini inkor qilish qiyin.

Keyingi misraga Olatog‘ obrazining kelib qo‘shilishi ham bejiz emas. Chunki xalq quyoshning maskanini tog‘ orqasida deya tasavvur qilgan. Shuning uchun uning nuriga yaqin bo‘lgan tog‘ olmalari sirli holatda tasvirlanmoqda. Darhaqiqat, tog‘ olmalari, odatda, bog‘ olmalaridan ta’mi bilan ajralib turishi ma’lum. Ana shunday sirli olmani olib qochgan olaqarg‘a ham sirli. Olma egasi uni har qancha quvmasin, yetolmaydi. Chunki olaqarg‘a ham o‘zga makon vakili. Uning makoni bilan insonlar makonini suv yo‘li ajratib, chegaralab turadi:

Quvdim, quvdim yetolmadim,
Daryo suvidan o‘tolmadim.

Nihoyat, sirli olmani qo‘lga kiritish ilinjida olaqarg‘a iziga tushgan qahramon yo‘lda cho‘ponga duch keladi. Cho‘pon unga tayoq va go‘sht beradi:

Oldimdan bir cho‘pon chiqdi,
Cho‘ponga men tayoq berdim.
Cho‘pon menga go‘sht berdi.

Qahramon cho‘pon bergan go‘shtni momoga berib, evaziga munchoq oladi:

Go‘shtini yetib momoga berdim.
Momom menga munchoq berdi.

Momo bergan munchoqni u o‘zi yoqtirgan qizga beradi. Qiz esa buning evaziga unga moyak, ya’ni tuxum hadya qiladi:

Munchoqni eltib qizga berdim,
Qiz menga moyak berdi.

Qahramon endi tuxumni tandirga soladi. Tandirda tuxum yorilib ketadi. Keyin uni olib o‘choqqa soladi. O‘choqda ham yorilib ketadi:

Moyakni etib tandira soldim, paq etdi,
O‘choqqa soldim, shaq etdi, changi chiqdi.
Yangamning rangi o‘chdi,
Akamga berdim, yemadi.
Yangamga berdim, yemadi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Og‘zimga soldim, yo‘q bo‘ldi.

Qoringinam to‘q bo‘ldi.

Ko‘riyaptiki, cho‘pon ham qiziqmachoqlarda ko‘p tilga olinadigan obrazlardan biridir. Chunki chorvachilik xalqimizning qadimiy mashg‘ulotlaridan biri bo‘lib, cho‘ponlik kasbi bilan ajdodlarimiz azal-azaldan shug‘ullanib kelgan. Chorvachilik dehqonchilikka nisbatan qadimiy hisoblanadi. O‘troq aholi bilan yarim o‘troq aholi orasida turli xildagi chorva xo‘jaligi mavjud bo‘lgan. Chorvador cho‘ponlar, odatda, bahorda qo‘ylar bolalagandan keyin podani tog‘li va adirlardagi yaylovlarga yoki dasht o‘tloqlariga haydab chiqqanlar.

Cho‘ponlik pirli kasb hisoblanadi. Hozirgacha cho‘ponlar o‘zining risolasiga amal qilib, piriga e’tiqod ko‘rsatib keladi. Cho‘ponlarning o‘z irim-sirimlari, e’tiqodiy qarashlari, kasbiga aloqador bilim-tajribalari mavjud. Ayniqsa, ular boqiladigan hayvonlar tabiatini, mol boqiladigan joylarning pastu balandini, yil fasllari bilan bog‘liq cho‘pon taqvimini, o‘z kasbiga aloqador irim-sirimlarni juda yaxshi bilishlari talab etiladi. Cho‘ponlik kasbi ustoz-shogird an’anasi asosida davom ettirilib kelinadi. Odatda, yoshlarga ustoz cho‘ponlar o‘z bilganlarini o‘rgatib borishgan.

FOR AUTHOR USE ONLY

Cho‘ponlar orasida har kim ham cho‘pon sifatida tan olinaverilmaydi. Cho‘pon tayog‘i har kimga ham tutqazilmaydi. Buning uchun, avvalo, xalq ishonchiga kirgan, tajribali, ko‘ngli to‘g‘ri, mehnatsevar bo‘lish lozim. Xalqning sinovidan o‘tgan, cho‘ponlik sirlarini egallaganlargagina xalq o‘z cho‘poni sifatida ishonch bildirib, hurmat ko‘rsatadi.

Cho‘ponlar, ayniqsa, o‘z tayog‘iga nisbatan e’tiqodli va ma’suliyatli bo‘lishadi. Ular o‘z tayog‘ini har kimga beravermaydilar yoki qoldirib ketmaydilar. Yotganlarida yonlarida olib yo boshlarining ostiga qo‘yib yotadilar. Shuning uchun xalq o‘rtasida cho‘pon tayog‘i bilan bog‘liq e’tiqodiy qarashlar, irimlar tizimi shakllangan. Cho‘pon tayog‘i cho‘pon uchun suyanchiq, himoya vositasi, yordamchi hisoblanadi.

Cho‘ponlar tayog‘i, odatda, mevali daraxtlardan olinadi. Bu bilan mollarim ko‘paysin, degan niyat qilinadi. Cho‘ponlar ko‘pincha tog‘larda o‘sadigan

chidamli, baquvvat, mevali irg‘an, do‘lana, tog‘olcha kabi qattiq yog‘ochli daraxlardan o‘zlariga tayoq qilib olishgan. Chunki bu daraxtlardan olingan tayoq osonlikcha yemirilib ketmay, egalariga uzoq yillar xizmat qila olgan. Cho‘pon tayog‘i bilan bog‘liq e’tiqodiy qarashlar xalq maqollarida ham o‘ziga xos shaklda alohida ifoda etilganligi kuzatiladi. Jumladan, ularda “Cho‘ponni tayog‘idan bil, Kelinni oyog‘idan”, “Cho‘ponning tayog‘i – Otlining oyog‘i” deyiladi. Ko‘rinyaptiki, bu xalq maqollarida “cho‘ponning tayog‘i” birikmasiga alohida urg‘u qaratilmoqda. Birinchi maqolda cho‘ponning tayog‘i agar sermeva daraxtdan olinsa hamda cho‘pon o‘z tayog‘iga sodiq, mehnatkash, intiluvchan, fidoyi, epchil va chaqqon bo‘lsa, u boqqan mollar ham ko‘payib ketadi. Aksincha, cho‘pon tayog‘i mevasiz daraxtdan olingan bo‘lsa yoki cho‘pon o‘z ishiga layoqatsizlik qilsa, mollarga qiron keladi, deyilmoqchi. Shuningdek, kelinchak ham kelgan ro‘zg‘orida “qo‘li to‘rt, oyog‘i olti” bo‘lib, yugurib-elib xizmat qilsa, uni gullatib-yashnatadi. Demak, cho‘pondan ham, kelindan ham chaqqonlik, epchillik, fidoiylik, ishga mehr talab qilinadi.

Ikkinchi maqolda cho‘ponning tayog‘i otlining oyog‘i bilan teng keltirilishiga sabab shuki, cho‘pon o‘z kasbi taqozosiga ko‘ra juda ko‘p joylarni kezib chiqadi. O‘z yo‘lida juda ko‘p narsalarni ko‘radi. Ko‘p voqea-hodisalarning guvohi bo‘ladi. Shuning uchun maqollarda u otda sayohatga chiqib dunyo kezgan odamga o‘xshatiladi. Otli uzoq masofani uloqda kezib chiqsa, cho‘pon bu masofani piyoda bosib o‘tadi. Shu ma’noda cho‘pon o‘z tayog‘iga tayanib oyoq bosib o‘tgan masofa otning qattiq tuyoqlari yordamida bosib o‘tadigan masofasiga solishtirilib, ularning charchoq bilmasligiga, chidamliligiga hamda kuch-qudratiga tan beriladi.

Ushbu maqolning boshqa yana bir varianti ham bor. Unda “Cho‘ponning tayog‘i – bozorchining oyog‘i” deyiladi. Bu maqolda cho‘ponning tayog‘i bozorchining oyog‘i bilan qiyoslab keltirilayotgani bejiz emas. Chunki bozorga kirgan odam to bozor hududidan izlaganini topib chiqqunicha oyoqlari toliqib ketadi. Demak, bu maqolda ham cho‘ponning tik oyoq ustida ko‘p yurishiga ishora bor va bunda cho‘pon tayog‘i u uchun madadkorlik, suyanchiqlik qilishi alohida ta’kidlanmoqda.

FOR AUTHOR USE ONLY

Cho‘ponlar tayog‘i ko‘rinishidan hassa (aso)ga o‘xshasa-da, u hassa deyilmaydi. U har doim “cho‘pon tayog‘i” deb yuritiladi. Cho‘pon tayog‘i hashamsiz, uzun xoda yog‘och ko‘rinishida bo‘ladi.

“Guliqahqah” nomli mashhur xalq ertagida cho‘pon tayog‘i obrazi mavjud. Ertakda u oynai jahonnomaga tenglashtirilgan. Ertakda qahramon “qo‘ychivon”ning qo‘y haydaydigan tayog‘ini qo‘lga kiritadi. Bu tayoqda esa oynai jahon bor edi deyiladi. Ertakda “cho‘pon tayog‘ida oynai jahonnoma bor” degan gap aytilishi tasodif emas. Ma’lumki, sehrli ertaklarda oynai jahonnoma dunyoda, tevarak-atrofda yuz berayotgan voqealardan ogoh etuvchi, xabar beruvchi g‘aroyib predmet hisoblanadi. Unga xos ana shu vazifa ertakda cho‘pon tayog‘i obraziga bejiz ko‘chirilmayapti. Chunki cho‘pon tayog‘ini ko‘tarib yuruvchi insonlar ham ko‘p narsani ko‘rib, bilib, eshitib yurishadi. Agar kim ular bilan suhbatda bo‘lsa, ko‘p narsadan ogoh bo‘ladilar. Shuning uchun ertak va dostonlarda qahramonlar biror joy, yo biror narsa haqida ma’lumot zarur bo‘lsa, cho‘ponning oldiga borib, undan maslahat so‘raydilar. Shu o‘rinda “Ur to‘qmoq” ertagining syujetini esga olish kifoya.

FOR AUTHOR USE ONLY

Umuman, ertaklarda cho‘pon obrazi hamma narsadan xabardor, bilimdon kishi qiyofasida gavdalantiriladi. Ko‘pincha epik qahramon yo‘qotgan narsasini topish uchun safarga otlanar ekan, oldidan chiqqan cho‘ponga murojaat qilib, undan yo‘l va maslahat so‘rashi motivi uchraydi. Yuqorida keltirilgan qiziqmachoq matnida ham shunga o‘xshash holatni kuzatish mumkin.

Xalqqa xizmat qilish cho‘ponlarning bosh maqsadidir. Cho‘ponlar boy hayotiy tajribaga ega kishilar sifatida har doim ulug‘lanib kelinadi.

Cho‘pon xalq orasida yaylovning sultoni deya ta’riflanadi. Bu ta’rif xalq maqollariga quyidagicha singdirilgan:

Dehqon – yer sultoni,

Cho‘pon – yaylov sultoni.

Cho‘ponlar yaylovlarda, qir-adirlarda, cho‘llarda mol-hol boqib yurishadi. Ular xalq xizmatidagi kishilar hisoblanadi. Cho‘ponlar o‘z umrini xalq manfaatiga bag‘ishlashadi. Ular yozda issiq demay, qishda sovuq demay, dala-qirda mol

boqishadi. Shuning uchun xalq orasida cho‘ponlarga nisbatan alohida hurmat-etibor shakllangan.

Cho‘pon xalqni go‘sht maxsulotlari bilan ta’minlaydigan kasb sohibidir. Ular xalqqa rizq-ro‘z yetkazadilar. Shuning uchun ham bu kasb sohiblari juda qadrlanadi. Hatto xalq maqollarida yosh avlodni cho‘pon bo‘lishga chorlovchi, da’vat etuvchi maqollar bor.

Kishi yerida sulton bo‘lguncha,
O‘z elingda cho‘pon bo‘l.

Bu maqolda cho‘ponlik kasbi sultonlik, ya’ni shohlikdan ham ustun qo‘yilayotgani ko‘rinib turibdi.

Qadimda cho‘ponlar yulduzlar harakatiga, yulduzlar hisobiga, tabiatda yuz beradigan o‘zgarishlarga qarab chorvani boshqarganlar. Chorvani yaylovga olib chiqib yoyish va uni yaylovdan qaytarib olib kelishda cho‘ponlar bevosita chorva taqvimiga rioya qilishgan. Bu haqda M.Jo‘raev alohida to‘xtalib, qimmatli ma’lumotlarni ilgari surgan.

Xullas, “Chorva hisobi” taqvimi cho‘ponlar hayotida muhim ahamiyatga va o‘ringa ega. U juda qadimiy bo‘lib, to hozirgacha cho‘ponlar hayotida amal qilmoqda.“Chorva hisobi” taqvimi cho‘ponlarga ishni to‘g‘ri tashkil qilishda, chorvani tabiat hodisalardan himoyalashda, uni ko‘paytirishda va boqishda katta yordam beradi.

Cho‘ponlik insoniyat tarixida shakllangan birinchi kasbdir. Shuning uchun folklor janrlarida bu kasbga munosabat alohida o‘rin tutadi. Folklorda birorta janr yo‘qki, unda cho‘pon obrazi keltirilmagan bo‘lsa. Cho‘ponlar hayotiga munosabat o‘zbek folklorining katta-yu kichik deyarli barcha janrlarida kuzatiladi. Ayniqsa, bolalarga bag‘ishlab yaratilgan qo‘shiqlar orasida mol-hol ta’rifida; qo‘y, ot, echki kabilarni boqish sirlari, bu haqdagi o‘gitlar mavzuida yaratilgan qo‘shiqlar alohida diqqatni tortadi. Bu qo‘shiqlar, asosan, bolalarni u yoki bu uy hayvoni bilan tanishtirish, unga xos belgilarni uqtirish maqsadini ko‘zlaydi. Tabiiyki, bu xil qo‘shiqlar chorvador xalq orasida yaratilgan va keng tarqalgan. Cho‘pon obrazi va

FOR AUTHOR USE ONLY

cho‘ponlik hayotiga xos voqeliklar bolalar xalq o‘yinlarida xam o‘ziga xos talqin qilingani kuzatiladi. Chunki kattalar bolalarga o‘yin vositasida hayot voqealarini uqtirib borishgan. Shu ehtiyoj bilan yaratilgan xalq o‘yinlarida cho‘pon va bolalar, poda va podachi obrazlari yonma-yon keltirib tasvirlanadi. Masalan, bunga «Podachi va poda» o‘yinini misol keltirish mumkin.

«Bo‘ri va echkilar», «Qo‘y va bo‘ri», «Cho‘pon va shag‘ol» kabi o‘yinlarda bolalarga podani yirtqich hayvonlardan himoya qilish uchun epchil, chaqqon, uddaburon, qo‘rqmas bo‘lish kerakligi uqtiriladi va buning shartlari asosida ularga maьlum tarbiyaviy taьsir ko‘rsatiladi.

Xullas, cho‘ponlar hayotiga munosabat o‘zbek folklorining maqol, topishmoq, qo‘shiq, afsona va rivoyat, ertak, doston kabi katta-yu kichik janrlarida, hatto bolalar folklori namunalarida, ayniqsa, bolalar qo‘shiqlari va o‘yinlarida kuzatiladi. Cho‘pon obrazi o‘zbek xalq epik asarlarida serqatlamlilik asosida badiiy aks ettirilgani kuzatiladi.

Qiziqmachoqlar, katta lar, xususan, bobo va buvilar tomonidan nevaralariga qarata aytilishi sabab, ularda bobo, buvi (momo) obrazlari ko‘p uchraydi. Jumladan:

Tovug‘im oq tuxum tug‘di,
Bobom urdi – sinmadi,
Bibim urdi – sinmadi.
Sichqon dumi bilan bir urdi – sindi!
Bobom yig‘ladi,
Bibim yig‘ladi.
Tovuq qaqag‘ladi,
Sichqon chiyilladi.

Momo obrazi qatnashgan qiziqmachoqlarda ko‘pincha echki obrazi ham uchraydi:

– Qizim, qaerga borasan?
– Momomnikiga boraman.
– Momong nima beradi?

FOR AUTHOR USE ONLY

– Echki suti beradi.

– Echkisining suti yo‘q,

Ulog‘ining biti yo‘q.

Qiziqmachoqlarda ko‘p uchraydigan obrazlardan yana biri bangi obrazidir. Bangi obrazi qiziqmachoqlarda satirik ruhda talqin qilinadi. Shu orqali bolalarga bangi – yomon odam sifatida tanishtiriladi. Chunki bu bolalarga yoshlikdan bang va uni chekuvchi kishilarga nisbatan nafrat ruhida tarbiyalashga asos bo‘la oladi. Qiziqmachoqlarda bangi hech vaqosiz, hayotda hech narsaga erisha olmagan kishi sifatida tasvirlanadi. Masalan:

Otimning o‘ligini

Ishlab bozorga sotay.

Bangi-bangiga sotay,

Attor rangiga sotay.

Bangining otasi yo‘q,

Belida po‘tasi yo‘q,

Qalpoqda po‘pagi bor,

Attorda ipagi bor.

FOR AUTHOR USE ONLY

Qiziqmachoqlarning eng muhim xususiyatlaridan yana biri shuki, ularda, albatta, bola obrazi ishtirok etadi. Chunki qiziqmachoqlarning asosiy mazmuni bola va uni o‘rab turgan tevarak-atrof bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuni inobatga olib, A.P.Babushkina u haqda: “Bu xalq poeziyasining obrazlari hamma vaqt hayot bilan, bola his-kechinmalari bilan bog‘liqdir”, – deydi.

Dunyo (olam)ning har bir hodisasini anglashdan oldin bolalar ularning o‘ziga bog‘liq tomonlari haqida fikr yuritadi. Shuning uchun bolalar qiziqmachoqlaridagi har bir harakatlanuvchi obraz, avvlo, bola bilan bog‘liq bo‘ladi. Qiziqmachoqlarda bu jihatdan, bolalarga yaqindan tanish bo‘lgan hayvonlar, o‘yinchoqlar, insonlar obrazi gavdalantiriladi.

Qiziqmachoqlarda ko‘pincha totem va kulьt jonivorlar shaxslantirilganligi kuzatiladi. Shuning uchun O.Safarovning qiziqmachoqlarda tasodifiylik muhim o‘rin egallashi to‘g‘risidagi fikriga to‘liq qo‘shilib bo‘lmaydi. Demak,

qiziqmachoqlarda totem va kulьt jonivorlar nomi atay tilga olinadi. Ayniqsa, ularda ot, tuya, it, maymun, g‘oz va hokazo singari obrazlar tasodifan tanlanmagan.

Bolalar yoshligidanoq totem va kulьt sifatida ardoqlanadigan jonivorlar haqida eshitib, ularning nomini yodida saqlashi ko‘zda tutiladi. Qolaversa, bolalar o‘zi bilan hayvon o‘rtasiga chegara qo‘ymaydi. Shu sababli yosh bolalar it, mushuk, qo‘zichoq, uloq, buzoq kabilar bilan o‘ynashni yoqtirishadi. Ularga insonga gapirgandek, bemalol gapirib, murojaat qilishadi. Hayvonlar o‘z gapini tushunmayotganligiga shubha qilmaydi. Aksincha, tushunyapti deb o‘ylaydi. Shuni hisobga olib, kattalar hayvonlar obrazini qiziqmachoqlarda ko‘proq qo‘llashadi va hayvonlar xatti-harakati orqali insonlarda uchrab turadigan ayrim kamchiliklarni ochib tashlaydilar. Masalan:

Savusqon kelib sarq etdi,
Sarqitin ichib ul ketdi , – baytida befarosatlik,

Qir akam qola berdi,
Qirmochini yeya berdi, –

misralarida ochko‘zlik illatlari qoralanayotir. Xususan, keyingi misra orqali xalq orasida tarqalgan “Qirmoch yeydigan bolaning to‘yida yog‘ingarchilik bo‘lishi” irimi eslatilmoqda.

Qiziqmachoqlarda turli hayvon va jonivorlar, qushlar va parrandalar obrazi ko‘p uchraydi. Qurbaqa, eshak, echki, qo‘y, it, tovuq, xo‘roz, bit kabilar qiziqmachoqlarda faol qo‘llanadigan obrazlardir. Ko‘pincha ular haqida bolalarga ma’lumot berish ko‘zda tutiladi.

Vaq, vaq, qurbaqa,
Nimaga boshing bunaqa?
Man urushga borganman,
Temir shapka kiyganman,
O‘shanichun shunaqa!

FOR AUTHOR USE ONLY

Keltirilgan qiziqmachoq orqali bolalar e'tibori qurbaqaga xos asosiy belgilar: "vaq-vaq" qilib ovoz chiqarishi, boshi pachoq ko'rinishda bo'lishiga qaratilmoqda. Unga xos boshi pachoqlik belgisi qiziqchilik, hazil tariqasida ifoda etilmoqda. Go'yo qurbaqa urushga borgan va o'qdan boshini himoyalash maqsadida kaska, ya'ni "temir shapka" kiygani uchun shu ahvolga tushib qolgan. Bu ifoda, o'z navbatida, bolalar qalbida urushga nisbatan nafrat uyg'otishga xizmat qiladi.

Shunisi ham borki, bu qiziqmachoq ba'zan boshida qusuri bor bolalarga tegishib, ustidan ermaklab ham aytiladi. Yana u ko'p gapiradigan, vaysaqi yoxud beshikka noto'g'ri yoki ko'p belanishi oqibatida boshi qiyshiq bo'lib qolgan bolalarga qaratiladi.

Eshakka qaratilgan qiziqmachoq axmoqlikni, echki o'yinqaroqlik, o'ta sho'xlik, beboshlikni, qo'y o'ta yuvoshlikni, it qopag'onlikni, tovuq kaltafahmlikni, xo'roz gerdaymachoqlikni, bit yoki chumchuq zararkunandalikni fosh etishda timsoliy mohiyat kasb etadi.

Chumchuq juvari ni yeb ketdi,
Ertaga kelaman deb ketdi.
Kelmay o'lgur ko'r chumchuq,
Uyimni vayron etdi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Bu qiziqmachoqda chumchuqlarning dehqonchilikka yetkazadigan zararidan bolalar ogoh qilinmoqda.

– Tuya-tuya, tuz qayda?
Boldir, qo'yning boshida.
Eshib keldi emishga,
Qo'ynim to'ldi yemishga.
Yemishim yerga to'kildi,
Yavshonini berdi.
Yavshonni qora sigirga berdim,
Qora sigir sutin berdi.
Sutini kubalikka berdim,
Ko'pigini ichib ketdi.

Bu qiziqmachoqda “Tuya – sigir – kapalak” tarzida obrazdan obrazga ko‘chish holati e’tiborni tortadi. Bunda ushbu obrazlarning kattadan kichikka tomon rivojlantirilgani diqqatni tortadi.

Qiziqmachoqlarda ba’zan fikr ham shunday tarzda ifoda etilganligi kuzatiladi:

Non yopdi o‘choq-o‘choq.
Elga berdi elakday,
Kelinga berdi keliday,
Menga berdi tirnoqday.
Otib urdim eshikka,
Manlayim tegdi teshikka.

Qiziqmachoqdagi voqelik ko‘rimli. Unda tasvirlanishiga qaraganda, elakday nondan tirnoqday ulushga ega bo‘lgan bola arazlab, qo‘lidagi nonni eshikka qarab otib yubormoqda. Holbuki, xalq orasida non bilan bog‘liq tabu va irimlar bor. Ularga, asosan, nonni beqadr qilgan og‘ir jazolanishi uqtiriladi. Shuning uchun o‘z rizqini (nonini) eshikka otib yuborgani uchun manglayi teshikka tekkan lirik qahramonning afsus-nadomati ifoda etilayotir.

Ayrim qiziqmachoqlarda buning teskarisini ham kuzatish mumkin. Unda, aksincha, kichik ko‘rinishdagi narsa yoxud jonivor obrazi katta ko‘rinishdagi shunday obrazdan keyin keltiriladi.

Qiziqmachoqlarda hayvonlar ba’zan insonlarning ishini bajarayotganligi tasvirlanadi. Masalan, mushuk ko‘ylak tikishi mumkin, it esa qorovullik qiladi.

Xulosa qilib aytganda, qiziqmachoqlarning obrazlar olami rang-barang. Ularda insonlar (yanga, oqsoqol buva, momo, bola, cho‘pon, dehqon, xon, bangi singari), jonzotlar (tuya, bo‘ri, eshak, echki, uloq, it, mushuk, buzoq, qo‘zichoq, quyon, qarg‘a, laylak, bit kabi), narsa-hodisalarning obrazi alohida o‘rin tutadi va ular o‘ziga xos badiiy-estetik vazifa bajarib keladi. Qiziqmachoqlarda, asosan, obrazdan obrazga, fikrdan fikrga ko‘chib borilishi unga xos muhim janriy belgilardan biri hisoblanadi.

FOR AUTHOR USE ONLY

III.2. Qiziqmachoqlarning lingvopoetik xususiyatlari

Qiziqmachoqlar kattalarning bolalar bilan so‘z o‘yini qilishiga o‘xshab ketadi. Ularda so‘zga e’tibor kuchli. Shuning uchun qiziqmachoqlarning badiiy til xususiyatlariga alohida e’tibor qaratish talab etiladi.

Qiziqmachoqlarning asosiy vazifasi bolalarga zavq, ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishlashdan iborat. Ayniqsa, ularning bolalarga yuksak ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishlashiga tarkibida qo‘llangan badiiy tasvir vositalari xizmat ko‘rsatadi. Jumladan, qiziqmachoqlarda ramz, jonlantirish, o‘xshatish, tazod, epitet, alliteratsiya, anafora singari badiiy-tasvir vositalari muhim badiiy vazifa bajarib kelishi kuzatiladi.

Qiziqmachoqlar bolalarning yosh xususiyatlarini, qiziqish doirasini inobatga olib yaratilishi ularning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Aytaylik, yosh bolalar turli tovushlarni, so‘z takrorlarini yoqtiradilar. To‘g‘ri, kichik yoshdagi bolalar so‘zlarning ma’nolarini hali chuqur tushunavermaydilar, ularning lug‘at boyligi ham kam bo‘ladi. Shunday bo‘lsa-da, kattalar qiziqmachoqlar yaratganda ohangdorlikni kuchaytirish uchun turli (lug‘aviy ma’noga ega va ega bo‘lmagan) so‘z takrorlaridan unumli foydalanganliklari kuzatiladi. Aytaylik, “Laqashiqaldoq” qiziqmachog‘ida aynan shu so‘zning o‘zidan leksik takror sifatida foydalanilgan va u orqali qiziqmachoqning biror shaqildoqli ovozga ega o‘yinchoq jo‘rligida yoki qo‘l barmoqlarini shaqillatib turish yordamida ijro qilinishi bildirilmoqda.

FOR AUTHOR USE ONLY

Demak, qiziqmachoqlarning shaqildoqlar jo‘rligida ijro qilinishi bolalarda musiqiy ko‘nikmalarning shakllanishiga hamda ularning musiqiy asboblar haqidagi tasavvurlari paydo bo‘lishiga yordam ko‘rsatadi.

Yantog‘ingning yog‘i yo‘q,
Laqashiqaldoq.
Odamingning sog‘i yo‘q,
Laqashiqaldoq,
Shavla yemay o‘layin,
Laqashiqaldoq.

Bu misralarda bolalar turmush tarziga xos hayotiy voqea tasvirlangan. Ma'lumki, yosh bolalarga yog'sizroq yengil hazmi taom sifatida shavla, bo'tqa ko'p yegiziladi. Lekin bolalar shavla va bo'tqani ko'p yeganligidan me'dasiga tegib, uni yoqtirmaydigan bo'lishadi. Shuning uchun qiziqmachoqda bolaga yoqimsiz tuyilgan bu ovqat turlarini "yomonlash" xush yoqib, zavqini oshirishi, tabiiiy.

Qiziqmachoqlar kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallanganligi bois ko'proq sodda, tushunarli tilda yaratilganligi kuzatiladi. Shunday bo'lsa-da, ayrim qiziqmachoqlarda an'anaviy poetik ramzlar ham uchraydi va o'ziga xos badiiy vazifa bajarib kelishi kuzatiladi:

Qizil olma tishladim,
Samarqandda qishladim.

Xalq qo'shiqlarida qizil olma timsoli ko'pincha sevgi ramzini ifodalab kelishi ma'lum. Jumladan, bu misralarda ham u shu ma'noda talqin qilinib, sevganiga erishgan va uning yurtidan qo'nim topgan yor timsolini gavdalantirmoqda. Aslida lirik mazmun va lirik talqinga ega bu kabi misralar yosh bolalar uchun kuylanadigan qiziqmachoqlarga xos emas. Qolaversa, kichkintoylar hali bunday gaplarni tushunmaydi. Shunday esa-da, ba'zi qiziqmachoqlar tarkibiga bunday murakkab tushunchalar kiritilavergan. Bunga qiziqmachoqlarning kattalar tomonidan yaratilishi sabab bo'lgan, deyish mumkin. Garchi bola bunda qizil olmani ramziy-timsoliy ma'noda anglamasa-da, uni real qabul qila olishi inobatga olinadi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Umuman aytganda, lingvopoetik vositalar qiziqmachoqlarning ta'sirchanligini ta'minlashda ayricha ahamiyat kasb etadi. Bu jihatdan tazod ham qiziqmachoqlarda eng ko'p qo'llanadigan tasvir vositalaridan biridir:

Katta-katta baliqlar,
Bola bosib yotibdi.
Kichik-kichik baliqlar,
Kindik kesib yotibdi.
Zochak degan yer yutkur,

Yupqa yozib yuribdi.

Zochak qizaloqlar sevib o‘ynaydigan o‘yinchoqlardan biridir. Ammo xalq orasida zochak bilan bog‘liq turli qarashlar vositasida ayrim urf-odatlar, irimlar shakllangan. Jumladan, etnograf A.L.Troitskaya Toshkentning ayrim joylarida marhumning kafani ichiga qo‘g‘irchoq (zochak)ni hamroh sifatida qo‘shib ko‘mish odati bo‘lganligi haqida ma’lumot beradi. Uning ta’kidlashicha, marhumni yuvish vaqtida agar uning tanasi juda nimjon, yumshoq bo‘lsa, o‘lgan kishi yordamchi-hamrohga muhtoj, deb yoniga qo‘g‘irchoq qo‘shib ko‘milgan. Folklorshunos D.O‘raevaning fikricha, bu odatning kelib chiqish asosi bevosita marhumning narigi dunyoga safarida unga hamroh, yo‘ldosh belgilash masalasi bilan bog‘liq. Bunda qo‘g‘irchoq – marhumning yoniga qo‘shib ko‘milgan tirik inson yo‘ldoshning o‘rnini egallagan ramziy belgidir.

Xullas, qo‘g‘irchoqning motam marosimi bilan aloqadorligi sabab qiziqmachoqda uning “yupqa yozib yurganligi” ta’kidlanmoqda. Chunki yupqa motam marosimida pishiriladigan ritual yegulikdir.

Xalq orasida Ajinaning zochak ko‘rinishida namoyon bo‘lishiga ishonch mavjudligi bois qiziqmachoqda unga qarata qarg‘ish aytilayotir. Yana bu bilan bolaga oldidan chiqqan har qanday o‘yinchoqni olib o‘ynab ketavermasligi tayinlanayotir, u ogohlikka da’vat qilinayotir.

Bitta maymuncha kezar.
Maymunchani hurkitdim,
Quloq burnin turg‘izdim.
“Mah-mah” desam kelmadi.
Chigit bersam yemadi.
Chigit qozonda qaynar.

Maymunlar, haqiqatan ham, chigit yemaydi. Chigitni mol yeydi. Bu bilan har bir hayvonning o‘z yeydigan ozig‘i bo‘lishi bildiriladi hamda to‘g‘ri kelgan narsani yeb ketavermaslik lozimligi shu yo‘l bilan bolalarga uqtiriladi. Mollarga chigit ko‘pincha qaynatib yegiziladi. Chigit yegan mol tez semirgan. Chunki chigit yoqqa boy bo‘ladi. Chigit yegan sigirning suti yog‘li va quyuq bo‘ladi. Bu voqelik bilan,

FOR AUTHOR USE ONLY

ehtimol, yana bir voqeaga – kambag‘al aholining non topmaganda chigit qaynatib yeganligiga ham ishora qilinayotgan bo‘lishi mumkin. Bunday motivlar bolalarga oziq-ovqatning, ayniqsa, nonning qadriga yetish lozimligini uqtirishga yordam beradi.

Qiziqmachoqlarda burga qo‘shiq aytishi, qarg‘a raqs tushishi mumkin. Albatta, bunda majozdan hamda jonlantirish san’atidan foydalaniladi. Masalan, quyidagi qiziqmachoqda burganing xatti-harakati insonlardek tasvirlangan. U mitti bo‘lishiga qaramay, o‘zidan katta insonning tizzasiga tepib, olti oyga to‘shakka mixlab qo‘ymoqda:

Burgam-burgamdan botir,
Burgam choponda yotir.
Choponni suvga bossam,
Ko‘zi miltirab yotir.
Burgam tepdi tizimga,
Olti oyda keldim o‘zimga.

Ushbu qiziqmachoqdagi o‘ziga xos mubolag‘aviylik unga yumoristik ruh bag‘ishlamoqda. Unda mubolag‘a kuchaygandan kuchayib boradi:

Burgamni egarladim.
Astagina sudralib,
Qo‘limdan qocha qoldi.
Burgamni ko‘rgan bormi,
Burgamni bilgan bormi.
– Amudaryo qarshisida,
Surxondaryo berisida.
O‘tini o‘tlab yuribdi,
Suvini suvlab yuribdi...
Borib asta ushladim,
Chakkasiga mush(t)ladim.
Yetmish botmon tuz ortdim,
Oltmish botmon muz ortdim.

FOR AUTHOR USE ONLY

Tuzini tuzchiga berdim,
Muzini muzchiga berdim,
Burgamga xaridor keldi,
To‘qqiz tangaga sota qoldim.

Kichkinagina burgani egarlash, yana uning chakkasiga mushtlab, ustiga yetmish botmon tuzu oltmish botmon muz ortish mubolag‘adan boshqa narsa emas. Bunday mubolag‘aviylik bolalarda lofni anglash va undan hayotda foydalanish tuyg‘usini ham hosil qila borgan. “Jon burgam, azamat burgam” deb boshlanuvchi qiziqmachoqda mubolag‘a bundan-da kuchaytirilganligi kuzatiladi:

Jon burgam, azamat burgam,
Men burgamni yo‘qotdim,
Eski chopondan topdim.
Burgam burgonda yotur,
Eski choponda yotur.
Choponni suvga solsam,
Ko‘zi miltillab yotur.
Burgamni bu yoqqa oldim,
Qassobni aytib keldim,
Burgamni so‘yib qo‘ydim,
Oltmish chorak yog‘ qildi,
Yetmish chorak go‘sht qildi,
Xotinlarni aytib keldim,
Yog‘ini eritib oldim.
Epchil-epchil xotinlar
O‘n qadoqdan yog‘ oldi,
Shaltoq-shaltoq xotinlar,
Yog‘idan quruq qoldi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Shu qiziqmachoqning yana bir boshqa variantida go‘shti go‘shtchiga, terisi charmgarga berilgan burgadan charmgar va chorakor ellikta erkaklarning, qirqta

ayollarning, o‘n beshta bolalarning oyoq kiyimini bichib-tikib, tayyorlab berishi aytiladi:

Charmgar bichib berdi,
Chorakor tikib berdi.
Ellikta mardona bo‘ldi,
Qirqta zaifona bo‘ldi,
O‘n beshta bachagona bo‘ldi.
Jon burgam, azamat burgam,
Burgaginamni so‘ydilar.

Quyidagi misralarda mubolag‘a va alliteratsiya (bir xil tovushlar takrori) asosida ko‘p xotinlilik illati qoralanmoqda:

Uchramay ketsin uch xotin,
Uchovi uch musht urdi.
To‘ramay tursin to‘rt xotin,
To‘rttasi to‘rt musht urdi.
To‘rt oy yotdim to‘shakda.

FOR AUTHOR USE ONLY

Umuman aytganda, mubolag‘a qiziqmachoqlarda eng ko‘p qo‘llanadigan badiiy tasvir vositalaridan biridir. Chunki u orqali bola qalbi beg‘ubor kulgiga to‘ldiriladi:

Daryo suvi quridi,
Baliqlari churidi.
– Baliqlarni kim yuvdi?
– Fotma degan qiz yuvdi.
– Daryo suvin kim ichdi?
– Oqqina kuchukcha ichdi.

Kichkina kuchukchaning butun boshli daryo suvini ichishi aql bovar qilmaydigan hodisa sifatida hayrat va taajjub orqali beg‘araz kulguning kelib chiqishiga asos bo‘ladi.

Qiziqmachoqlarda sintaktik parallelizmlar (bir xil so‘z birikmalari, sodda gaplar yoki bog‘lovchisiz bog‘langan qo‘shma gaplar takrori) muhim o‘rin tutadi. Shu orqali ularda betakror ritmik ohangdorlik hosil bo‘ladi:

Toqqa chiqaylik-e,
Toqqa chiqaylik.
Chodir quraylik-e,
Chodir quraylik.
Chodirlarning ichida
Sharbat ichaylik-e,
Sharbat ichaylik.

Bu qiziqmachoqda bir voqelik ikkinchisiga ulanib borib, fikriy zanjirli bog‘lanishni hosil qilmoqda. Unda obrazdan obrazga, fikrdan fikrga ko‘chib borilmoqda. Bu esa sintaktik birliklarning mos keltirilishi orqali amalga oshirilmoqda. Shuningdek, misralarning takror holda keltirilayotgani ohangdorlikni kuchaytirish barobarida takrir san’atini, matn misralari boshida bir xilda takrorlanib kelayotgan so‘zlar esa anafora san’atini hosil qilgani alohida e’tiborni tortadi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Qiziqmachoqlarda takror va juft so‘zlardan ko‘p foydalanganligi kuzatiladi. Masalan:

Oqsaroyning nesi bor?
Uchar-uchar qushi bor.
Uchdi-ketdi havoga,
Bordi-tushdi daryoga.

Umuman aytganda, alliteratsiya (bir xil tovushlar takrori), anafora (bir so‘zlarning misralar boshida o‘zaro takrorlan ib kelishi) kabi poetik san’atlar qiziqmachoqlarda o‘ta faolligi bilan e’tiborni tortadi:

Kun chiqdi, kunon chiqdi,
Kunning ko‘pagi chiqdi.
Yoki:
Yangam suvni yaliydi.

Yangam – yamoq, men – chapoq.

Qiziqmachoqlardan olingan quyidagi parchada tarse' san'ati, ya'ni misralardagi har bir so'zning o'zaro qofiyadoshlik hosil qilib kelgani kuzatiladi:

Oshpichoqning kiri yo'q,
Gapimizning siri yo'q.
Akamda jon qolmabdi,
Yangamda son qolmabdi.

Qiziqmachoqlarda ritorik so'roq vositasida tajohuli orifona sa'ati yuzaga keltiriladi:

Ana o'sha tog'midi?
Tog' yoqasi bog'midi?
Bog' yonida uymidi?
Uy atrofi gulmidi?
O'sha gullar ichinda
Gulnozxonim bormidi?

FOR AUTHOR USE ONLY

Bu misralarda qofiyaviy ohangdoshlikni ta'minlab kelayotgan ma'lum bir so'z bir misrani yakunlab, keyingi satrni boshlab berayotgani e'tiborni tortadi. Shu asosda she'riy matnda qoliplanuvchi kompozitsiya yuzaga keltirilgan. Natijada misra tugagan joyda yangisi boshlanib, o'ziga xos zanjirsimon bog'lanish hosil bo'lgan.

Qiziqmachoqlarda erkalovchi va kichraytiruvchi qo'shimchalar ko'p uchraydi. Shuning uchun ba'zan ular erkalama matnlari bilan adashtirib yuboriladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq bolalar qiziqmachoqlarida ohangdorlikni kuchaytirish uchun turli (lug'aviy ma'noga ega va ega bo'lmagan) so'z takrorlaridan, ramz, jonlantirish, o'xshatish, mubolag'a, tazod, epitet, alliteratsiya, anafora, parallelizm singari qator badiiy-tasvir va ifoda vositalaridan keng foydalanilganligi kuzatiladi. Ular kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallanganligi bois ko'pincha sodda va tushunarli tilda yaratiladi.

III.3. Qiziqmachoqlarning band qurilishi, vazni va qofiyalanish

tizimi

Qiziqmachoqlarning asosiy vazifasi bolalarga zavq, ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishlashdan iborat bo‘lganligi bois bu vazifa yechimiga ko‘pincha uning ohangdor qofiya tizimi, yengil barmoq vazni, alliteratsiya va anaforalarga boyligi keng yo‘l ochadi.

Qiziqmachoqlarning misralari soni qatordan qatorgacha bo‘ladi. Ularda unisidan bunisiga ko‘chib yuruvchi misralar ham uchraydi. Masalan, “Ha lo‘tti, lo‘tti, lo‘tti” deb boshlanadigan qiziqmachoqda uchraydigan quyidagi misralarga:

Gangur-gungur na bo‘ldi,
Xotin olmoqchi bo‘ldi.
Xotinining kuchi yo‘q,
Barmog‘ining uchi yo‘q.
Kashta tikar qizi yo‘q,
Oshiq o‘ynar o‘g‘li yo‘q, –

o‘xshash satrlarga “Olatoy, bulatoy” deb boshlanuvchi qiziqmachoq matni tarkibida ham duch kelish mumkin:

Bangi ketarmon bo‘pti,
Xotin olarmon bo‘pti.
Xotinining kuchi yo‘q,
Chochvog‘ining uchi yo‘q,
Kashta tikar qizi yo‘q,
Oshiq o‘ynar o‘g‘li yo‘q.

Umuman aytganda, aksariyat hollarda qiziqmachoqlarning “Olatoy-bulatoy”, “Eshakkinamni so‘ydilar”, “Kun chiqdi, kulcha pishdi”, “Apishdi-yu apishdi”, “Tuya-tuya, tuz qayda?”, “G‘oz-g‘ozim bor, g‘oz-g‘oz”, “Ola tog‘ning boshida ne ko‘rding?”, “Burgam-burgamdan botir”, “Jon burgam, jonon burgam”, “Kun, san nimadan kuchlisan?”, “Undan uchdi bedana”, “Tomga sepdim sedana”, “Bedana mastdir, bedana”, “Osmondagi yulduzlar”, “Tulkicha”, “Dilon, dilon”, “Gildir-

FOR AUTHOR USE ONLY

gildir tosh", "Ola toy, yo'rg'ala, toy", "Haqqu-haqqu bilaguzuk", "Ostonaning oq toshi" va hokazo singari an'anaviy misralar bilan boshlanishi kuzatiladi.

Kun chiqdi, kulcha pishdi.
Momoning oshi pishdi.
Buvamga qo'ygan oshni
Qarg'alar cho'qib qochdi.
Qarg'aga kesak otdim,
Qarg'a menga par berdi.
Parni attorga berdim,
Attor menga ipak berdi.
Ipakni qizga berdim,
Qiz menga qalpoq berdi.
Qalpoqni bekka berdim,
Bek menga qamchi berdi.
Qamchini yerga urdim,
Yer menga shuvoq berdi.
Shuvoqni qo'yga berdim,
Qo'y menga qo'zi berdi.
Qo'zining baqbaqasi
Nonu nasiba berdi.
Bu rizqimga ko'nmadim,
Umrimda ham tinmadim.

FOR AUTHOR USE ONLY

"Kun chiqdi, kulcha pishdi" misrasi bilan boshlangan ushbu qiziqmachoqda kun – kulcha, momo – buva, qarg'a – osh, qarg'a – kesak, par – attor, attor – ipak, ipak – qiz, qiz – qalpoq, qalpoq – bek, bek – qamchi, qamchi – yer, yer – shuvoq – qo'y, qo'y – qo'zi, qo'zi – rizq-nasiba, rizq – umr obrazlari juftligida fikr rivojlantirib borilgan. Uning "kun", ya'ni quyosh so'zi bilan boshlanib "umr" so'zi bilan tugashida ham o'ziga xos ma'no mujassam. Bu bilan inson umrini quyoshday nurli, hammaga manfaat beradigan alfozda o'tkazishi zarurligi uqtirilgan.

Qiziqmachoqlar hajman ikkiga bo‘linadi: a) bir epizodli, kichik hajmli qiziqmachoqlar; b) bir necha epizodli uzun hajmli qiziqmachoqlar.

Qiziqmachoqlarning ko‘pchiligi bir necha epizoddan iborat uzun she’rlardir. Shunday bo‘lsa-da, ular bolalar xotirasida saqlanib qolaveradi.

Uzun hajmli qiziqmachoqlarning band qurilishini aniqlash qiyin. Buni faqat ularning qofiyalanishiga qarab belgilab ko‘rsatsa bo‘ladi. Bunday qiziqmachoqlar, odatda, masnaviy – ikkilik xarakterida qofiyalanib, mazmunan bog‘lanib keladi. Masalan:

Otamdan o‘tsammikan? – a
Men borib tutsammikan? – a
Otam sotayin, dedi, – a
Pulga botayin, dedi. – a
Bechoraning puli yo‘q, – a
Yolbormoqqa yo‘li yo‘q, – a
Yuragi gul tilaydi, – a
Aytmoqqa dil tilaydi. – a
Munday hali yurt qursin, – a
Yoshi kattasi chirisin. – a
Yomonni o‘ldirmaydi, – a
Yaxshini bildirmaydi. – a
Paxta to‘ni tarpayib, – a
Oq soqoli sarpayib, – a
Belga ro‘mol chirmaydi, – a
Menga ko‘zi qiymaydi. – a

FOR AUTHOR USE ONLY

Ko‘rinadiki, qiziqmachoqlarda qofiyaning o‘ziga xos o‘rni bor. Ularda ko‘pincha juft qofiyalarning ishlatilishi, ichki qofiyalarning uchrashi kuzatiladi. Ko‘pincha ularda masnaviy (ikkilik) qofiyadan foydalanilgani kuzatiladi, lekin u doimiy saqlanmay, qofiyaning boshqa ko‘rinishlariga ham o‘rin bergan:

Shaytonchilik – yolg‘onchilik, – a
Dehqonchilik – qoraqonchilik. – a

Urush-janjal – olomonchilik, – a
El-yurtga vayronchilik! – a
Dona soldim elakka, – b
Sichqon chiqdi talakka. – b
Pishik iziga tushdi. – v
Urib xo‘p-xo‘p hurkizdi! – v
Qovun pishdi uzdilar, – g
Sayl etdilar – kezdilar. – g
Hamma qovun tashidi, – d
Yozi bilan uxlagan, – ye
Kal kallani qashidi! – d

Fikrimizcha, qiziqmachoqlarda bir voqelik ikkinchisiga ulanib borishi, tuzilishi jihatidan ko‘pincha dialogga asoslanishi unda ikkilik qofiya ko‘proq o‘rin tutishiga olib kelgan.

Ayrim qiziqmachoqlarda bir so‘zning birdaniga ikki misra boshida anafora bo‘lib qofiyalanib kelishi kuzatiladi:

Tong otdi-yu, kun botdi,
Tog‘am ayvonda yotdi.
Tog‘am olgan xotini
Tilla beshik tebratdi.
Tilla beshik ichida
Oppoq bo‘bak bor edi.
Oppoq bo‘bak qo‘lida
Chinni kosa bor edi.
Chinni kosa ichida
Qizil olma bor edi.
Qizil olma taram-taram,
Tor ko‘zaga tushibdi,
Tor ko‘zaga siz bir qarang,
Qizim olib ketibdi.

FOR AUTHOR USE ONLY

– Qizim, qaerga borasan?

– Momomnikiga boraman.

– Momong nima beradi?

– Echki suti beradi.

– Echkisining suti yo‘q.

Xuddi shunday holatni quyidagi qiziqmachoq misolida ham kuzatish mumkin:

Oq jiydali yigitda.
Oq o‘tovi bor emish.
Oq o‘tovning ichida
Oy kelinchak bor emish.
Oy kelinchak oldida
Tilla beshik bor emish.
Tilla beshik ichida
Oy chaqaloq bor emish.
Oy chaqaloq qo‘lida
Chinni piyola bor emish.
Chinni piyola ichida
Naqsh olmalar bor emish,
Naqsh olmani bir tishlang,
Makkaga borib bir kishnang.
Makka yo‘li uzoqdur,
Ichgan suvim buloqdir.
Icha-icha mast bo‘ldim,
Qizlar bilan do‘st bo‘ldim.
Qizlar ketdi qir oshib,
Bizlar qoldik adashib.

FOR AUTHOR USE ONLY

Qiziqmachoqlarda qofiyaviy ohangdoshlikni ta’minlab kelayotgan har bir so‘z keyingi satrni boshlab berib, qoliplanuvchi kompozitsiyani yuzaga keltirishi ham mumkin. Adabiyot nazariyasida birinchi misra oxiridagi so‘zning keyingi

misra boshida qaytarilishi “radd ul aro‘z il-al ibtido” deb yuritiladi. Natijada misra tugagan joyda yangisi boshlanib, o‘ziga xos zanjirsimon bog‘lanish hosil qilinadi. Qiziqmachoqlarda shunday qaytariqlar ko‘p uchraydi. Masalan:

Shodmon yalaqini
Quvlab-quvlab ketyapsam,
Yo‘ldan qamchin topib oldim.
Qamchini akamga berdim,
Akam menga ro‘mol berdi,
Ro‘molni qizga berdim.
Qiz menga don berdi.
Donni tovuqqa berdim,
Tovuq menga tuxum berdi.
Tuxumni o‘choqqa ko‘mdim,
Taq etdi, paq etdi,
Ikki ko‘zim boqib qoldi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Aksariyat qiziqmachoqlar, masalan, “Shodmon yalaqi”, “Apishdiyu apishdi”, Kun chiqdi, kulcha pishdi”, “Osh pishdi-yu, osh pishdi”, “Yo‘ldan topdim bir qamchi”, “Tomdan tarasha tushdi” kabilarda o‘choqqa ko‘milgan tuxumning paq, taq yoki shaq etib yorilishi ifoda etiladi.

Qiziqmachoqlarning band qurilishida dialog alohida o‘rin tutadi. Bu jihatdan “Kun bilan bola”, “Shamol bilan bola” kabi dialog asosiga qurilgan qiziqmachoqlarni yodga olish mumkin.

Qiziqmachoqlar barmoq va erkin vaznlarda yaratilganligi kuzatiladi.

2 2 3 =7
Yomon kunning / qo‘lidan
2 2 3 =7
Qayg‘u-g‘amning / mo‘lidan
2 2 3 =7
Hasan-Husan / urushdi,
2 2 3 =7

Qizil qonga / bo‘yashdi.

2 2 1 2 =7

Qizil qonni / kim ichar?

3 3 2 =8

Oqqina / gurjilar ichar.

3 3 2 =8

Oqqina / gurjilar ichib,

2 3 2 =7

Borib / tog‘larga qochar.

3 2 2 =7

Tog‘larni / tuman bosar,

4 1 2 =7

Puldorlarni / g‘am bosar.

3 1 3 =7

Ustiga / zo‘r kelganda,

3 2 2 =7

O‘zini / dorga osar.

FOR AUTHOR USE ONLY

Yuqorida misol keltirilgan qiziqmachoq 7 hijoli barmoq vaznida yaratilgan. Undagi boshlang‘ich misralar 4+3, o‘rta misralar 8 hijoli bo‘lib 3+5, so‘nggi misralar esa 3+4 ko‘rinishida turoqlangan.

Xulosa qilib aytganda, qiziqmachoqlar o‘ziga xos uzun, lekin ixcham va sodda tuzilishi, ohangdor qofiya tizimi, yengil barmoq vazni, alliteratsiya va anaforalarga boyligi bilan ajralib turadi.

Uchinchi bob yuzasidan xulosalar

1. Qiziqmachoqlar badiiyati bolalarni suyish va erkalashga mo‘ljallangan boshqa qo‘shiqlar badiiyatidan qolishmaydi, hatto birmuncha mukammalligi bilan ajralib turadi. Ularda bolalarga yaqin va tushunarli, an’anaviy obrazlar qo‘llanadi. Voqelikning biri ikkinchisiga ulanib borib, fikriy zanjirli bog‘lanishni hosil qiladi.

Obrazdan obrazga, fikrdan fikrga ko‘chib boriladi. Shu tariqa ularning hajmi uzayib ketadi.

2. Qiziqmachoqlarning obrazlar olami boy va rang-barangdir. Ularda bola obrazidan tashqari kattalar obrazi ham alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, yanga qiziqmachoqlarda eng ko‘p uchraydigan obrazlardan biridir. Ularda yanga obrazi ko‘pincha tanqid qilinadi. Hakka (qarg‘a) yanganing doimiy dushmani sifatida talqin qilinadi. Bunda hakka yovuzlik, yanga esa shomon – yovuzlikka qarshi kurashuvchi timsolida keltiriladi. Ba’zi qiziqmachoqlarda yanga obrazi qadim levirat odati asosida ifoda etilgan.

3. Qiziqmachoqlarning obrazlari qatorida insonlar (yanga, aka, oqsoqol buva, momo, bola, qiz, cho‘pon, dehqon, xon, bangi, Hasan-Husan, Shodmon yaloqi, singari), jonzotlar (tuya, bo‘ri, eshak, qo‘y, echki, uloq, it, mushuk, buzoq, qo‘zichoq, quyon, bit, baliq kabi), qush va parrandalar (qarg‘a, laylak, bedana, xo‘roz, tovuq, jo‘ja), osmon yoritgichlari (quyosh, oy, yulduzlar), tabiat hodisalari (shamol, qor, yomg‘ir, bulut, tuman), narsa-hodisalar (qamchi, qilich, pichoq, o‘choq, tuxum, piyola, beshik, munchoq kabi), daraxt, o‘simlik va mevalar (tol, jiyda, qizil olma, qizil gul), mifologik makon (Eram bog‘i, Olatog‘), mifologik obrazlar (pari, Ajina, Yalmog‘iz) va hokazolarning obrazi alohida o‘rin tutadi va ular o‘ziga xos badiiy-estetik vazifa bajarib keladi.

FOR AUTHOR USE ONLY

4. Qiziqmachoqlar kichik yoshdagi bolalarga mo‘ljallanganligi bois ko‘proq sodda va tushunarli tilda yaratilgan. Shunday bo‘lsa-da, ularda turli lingvopoetik vositalar, ya’ni ramz, jonlantirish, o‘xshatish, tazod, epitet, alliteratsiya, anafora, tarse’, tajohuli orifona, parallelizm singari qator badiiy san’atlarning alohida o‘rni bor. Ular qiziqmachoqlarning badiiy-estetik ta’sirchanligini oshirishda muhim poetik vazifa bajarib keladi. Xususan, o‘ziga xos mubolag‘aviylik qiziqmachoqlarga zavqli yumoristik ruh bag‘ishlaydi.

5. Qiziqmachoqlarda unisidan bunisiga ko‘chib yuruvchi misralar ko‘p uchraydi. An’anaviy misralar bilan boshlanishi kuzatiladi. Ko‘pchiligi bir necha epizoddan iborat uzun she’rlardir. Shunday bo‘lsa-da, ular bolalar xotirasida saqlanib qolaveradi. Uzun hajmli qiziqmachoqlarning band qurilishini aniqlash

qiyin. Buni faqat ularning qofiyalanishiga qarab belgilab ko‘rsatsa bo‘ladi. Ular, odatda, masnaviy – ikkilik xarakterida qofiyalanib, mazmunan bog‘lanib keladi. Ayrim qiziqmachoqlarda bir so‘zning birdaniga ikki misra boshida anafora bo‘lib qofiyalanib kelishi kuzatiladi yoki bir so‘z keyingi satrni boshlab berib, qoliplanuvchi kompozitsiyani yuzaga keltirishi kuzatiladi. Natijada misra tugagan joyda yangisi boshlanib, o‘ziga xos zanjirsimon bog‘lanish hosil bo‘ladi.

6. Qiziqmachoqlarning band qurilishida dialog alohida o‘rin tutadi. Ular, odatda, barmoq va erkin vaznlarda yaratilganligi kuzatiladi. O‘ziga xos uzun, lekin ixcham va sodda tuzilishi, ohangdor qofiya tizimi, yengil barmoq vazni, alliteratsiya va anaforalarga boyligi qiziqmachoqlarga xos badiiy-kompozitsion xususiyatlarni namoyon etadi.

FOR AUTHOR USE ONLY

XULOSA

1. Qiziqmachoqlar o‘zbek bolalar folklorining an’anaviy, mustaqil she’riy janrlaridan biri sifatida xalq qo‘shiqchiligiga xos barcha poetik xususiyatlarni o‘zida yorqin namoyon etadi. O‘zbek folklori janrlari orasida uning alohida o‘rni bor. Og‘zaki she’riy shakllardan biri bo‘lgan qiziqmachoqlar xalq qo‘shiqchiligining janriy jihatdan tadrijiy taraqqiyotini o‘rganishda muhim manbalardan biridir.

2. Qiziqmachoqlar o‘ziga xos janriy tabiatga, poetik shaklga, ichki mavzuiy tiplarga, obrazlar tizimi, motivlar tizmasi va ifoda-tasvir uslubiga egaligi jihatidan alohidalik kasb etadi. Qiziqmachoqlar muayyan janriy belgilari, badiiy-kompozitsion xususiyatlari, lingvopoetik unsurlari, band qurilishi, vazn va qofiyalanish tizimidagi o‘ziga xosliklar orqali yaxlit poetik tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

3. Qiziqmachoqlar kattalar tomonidan bolalarga atab yaratilgan yumoristik ruhdagi qo‘shiqlar sifatida bolalar folklori bilan kattalar folklorining genetik aloqadorligini to‘g‘ri baholashga yo‘l ochadi. Ularning vujudga kelishida xalq qiziqchiligi repertuari muhim zamin bo‘lgani sezilib turadi. Shuning uchun qiziqmachoq janri namunalarini yozib olib, maxsus tadqiq qilish nafaqat o‘zbek bolalar folklori janrlarining mukammal tasnifini yaratishda, balki ularning kattalar folklori bilan bog‘liqligini asoslashda, folklor an’analari bilan aloqador poetik qonuniyatlarning bolalar qo‘shiqchiligida namoyon bo‘lishini, qiziqmachoqlarning yuzaga kelishiga xalq qiziqchiligining ta’sirini isbotlashda, shuningdek, sanama, tegishmachoq, tez aytish, guldur-gup kabi qator bolalar ijodkorligi namunalarining o‘zaro bog‘liqlikda taraqqiy topganini dalillashda muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Qiziqmachoqlar kattalar tomonidan bolalarga aytiladi. Ular kattalar tomonidan ikki maqsadda, birinchidan, bolalarni hayot hodisalariga, yashashga qiziqtirish, hayotiy munosabatlarni o‘rgatish maqsadida, ikkinchidan, bolalarni qiziqtirib o‘ynatish maqsadida yaratiladi va ijro qilinadi. Birinchi maqsaddagi qiziqmachoqlarda hazil-mutoyiba ishtirok etmaydi, ikkinchisida esa ko‘p hollarda yumorga yoki satiraga yo‘g‘rilgan ifodalar, tasvirlar uchraydi.

FOR AUTHOR USE ONLY

5. Qiziqmachoqlarda, asosan, bolalarga yaqin va tushunarli an'anaviy obrazlar qo'llanishi kuzatiladi. Ularda fantastik obrazlilik, mubolag'aviylik qatorida voqeabandlik muhim o'rin tutadi.

6. Qiziqmachoqlar bola uchun beshik davri tugab, uning o'yin faoliyati kuchaya borganda ijro qilina boshlaydi. Qiziqmachoqlar bolani o'z yaqinlari hamda uni o'rab turgan muhit, tevarak-atrof, maishiy turmush, hayvonot olami, o'simliklar dunyosi bilan tanishtirishda, tashqi olam bilan munosabatga kirishishga tayorlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan qiziqmachoqlar bir necha mavzuiy tiplarga bo'linadi. Uning har bir turi muayyan badiiy-estetik vazifalarini bajaradi.

7. Qiziqmachoqlar kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallanganligi bois ko'proq sodda va tushunarli tilda, ixcham shaklda, o'ynoqi ohangda yaratilgan bo'ladi. Ularda kulgili voqealar va vaziyatlar bayon etiladi. Shuning uchun qiziqmachoqlarda hazil-mutoyiba, yumor muhim janriy xususiyatlardan biri ekanligi kuzatiladi.

8. Xalq pedagogikasida bolani qiziqtirish, uning qiziquvchanligini oshirish, har bir hodisaga qiziqish bilan qarashini ta'minlashga azaldan katta e'tibor qaratilgan. Shuning uchun bu borada hatto alohida xalq qo'shiqlari – qiziqmachoqlar poetik tizimi vujudga kelgan. Mana shu sababli qiziqmachoqlarda ham ta'limiy, ham tarbiyaviy maqsad estetik tarbiya yo'nalishida bolalar ongiga yetkazilishi kuzatiladi. Qiziqmachoqlar xalq pedagogikasining tarkibiy qismi sifatida o'ziga xos ma'naviy-badiiy taraqqiyot bosqichini bosib o'tgan. Ularni o'rganish orqali xalq og'zaki ijodida uchraydigan an'anaviy bolalar qo'shiqlarining turlarini aniqlash bilan birga, bolalar folklorining o'ziga xos poetik taraqqiyotini ham chuqurroq bilib olish mumkin bo'ladi.

9. Qiziqmachoqlarning yaratilishiga ijtimoiiy-hayotiy omillar asos bo'lgan. Mifologik tasavvurlar va xalq qiziqchiligiga xos belgilar qiziqmachoqlarda o'ziga xos badiiy talqin topgan. Qiziqmachoqlarda xalq og'zaki ijodining an'anaviy syujet, motiv va obrazlardan foydalanishdagi mahorati kuzatiladi.

FOR AUTHOR USE ONLY

10. Qiziqmachoqlar o‘ziga xos poetik-kompozitsion xususiyatlarga va badiiy-estetik vazifalarga ega. Lingvopoetik ifoda va tasvir vositalarining qiziqmachoqlar g‘oyaviy-badiiy qimmatini oshirishdagi ahamiyati katta. Shuningdek, qiziqmachoqlarning band qurilishi, vazni va qofiyalanish tizimi, obrazlar va motivlar tarkibi alohida e’tiborni tortadi.

FOR AUTHOR USE ONLY

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Siyosiy adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. – T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2016. – 56 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi.–Toshkent, 2017 yil, 16 yanvarь.–B. 4.

3. Mirziyoev Sh.M. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. Prezident Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi. – “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi. – 2017 yil, 4 avgust. – №32 (4431). – B.1-4.

FOR AUTHOR USE ONLY

II. Alohida nashrlar, monografiyalar, darsliklar:

4. Avezov S. Sanama janri tabiati va badiiyati. – T.: Fan, 2008. – 144 b.

5. Alaviya M. O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari. – T.: Fan, 1974. – 222 b.

6. Anikin V.P. Russkie narodnыe poslovitsы, pogovorki, zagadki i detskiy folklor. – M.: Uchpedgiz, 1957. – 240 s.

7. Antonova Ye.V., Chvыгь L.A. Tadjikskie vesennie igrы i obryadы i indo-iranskaya mifologiya // Folklor i istoricheskaya etnografiya. – M.: Nauka, 1983. – S.22-42 .

8. Bolalar bog‘chasida axloqiy tarbiya. – T.: O‘qituvchi, 1979. – 303 b.

9. Borovkov A.K. Igrы uzbekskix detey. Sbornik nauchnogo krujka pri Vostochnom fakulьtete SAGU. Vыp.1. – T., 1928. – S.31-42.

10. Vinogradov G. Detskaya satiricheskaya lirika. – “Sibirskaya jivaya starina”. – Vыp. III-IV. – Irkutsk, 1925. – S.84-92.

11. Vinogradov G. Detskiy folklor i byt. Programma nablyudeniy. Vыpusk III. Irkutsk, 1925. – S. 50-71.

12. Vinogradov G.S. Narodnaya pedagogika. Izd. Vostochno-Sibirskogo Otdela Russkogo Geograficheskogo Obщestva, 1927. – S.27-31.

13. Galiev Sh. O‘zbek bolalar o‘yin folklori. – T.: Fan, 1998. – 96 b.

14. Divaev A. Igrы kirgizskix detey // Turkestanskiy sbornik. T.440. – Toshkent, 1900. – S.33-36.

15. Yoqubbekova M. O‘zbek xalq qo‘shiqlarida o‘xshatish. – T.: Fan, 2003. – 96 b.

16. Yoqubbekova M. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari. – T.: Fan, 2005.

17. Jabborov I. Jahon xalqlari etnografiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1985. –278 b.

18. Jahongirov G‘. O‘zbek bolalar folklori. – T.: O‘qituvchi, 1975. – 102 b.

19. Jumanazarov U., Ergashev A., Jumanazarova D. Xalq pedagogikasi va qadriyatlari. – Jizzax, 2007. – B.3-29.

20. Jo‘raev M. O‘zbek xalq ertaklarida «sehrli raqamlar». – T.: Fan, 1991. – 152 b.

21. Jo‘raev M. O‘zbek xalq taqvimi va mifologik afsonalar. – T.: Fan, 1994. – 107 b.

22. Jo‘raev M., Shomusarov Sh. O‘zbek mifologiyasi va arab folklori. – T.: Fan, 2001. – 136 b.

23. Jo‘raev M., Xudoyqulova L. Marosimnoma. O‘zbek xalqining urf-odat va marosimlari haqida qisqacha ma’lumotnoma. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. –

24. Jo‘raev M. O‘zbek mavsumiy marosim folklori. –T.: Fan, 2008. – 252 b.

25. Jo‘raev M. Folklorshunoslik asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: Fan, 2010. – 190 b.

FOR AUTHOR USE ONLY

26. Jo‘raev M., Rasulova M. Mif, marosim va ertak. – T.: Mumtoz so‘z, 2014. – 308 b.

27. Jo‘raeva M. O‘zbek folklorida topishmoq. – T.: Fan, 2011. – 112 b.

28. Zarifov H. O‘zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari bo‘yicha tekshirishlar // Po‘lkan shoir. O‘zbek xalq ijodi bo‘yicha tadqiqotlar. 4-kitob. – T.: «Fan», 1976. – B.65-99.

29. Zelenin D. Totemы – derevьya v skazaniyax i obryadax yevropeyskix narodov. – M.-L., 1937. – 77 s.

30. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. Darslik. – T.: O‘qituvchi, 1990, – 304 b.

31. Imomov K. O‘zbek xalq nasri poetikasi. – T.: Fan, 1981. – 192 b.

32. Isenbet N. Uennar turыnda // Neniler shatlana. – Kazan, 1967. – B.20.

33. Ishoqov Yo. So‘z san’ati so‘zligi. –T.: Zarqalam, 2006. – B.58.

34. Yo‘ldosheva S. Xalq urf-odat va an’analari.–T.: Ijod dunyosi, 2003.– 84 b.

35. Kapitsa I.O. Detskiy folklor. – Leningrad, 1928. – S.108-117.

36. Kapitsa O.I. Detskiy folklor: pesni, poteshki, draznilki, skazki, igrы. – L., 1928. – 222 s.

37. Kapitsa F.S., Kolyadich T. – M.: Russkiy detskiy folklor. Uchebnoe posobie dlya studentov vuzov. – M.: Flinta: Nauka, 2002. – 316 s.

38. Kasen A. Kыrgizskie igrы i razvlechenie. – Bishkek: izdatelьstva «Ilim», 2004. – 95 s.

39. Kogan G.D. Karakalpakskie narodnыe detskie igrы. – T., 1969. – 202 s.

40. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. 3 jildlik, 1-jild. – T.: Fan, 1960. – 452 b.

41. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. 3-jild. – T.: Fan, 1963. – 462 b.

42. Kurochkin A.V. Rastitelьnaya simvolika kalendarnoy obryadnosti ukraintsev //Obryadы i obryadovыy folklor. – M.: Nauka, 1982. – S.158-159.

FOR AUTHOR USE ONLY

43. Madaev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi. Akademik litseylar uchun darslik. – T.: Sharq, 2003. – 208 b.

44. Maksetov K.M. Obraz pastuxa v karakalpakskom epose // Folklor, literatura i istoriya vostoka. – T.: Fan, 1984. – S.291-293.

45. Martьnova A.N. Detskiy folklor. Poeticheskie janrы // Detskiy poeticheskiy folklor: Antologiya. / Sost. A.N.Martьnova. – Spb., 1997. – 304 s.

46. Martьnova A.N. Xudojestvennыy mir rebenka // Poteshki, schitalki, nebылitsa. – M., 1989. – 194 s.

47. Melьnikov M.N. Russkiy detskiy folьkor Sibiri. – Novosibirsk, 1970. – 218 s.

48. Melьnikov M.N. Russkiy detskiy folklor. – M.: Prosveщenie, 1987. – 240 s.

49. Mirzaev T. “Alpomish” dostonining o‘zbek variantlari. – T.: Fan, 1968. – 172 b.

50. Mirzaeva S. O‘zbek xalq afsun-duolarining janr xususiyatlari va badiiyati. –T.: Istiqlol, 2006. – 96 b.

51. Mudrostь narodnaya: Jiznь cheloveka v russkom folklore. Vыp.1. Mladenchestvo. Detstvo. Sost., podgot. tekstov. Vstup. st. i komment. V.P.Anikina. – M., 1991. – 198 s.

52. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi. – T.: Fan, 2010. – 308 b.

53. Nalivkin V., Nalivkina M. Ocherk bыta jenщinы osedlogo tuzemnogo naseleniya Fergany. – Kazanь, 1886. – 246 s.

54. Naumenko G.M. Narodnaya mudrostь i znaniya o rebyonke. – M., 1999. – 168 s.

55. Naumenko G.M. Narodnoe detskoe poeticheskoe tvorchestvo. – M., 2001. – 174 s.

56. Naumenko G.M. Russkie narodnыe detskie pesni s napevami. – M., 1998. – 164 s.

57. Nesalis D., Sharapov V. Tema smerti v detskix igrax: opыt etnograficheskogo analiza (po materialam traditsionnoy kulьturы Komi) // Smertь

FOR AUTHOR USE ONLY

kak fenomen kulьturы: Mejvuzovskiy sbornik nauchnыx trudov. – Sыktыvkar, 1994. – S.67-71.

58. Nesterov S.P. Konь v kulьtax tyurkoyazыchnыx plemen Sentralьnoy Azii v epoxu srednevekovьya. – Novosibirsk: Nauka, 1990. – 143 s.

59. Omurzakov D., Musin Yu. Kirgizskie narodnыe: igrы. Frunze, 1973.– S.103.

60. Petrov V.M., Grishina G.N., Korotkova L.D. Osennie prazdniki, igrы i zabavы dlya detey. – M., 1998. – 98 s.

61. Pешerova Ye.M. Nekotorыe igrы sredi osedlogo naseleniya Turkestana. Otd. Ottisk iz «Byulletenь SAGU». Vыp. №11. – T., 1925. – S.82-98.

62. Pешerova Ye.M. Igrushki i detskie igrы u tadjikov i uzbekov. (Po materialam 1924-1935 gg.) // Sbornik Muzeya antropologii i etnografii. Institut etnografii im. Mikluxo-Maklay AnSSSR. T.XVII. – M.-L, 1957. – S.22-94.

63. Pomerantseva E.V. Detskiy folklor // Russkoe narodnoe tvorchestvo. – M., 1966. – S.135-142.

64. Potapov L.P. Volьk v starinnыx narodnыx poverьyax i primetax uzbekov. // Kratkie soobщeniya Instituta etnografii. Vыp. XXX. – M., 1958. – S.137-143.

65. Propp V.Ya. Morfologiya skazki. – M.: Nauka, 1969. – S.168.

66. Propp V.Ya. Istoricheskie korni volshebnoy skazki. – M.: Nauka, 1986. – 366 s.

67. Raz, dva, tri, chetыre, pyatь, mы idyom s toboy igratь // Russkiy detskiy igrovoy folklor / Sost. M.Yu.Novitskaya, G.M.Naumenko. – M., 1998.–46 s.

68. Razzoqov H. Mirzaev T., Sobirov O., Imomov K. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. Darslik. – T.: O‘qituvchi, 1980. – 346 b.

69. Rasulova Z. Taroq // Jo‘raev M., Rasulova Z. Mif, marosim va ertak. – T.: Mumtoz so‘z, 2014. – B.241-244.

70. Rebyonok otkrыvaet mir. – M.: Prosveщenie, 1991. – S.173-178.

FOR AUTHOR USE ONLY

71. Russkiy detskiy folklor Karelii. / Sost., avt. vstup. statьi. Komment. S.M. Loyter. – Petrozavodsk, 1991. – 144 s.

72. Russkoe narodnoe poeticheskoe tvorchestvo. Ucheb. posobie. Izdanie vtoroe. Pod. red. A.M.Novikovoy. – M., 1978. – 148 s.

73. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. – T.: Fan, 1086. – 216 b.

74. Safarov O.Bolalarni erkalovchi o‘zbek xalq qo‘shiqlari. – T.: Fan, 1983. – 88 b.

75. Safarov O. Bolalar folklori. / O‘zbek folklori ocherklari. Uch tomlik. I tom. – T.: Fan, 1988. – B.272-284.

76. Safarov O. O‘zbek bolalar poetik folklori. – T.: O‘qituvchi, 1985.–250 b.

77. Safarov O. O‘zbek bolalar adabiyoti va folklori. – Buxoro, 2007.

78. Safarov O. O`zbek xalq og`zaki ijodi. – T.: Musiqachi, 2010. – 368 b.

79. Safarova N. O‘zbek bolalar o‘yin folklori tabiati.–T.: Fan, 2008.–120 b.

80. Smirnova Ya.S. Detskie i svadebnыe sыklы obыchaev i obryadov u narodov Severnogo Kavkaza // Kavkazskiy etnograficheskiy sbornik. VI. – M.: Nauka, 1976. – S.47-99.

81. Solihova M. G‘ozieva S. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun xalq o‘yinlari. – T.: O‘qituvchi, 1970. – 68 b.

82. Soltangereeva R.E., Soleymenov E.M. Bashkort xalыk yola o‘yindarы. OFE, 1997. – 120 b.

83. Taylor E.B. Detskie igrы // Pervobытnaya kulьtura. – M.: Politizdat, 1989. – 573 s.

84. Tatar xalqыnыn balalar folklorы. – Kazanь, 1941. – B.169-179.

85. Timofeeva Ye.A. Podvijnыe igrы s detьmi mladshego doshkolьnogo vozrasta. – M.: Prosveщenie, 1986. – 90 s.

86. Tokarev S.A. Rannie formы religii. – M.: Politizdat, 1990. – 470 s.

87. Turdimov Sh. Etnos va epos. – T.: O‘zbekiston, 2012. – 96 b.

FOR AUTHOR USE ONLY

88. Usmonxo‘jaev T., Meliev H. Milliy harakatli o‘yinlar. – T.: O‘qituvchi, 2000. – 192 b.

89. Fayzullaev M.B., Rozikova N.N., Fayzullaev O.M. Pribautki. // Detskiy folklor. – Buxara, 2009. – 148 s.

90. Xolmirzaev O. Adabiyot darslarida xalq og‘zaki ijodi. Usuliy qo‘llanma. – Namangan, 2001. – B.45-49.

91. Xudoyqulova L. Surxon vohasi to‘y marosimi folkloridagi lokal xususiyatlar // O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 4-kitob. – T.: Fan, 2011. – B.62-70.

92. Sheyn P.V. Sbornik narodnыx detskix pesen, igr i zagadok. Sost. A.E.Gruzinskiy po materialam Sheyna. – M., 1998. – 68 s.

93. Shermuhamadov B. Nazmi xalqii bachagonai tochik.–Dushanbe, 1973. – 110 s.

94. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – T.: O‘qituvchi, 1980. – B.76.

95. Shobat Ye.Yu. Jivoe detskoe slovo. – M.: Novaya Moskva, 1925. – 32 s.

96. Egamov X. Sovet sharqi turkiy xalqlari ertakchilik an’analari aloqalari tarixidan ocherklar. – T.: O‘qituvchi, 1982. – 290 b.

97. Eshonqulov J. Folklor. Obraz va talqin. – Qarshi, 1999. – 170 b.

98. Eshonqul J. Epik tafakkur tadriji. – T.: Fan, 2006. – 122 b.

99. Yag‘farov Reshit. Shig‘riyat chishmelere. – Kazan: Tatarstan kitap neshriyatы, 1985. – 158 b.

100. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 tomlik. 1-5-tomlar. – T., 2005. – 716 b.

101. O‘raeva D. Bolalar folklorining jozibali dunyosi / Oxunjon Safarov. Ijodiy portret. – T.: Muharrir, 2010. – B.52.

102. O‘raeva D. Semurg‘ qo‘nar davlatmandning boshiga. Taniqli folklorshunos olim, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, filologiya fanfari doktori,

FOR AUTHOR USE ONLY

profesor Mamatqul Jo‘raev ijodiy portretiga chizgilar. – T.: Turon zamin ziyo, 2017. – B.163.

103. O‘raeva D. Kinna aytimlarining poetikasiga doir // O‘zbek folklorshunosligi. 2-kitob. Ilmiy maqolalar to‘plami. – T.: Fan, 2010. – B.118-123.

104. Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. – T.: Sharq, 1998. – B.83.

105. Qilichev T. Xorazm xalq teatri. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988. – 124 b.

106. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva Sh. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2010. – 400 b.

107. G‘afurov H. Xalq o‘yinlari, qo‘shiqlari va an’analariga bir nazar. – T., 1992. – 100 b.

III. Gazeta va jurnallardagi maqolalar:

108. Avdeeva Ye.A. Iz vospominaniy. – «Otechestvennыe zapiski». T.63. – 1849. – №3. – S.240-246.

109. Vasilьev A. Igrы sartovskix detey. – Turkestanskie vedomosti. – 1909. – № 109.

110. Jo‘raev M. Bo‘ri haqidagi qadimgi turkiy miflar va o‘zbek folklori. – Adabiyot gulshani. – T., 1998. – B.8-17.

111. Musaqulov A. Xalq qo‘shiqlarida ot inonchining badiiy ifodasi. – O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1994. – № 4-5-6. – B.66-71.

112. Rasulova Z. O‘zbek xalq sehrli ertaklarida soch motivi. – O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2009. – №3. – B.51-57.

113. Rahmonov B. O‘zbek folklori an’anaviy janrlarining hozirgi ahvoli haqida. – O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent. – 2003. – 5-son. – B.55-58.

114. Safarov O. Chandishlar. – O‘zbek tili va adabiyoti. – 1983. – 4-son. – B.42-46.

115. Ustinenko V.I. Mesto i rolь igrovogo folklora v kulьture. – Filosofskie nauki. – 1980. – №2. – S.71.

FOR AUTHOR USE ONLY

116. O‘raeva D. Xalq qo‘shiqlaridagi bir obraz haqida. – O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent. – 2015. – № 1. – B. 80-85.

117. O‘raeva D., Nazarov S. Cho‘pon tayog‘iga aloqador e’tiqodiy qarashlarning badiiy talqini // Filologiya va usuliyot masalalari. Ilmiy-usuliy maqolalar to‘plami. I qism. – T.: Fan, 2008. – B.66-68.

IY. Dissertatsiya va avtoreferatlar:

118. Avezov S. Sanama janri tabiati va badiiyati: Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – T., 2004. – 24 b.

119. Amonov U.S. XX asr boshlarida o‘zbek folklorining o‘rganilish tarixi (Abdurauf Fitrat, G‘ozi Olim Yunusov va Elbek faoliyati misolida): Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – T., 2018. – B.87.

120. Axmedova O. O‘zbek folklorining ommaviy axborot vositalarida yoritilishi va talqini tamoyillari: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – T., 2011. – B.14.

121. Bobojonov Y. Janubiy Xorazm etnografik leksikasi: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – T., 1997. – 23 b.

122. Jo‘raev M. O‘zbek xalq samoviy afsonalarining tarixiy asoslari: Filol. fan. d-ri .... diss. avtoref. –T., 1996. – B.17.

123. Rasulova Z. O‘zbek xalq sehrli ertaklarida “g‘aroyib buyum”lar (spetsifikasi, genezisi va badiiyati): Filol. fan. nomz....diss. avtoref. – T., 2012. – B.10.

124. Rahmatov Y.G‘. Tarixiy dostonlarda tarixiy shaxs obrazining epik talqini (“Oychinor” va “Shayboniyxon” dostonlari misolida): Filol. fan. nomz....diss. – T., 2008. – 139 b.

125. Ro‘zieva M.Yo. O‘zbek xalq qo‘shiqlarida rang simvolikasi: Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – T., 2017. – 81 b.

126. Ro‘zmetov H. Xorazm bolalar folklori: Filol. fan. nomz. ... diss. – T., 2005. – 17 b.

FOR AUTHOR USE ONLY

127. Safarova N.O. O‘zbek bolalar o‘yin folklorining janriy tabiati, genezisi va badiiy xususiyatlari. – Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – T., 2004. – 23 b.

128. Tilavov A. O‘zbek xalq dostonlaridagi ot obrazining tarixiy asoslari va badiiy talqini: – Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – T., 2000. – 23 b.

129. Qurbonova N. O‘zbek bolalar marosim folklori: Filol. fanlari nomz... diss. avtoref. – T., 1994.

Y. Badiiy adabiyotlar:

130. Alla, alla, oppog‘im. Nashrga tayyorlovchi M.Yoqubbekova. – T., 2002. – 28 b.

131. Alla-yo alla. To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi O.Safarov. – T.: O‘qituvchi, 1999. – 160 b.

132. Alpomish. O‘zbek xalq qahramonlik dostoni. – T.: Sharq, 1998. – 400 b.

133. Asotirlar va rivoyatlar. To‘plab nashrga tayyorlovchilar: M.Murodov, M.Shayxova. – T.: Yosh gvardiya, 1990. – 128 b.

134. Baldar folkloru. «El adabiyatы» seriyasыnыn 20-tomu. Tuzgen jana bash ozun jazgan G. Orozova. – Bishkek: «Sham», 1998. – 480 b.

135. Boychechak. O‘zbek xalq ijodi. Ko‘p tomlik. Bolalar folklori. Mehnat qo‘shiqlari. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchilar: Oxunjon Safarov va Kamol Ochilov. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1984. – B. 46-57.

136. Bolalar folklorы. Jo‘ep tozuche N.Isenbet. – Kazan, 1984. – 488 b.

137. Bolalar qo‘shiqlari. – Toshkent, 1936. – B.16-21.

138. Malika ayyor: Dostonlar. Aytuvchi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li; yozib oluvchi M.Ernazar o‘g‘li. O‘XI. Ko‘p tomlik. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988. – 336 b.

139. Namangan xalq og‘zaki badiiy ijodi namunalari. To‘alovchilar va nashrga tayyorlovchilar: T.G‘oziboev, A.Sobirov. So‘zboshi muallifi A.Sobirov. – Namangan, 1993. – 112 b.

FOR AUTHOR USE ONLY

140. Oy oldida bir yulduz: O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari. To‘plab, nashrga tayyorlovchi, kirish so‘zi va izohlar muallifi – filologiya fanlari doktori M.Jo‘raev. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000. – 160 b.

141. Oychinor. // Oysuluv. O‘zbek xalq ijodi. Ko‘p tomlik. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1984. – B.24-129.

142. Sarchashmadan tomgan injular. To‘plab, nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi: L.Xudoyqulova. – T.: Fan, 2007. – B. 38-75.

143. Topishmoqlar. O‘zbek xalq ijodi. Ko‘p tomlik. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi Z.Husainova. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1981. – B.47-58.

144. Xorazm xazinasi. To‘plovchi Sobir Ehson Turk, nashrga tayyorlovchi Komil Nurjonov. – Urganch: “Xorazm” nashriyoti, 1996. – 178 b.

145. Chittigul. To‘plab, nashrga tayyorlovchilar: Yo‘ldosh Sultonov, Nasimxon Rahmonov, Shomirza Turdimov. – T.: O‘qituvchi, 1992. – 96 b.

146. El suyarim, alla. O‘zbek xalq allalari. To‘plab, nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi O.Safarov. – T.: O‘zbekiston, 2009. – 96 b.

147. O‘zbek bolalar xalq o‘yinlari. To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi O.Safarov. – T.: F.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2011. – 176 b.

148. O‘taev Q. Chavandoz orzusi. She’rlar, ertaklar, dostonlar. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985. – 112 b.

149. O‘taev Q. G‘ildirak. She’rlar. – T.: Yulduzcha, 1989. – 56 b.

FOR AUTHOR USE ONLY

KIRISH..... ..4
I BOB. QIZIQMACHOQLAR – O‘ZBEK BOLALAR FOLKLORINING MUSTAQIL JANRLARIDAN BIRI.....8
I.1. “Qiziqmachoq” atamasining mohiyati va janriy xususiyatlari.....
I.2. Qiziqmachoqlarning kelib chiqish asoslari.....
II BOB. QIZIQMACHOQLARNING MAVZUIY-SHAKLIY TURLARI .37
II.1. Qiziqmachoqlarning mavzuiy yo‘nalishiga ko‘ra turlari.....
II.2. Qiziqmachoqlarning tuzilishiga ko‘ra turlari.....
II.3. Qaytarmachoq va aldanmachoqlar qiziqmachoqlarning bir turi sifatida
III BOB. QIZIQMACHOQLARNING BADIIY-KOMPOZITSION XUSUSIYATLARI..... 76
III.1. Qiziqmachoqlarning asosiy motivlari va obrazlar olami.....
III.2. Qiziqmachoqlarning lingvopoetik xususiyatlari.....
III.3. Qiziqmachoqlarning band qurilishi, vazni va qofiyalanish tizimi
XULOSA..... 112
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....115

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY



FOR AUTHOR USE ONLY

Buy your books fast and straightforward online - at one of world's fastest growing online book stores! Environmentally sound due to Print-on-Demand technologies.

Buy your books online at
www.morebooks.shop

Kaufen Sie Ihre Bücher schnell und unkompliziert online – auf einer der am schnellsten wachsenden Buchhandelsplattformen weltweit! Dank Print-On-Demand umwelt- und ressourcenschonend produzi ert.

Bücher schneller online kaufen
www.morebooks.shop

KS OmniScriptum Publishing
Brivibas gatve 197
LV-1039 Riga, Latvia
Telefax: +371 686 204 55

info@omniscriptum.com
www.omniscriptum.com

OMNIScriptum

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY